

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI

Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti

**O‘zbek tilshunosligi kafedrasini**

**Qo‘lyozma huquqida**

UDK 821.512.133 (092)

**Allaberganova Dilbarjon Atabekovna**

**XIX ASR ESKI O‘ZBEK TILIDA O‘ZLASHMALAR**

**Mutaxassislik: Lingvistika 5A 120102 (o‘zbek tili)**

Filologiya magistri akademik darajasini olish uchun

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi,  
katta o‘qituvchi A.O‘razboyev

“O‘zbek tilshunosligi”

kafedrasini mudiri: f.f.n , dots. S.Ro‘zimboyev

**Urganch-2017**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3-12
<b>I BOB. MANBALARDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING MAVZUIY-SEMANTIK GURUHLARI</b> .....	13-33
1.1. Mansab va unvonni anglatuvchi so‘zlar.....	13-26
1.2. Diplomatiyaga oid o‘zlashma so‘zlar.....	27-28
1.3. Ma‘muriy-hududiy bo‘linish bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy leksika .....	28-30
1.4. Ijtimoiy tabaqalarni ifodalovchi o‘zlashma so‘zlar.....	30-31
1.5. Iqtisodiy jarayon bilan bog‘liq o‘zlashma so‘zlar.....	31-32
1.6. Siyosiy jarayon bilan bog‘liq o‘zlashma so‘zlar.....	32-33
<b>II BOB. MANBALARDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING TARIXIY-ETIMOLOGIK TAHLILI</b> .....	34-55
2.1. Eroniy asosli ijtimoiy-siyosiy leksika.....	34-43
2.2. Arab lug‘aviy qatlamiga mansub o‘zlashma so‘zlar.....	43-55
<b>III BOB. MANBALARDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING TARKIBIY TAHLILI</b> .....	56-76
3.1. Eroniy lug‘aviy qatlamga xos o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy tahlili.....	56-63
3.2. Arab lug‘aviy qatlamiga xos o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy tahlili.....	63-76
<b>XULOSA</b> .....	77-78
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	79-85

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbek millati dunyoning barcha xalqlariga ham nasib etavermagan katta ma’naviy merosga ega. “Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinalarida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, til va adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab manbalar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir”<sup>1</sup>. Ana shunday tunganmas beqiyos ma’naviy xazinadan to‘laqonli foydalanish uchun o‘zlashma so‘zlarni chuqur bilish g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Tilshunosligimizda o‘zlashma so‘zlarni lingvistik jihatdan o‘rganish hali o‘z yechimini to‘la topgan masala emas. Xususan, ularning etimologik jihati anchayin murakkab masala bo‘lishi bilan birga bu borada munozarali o‘rinlarga ko‘plab duch kelinadi. O‘zlashma so‘zlarning yasalish xususiyatlarini ular tarixan mansub bo‘lgan tillar xususiyatiga bog‘liq holda o‘rganmaslikning imkoni yo‘q. Shu jihatdan tadqiqot turkiy, arab, eroniy (xususan, dariy, tojik, fors) tillarining grammatik xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. O‘zlashma so‘zlarning mavzuiy-semantik tasnifining ham ma’lum chegaralarini belgilash zarurati bor. Yuqorida qayd qilingan dolzarb masalalar tarixiy manbalarda bir-biriga bog‘liq holda eng ko‘p qo‘llanilgan o‘zlashma so‘zlarga oid so‘zlarni muayyan adib (muarrix) yoki manbalar misolida lingvistik tadqiq qilish ehtiyojini yuzaga keltiradi va ana shu zarurat natijasida ushbu ish yuzaga keldi. Tadqiqot obyekti sifatida Muhammad Rizo Ogahiyning “Zubdatu-t-tavorix” (“Tarixlar sarasi”) manbalari tanlandi. Lingvistik jihatdan deyarli o‘rganilmagan adib manbalarining tadqiqot obyekti sifatida tanlanishi va yuqorida ta’kidlangan murakkab ilmiy masalalar mavzuning dolzarbligini belgilay oladi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Кўрсатилган манбалар. – Б. 3-4.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ogahiy manbalaridagi o'zlashma so'zlar o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan emas. O'zbek tilshunosligida Ogahiy manbalari tadqiqiga doir ishlar salmog'i uncha katta emas. Bular S.Dolimov<sup>1</sup>, Z.Do'simov<sup>2</sup>, H.Dadaboyev<sup>3</sup>, R.Yo'ldoshev<sup>4</sup>, A.O'razboyev<sup>5</sup> ishlarida kuzatiladi.

O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlar tizimi shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda nodir ilmiy manbalar hisoblangan "Devonu lug'otit turk"<sup>6</sup>, "Muqaddimat ul-adab", "Kitob al-idrok li-lison al-atrok", "Attuhfatu zakiyatu fillug'atit turkiya", "Tarjumon", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Sanglox", "Badoe ul-lug'at", "Kelurnoma" kabi ko'plab manbalarda bayon qilingan faktlar, nazariy fikrlar muhim o'rin tutadi<sup>7</sup>. Qo'lyozma manbalardagi o'zlashma so'zlar tadqiqida turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili tarixining turli sathlari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan L.Z.Budagov<sup>8</sup>, V.V.Radlov<sup>9</sup>,

---

<sup>1</sup> Долимов С. Огахий поэзиясида омоним ва синоним сўзлар // Ўқитувчилар газетаси. 1957. – №51.

<sup>2</sup> Дўсимов З. Огахийнинг "Зубдатут-таворих" манбаларининг лексик-грамматик хусусиятлари ҳақида // Огахий абадияти. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 37-41.

<sup>3</sup> Дадабоев Х. Огахий тарихий манбаларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) №3. – Тошкент, 2009. – Б. 21-24.

<sup>4</sup> Йўлдошев Р. Огахий поэзиясида соннинг қўлланилиши // Илм сарчашмалари. 2004. – №4. – Б. 92–96; Огахий поэзиясида антонимлар // Илм сарчашмалари. – 2005. – №1. – Б.52–55.

<sup>5</sup> Ўразбоев А. Огахийнинг "Риёз уд-давла" манбаларида ижтимоий-сиёсий лексика: : Филол. фанлари номз. дисс ... – Тошкент, 2009. 156 б.

<sup>6</sup> Арабий изофали ўринлар иктибос олинган манбага мувофиқ берилди.

<sup>7</sup> Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. I-III жилдлар. –Тошкент: Ўз ФАН, 1960, 1961, 1963; Маҳмуд Замахшарий. Муқаддимат ул-адаб.

Феъллар боби. Таржимон ва нашрга тайёрловчи З.Исломов. – Тошкент: Ислон университети нашриёти, 2002. Сўз боши. – Б. 3-10. Луғат қисми 886 б.; Расулова Н.А. Исследования языка «Китаб ал-идрак ли-лison ал-атрак» Абу Хаййана. Автореф. дис ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1969; Асилова Н. Об источниках «Китаб ал-идрак ли-лisonал ал-атрак» Абу Хаййана // Советская тюркология. – 1988. – №4.

– С. 48-51.; Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1968. – 279 б.; Изысканный дар тюркскому языку (Грамматический тракт XIV в. на арабском языке). Введение, лексико-грамматический очерк, перевод, глоссарий, грамматический указатель Э.И.Фазылова и М.Т.Зияевой, – Ташкент; 1978. – 278 с.; «Таржумон» – XIV аср обидаси.

Нашрга тайёрловчи А.Юнусов. – Тошкент: Фан, 1980. – 127 б.; Алишер Навоий. Манбалар. 3 томлик. 3-том. Нашрга тайёрловчи Ойбек ва П.Шамсиев, – Тошкент: Ўзбекистон Давлат нашриёти, 1948. – Б. 171-219; Боровков А.К. «Бадаи ал-лугат». Словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Наваи. – М.: Издательство Восточной литературы, 1961. – 265 с.; Хафизова А. «Келурнаме» Мухаммед Якуба Чинги // Советская тюркология. – 1972. – №3. – С. 97-102.; Ибрагимова А. "Келурнома" луғатининг лексикасига оид кузатишлар // Ўзбек тили тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 108-125.; Чинги Мухаммед Якуб. Келурнаме. (Староузбекско-таджикско-персидский словарь XVII в.) Введение, транскрипция и перевод текста, глоссарий, лексико-грамматический очерк, грамматический указатель А.Ибрагимовой. – Ташкент: Фан, 1982. –146 с.

<sup>8</sup> Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I. – СПб. 1869/1960. -820 с.; том II. – СПб. 1871. – 417 с.

<sup>9</sup> Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. – СПб. 1893-1911.

A.K.Borovkov<sup>1</sup>, N.A.Baskakov<sup>2</sup>, E.V.Sevortyan<sup>3</sup>, E.I.Fozilov<sup>4</sup>, B.Bafoyev<sup>5</sup> kabi olimlar tomonidan bajarilgan leksikologik va leksikografik ishlar katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adiblar tiliga oid lugʻatlarda ham, tabiiyki, oʻzlashma soʻzlarga mansub juda koʻplab soʻzlarning izohini topamiz<sup>6</sup>. Taʼkidlash joizki, Navoiy yoki Bobur manbalari uchun yaratilgan lugʻatlarda ularning mazkur ijodkorlar tilida mavjud maʼnolarigina berilishi tabiiydir. Muhimi, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da<sup>7</sup> oʻzlashma soʻzlarga jiddiy eʼtibor berilganini koʻramiz.

Muhammad Rizo Ogahiy shaxsi va ijodiga ilk munosabatlarni uning oʻz zamondoshlari manbalarida uchratamiz<sup>8</sup>. Ogahiy ijodini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganish shoir tavalludining 150 yilligi munosabati bilan V.Abdullaev<sup>9</sup>, A.Qayumov<sup>10</sup>, V.Zohidov<sup>11</sup>, Gʻ.Karimov, S.Dolimov kabi zabardast oʻzbek olimlari boshlab berdilar.

Bizga maʼlumki, Ogahiy manbalarini lingvistik jihatdan oʻrganish hanuzgacha davom etmoqda. Ogahiy manbalari til xususiyatlariga bagʻishlangan ilk maqola S.Dolimov tomonidan eʼlon qilingan<sup>12</sup>. Z.Doʻsimovning “Ogahiyning “Zubdatu-t-tavorix” manbalarining leksik-grammatik xususiyatlari

<sup>1</sup> Боровков А.К. Очерки истории узбекского языка, III. (Лексика среднеазиатского тевфсира XII-XIII вв.) // Ученые записки института Востоковедения, XVI. – М.-Л.: Издательство Академии наук СССР, 1958. – С. 138-219; Его же. Лексика среднеазиатского тевфсира XII-XIII вв. – М.; 1963.

<sup>2</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства // Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.63-71.

<sup>3</sup> Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1974, 1978, 1980.

<sup>4</sup> Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмские памятники XIV века. Том I-II. – Ташкент: Фан, 1966, 1971.

<sup>5</sup> Бафоев Б. Навоий манбалар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 157 б.; Кўхна сўзлар тарихи. – Фан, 1991. – 152 б.

<sup>6</sup> Боровков А.К. «Бадаи ал-лугат». Словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Наваи. – М.; 1961.; «Абушка» В.В.Вельяминов-Зернов. Словарь джагатайско-турецкий. – СПб. 1868; Мухамедова Б. Предварительные замечания о словаре «Hell-I luḡat-i ṣaḡatai» // Тюркская лексика и лексикография. – М.: Наука, 1971. – С. 111-121. Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий манбаларлари луғати. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 782 б.; Алишер Навоий манбаларлари тилининг изоҳли луғати. I-IV жилдлар. – Тошкент: Фан, 1983-1985; Назарова Х. Захириддин Мухаммад Бобур манбаларлари учун қисқача луғат. – Тошкент; 1972. – 190 б.; Ҳасанов Б. Навоий манбаларлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993; Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача луғат. – Андижон; 2008.

<sup>7</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-5-жилдлар. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2006-2008.

<sup>8</sup> Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий // Мерос туркуми. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б.175-265; Девони Мавлоно Комил маа таворихи шоҳони Хоразм. Лит. Г.Яковлева. – Ташкент, 1327 хиж. – Б.26.

<sup>9</sup> Абдуллаев В. Алишер Навоий аъналарининг хоразмлик шоирлар томонидан давом эттирилишига доир // Шарқ юлдузи. – 1959. – № 4. – Б. 127-137.

<sup>10</sup> Қайумов А. Мухаммад Ризо Огаҳий // Қизил Ўзбекистон. – Тошкент, 1959. 14 сентябрь.

<sup>11</sup> Воҳидов З. Огаҳий // Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1961.

<sup>12</sup> Долимов С. Огаҳий поэзиясида омоним ва синоним сўзлар // Ўқитувчилар газетаси. 1957. – № 51.

haqida” maqolasida esa mazkur manbalarning lisoniy o‘ziga xosliklari ko‘rsatib berilgan<sup>1</sup>. Olim “Zubdatu-t- tavorix”, umuman, Ogahiyning barcha tarixiy manbalariga xos bo‘lgan leksik va sintaktik xususiyatlar haqida mulohaza yuritar ekan, jumladan, ularda forsiy izofa va izofiy zanjirning keng qo‘llanganligi, murakkab sintaktik qurilmalarda fors tili sintaktik qurilishining ta’siri katta ekanligini misollar orqali ko‘rsatib beradi.

XVII-XIX asrlar eski o‘zbek tili morfologik xususiyatlarini tekshirgan A.Matg‘oziyev ko‘plab obyektlar qatori Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol”, Ogahiyning “Zubdatu-t- tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohid ul-iqbol” kabi manbalarini mavjud qo‘lyozmalaridan foydalangan holda tahlilga tortgan<sup>2</sup>. H.Dadaboyevning “Ogahiy tarixiy manbalaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida” nomli maqolasida bayon qilingan nazariy fikr va amaliy takliflar shoir, muarrix va tarjimon ijodkor tili leksikasini o‘rganishda muhimdir. Jumladan, olim Ogahiy tarixiy manbalari tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tarkibida qadimgi turkiy til va eski turkiy til davridan faol qo‘llanib kelayotgan asl turkiycha istilohlar o‘z ifodasini topgani, bu so‘z-terminlar birlamchi ma’nosini deyarli aynan saqlab qolishga erishgani, ayni paytda VII–XIV asrlarda keng ishlatilgan tub turkiycha istilohlarning ma’lum qismi Ogahiy davri o‘zbek adabiy tili so‘z boyligidan chiqib ketgani, buning sababi esa ko‘p sonli o‘zlashmalar va yangidan yasalgan leksik birliklarning faollashuvi ekanligini to‘g‘ri ta’kidlaydi<sup>3</sup>. Ogahiyning tarixiy manbalari nashriga ilova lug‘at tuzgan N.Norqulov xizmatlarini ham shoir, muarrix va tarjimon ijodkor manbalari tilida o‘zlashma so‘zlarni o‘rganishga qo‘shilgan o‘ziga xos hissa sifatida baholash mumkin<sup>4</sup>. Unda Ogahiy tarixiy manbalarida ishlatilgan 400 ga yaqin so‘z izohlangan. Shoir tavalludining 200 yilligi arafasida Ogahiyning

<sup>1</sup> Дўсимов З. Огаҳийнинг “Зубдатут-таворих” манбаларининг лексик-грамматик хусусиятлари ҳақида // Огаҳий абадияти. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 37-41.

<sup>2</sup> Матгазиев А. Исследование по морфологии староузбекского языка (конец XVII – до семидесятых годов XIX в.); Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – Ташкент; 1979. – 41 с.

<sup>3</sup> Дадабоев Х. Огаҳий тарихий манбаларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) – №3. – Тошкент, 2009. –Б. 21-24.

<sup>4</sup> Муҳаммад Ризо мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Манбаларлар. VI жилдлик. V жилд. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –Б.202-210.

soʻnggi manbalari “Shohid ul-iqbol” nashrdan chiqdi<sup>1</sup>. Manbalarga ilova qilingan lugʻatda 500 dan ortiq soʻzning izohi berilgan.

Ogahiy XIX asrda hukmronlik qilgan Xiva xonlari davri voqealariga bagʻishlangan besh memuar qissa yozdi. Oллоhqulixon davri (1825—1843) toʻgʻrisidagi “Riyoz ud-davla”, Rahimqulixon davri voqealari (1843—1846) tasvirlangan “Zubdatu-t-tavorix”, Muhammadaminxon (1846—1854), Sayyid Abdullohxon (1854) va Qutlugʻmurodxon (1855) hukmronlik yillaridagi murakkab va ziddiyatli hodisalar haqidagi “Jomeʼul-voqeoti sultoniyy”, Sayyid Muhammadxon zamoniga (1856—1865) doir “Gulshani davlat” hamda Muhammad Rahimxon soniy — Feruz davri (1865—1910) vasf etilgan “Shohid ul-iqbol” kabi manbalar shular jumlasidandir. Bular qatoriga Shermuhammad Munis yoza boshlagan “Firdavs ul-iqbol”ni davom ettirib, badiiy-tarixiy nasrning mukammal namunasi sifatida yakunlaganini ham qoʻshsak, Ogahiyning milliy sheʼriyatimiz va tarjima sanʼati bilan bir qatorda oʻzbek memuar-qissachiligi rivojiga qoʻshgan qissasi ham nechogʻliq ulkan ekani ayon boʻladi.

Shu paytga qadar asosan tarixiy manbalar sifatida baholanib kelgan Ogahiy badiiy-tarixiy nasrini maxsus oʻrgangan Vohid Abdullaev bu manbalarni "tarixiy-badiiy proza"<sup>2</sup> namunalari deb atasa, ustoz manbashunoslar — Gʻulom Karimov va Subutoy Dolimov ularning "badiiy-tarixiy manbalar tarzida qimmatli" ekaniga urgʻu beradilar<sup>3</sup>. N.Komilov esa Ogahiyning tarjima manbalari taxdili misolida milliy adabiyotimiz tarixida yaratilgan "qissa hikoyalar (povest)"larga eʼtibor qaratadi<sup>4</sup>. Binobarin, Ogahiyning tarixiy mavzudagi barcha nasriy manbalari, jumladan, tadqiqotimiz manbai boʻlgan "Zubdatu-t-tavorix" ("Tarixlar sarasi") ham birinchi navbatda badiiy, undan keyingina tarixiy manbalar hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Muḥammad Rizo Erniyozbek ŷgli Ogaḥiy. Shoḥidu-l-iqbol. Nashrga tayyorlovchi, sŷzboḥi va izoḥlar muallifi N.Šodmonov. — Toḥkent: Muḥarrip, 2009. — 335 b.

<sup>2</sup> Abdullaev V. ŷzbek adabiyoti tarixi. — Toḥkenti: ŷqituvchi, 1967, — B. 380

<sup>3</sup> Karimov F., Dolimov S. Ogaḥiy — tarixchi / Ogaḥiy. Manbalarlar, VI jildlik, V j. — Toḥkent: F.ŷulom nomiḁagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1978, — B. 16.

<sup>4</sup> Komilov N. Ogaḥiyning tarjimonlik maḥorati // Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon (Ogaḥiy haḁida maqolalar). — T.: Abdulla Qodiriy nomiḁagi xalq merosi nashriyoti, 1999, — B. 80.

Muhim tarixiy ma'lumotlar berilgan bo'lishiga qaramay, uslubi, janr xususiyatlari, ifoda tarzi va boshqa belgilariga ko'ra "Zubdatu-t-tavorix"ni ham, Ogahiy badiiy-tarixiy nasrining boshqa namunalarini ham sof tarixiy-ilmiy manbalar sifatida baholab bo'lmaydi. Bu manbalarni adabiy manba sifatida o'rganish esa tilshunoslik, adabiyotshunoslik, xususan, uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan manbashunoslik va matnshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy xulosalar berishi aniq.

Ma'lumki, o'tgan asrning 70-yillari oxirida ustoz olimlar G'ulom Karimov va Subutoy Dolimov sa'y-harakatlari bilan Ogahiy manbalarining olti jildligi nashr etilgan. Badiiy-tarixiy manbalari jamlangan beshinchi jildda "Zubdatu-t-tavorix"dan" sarlavhasi ostida manbalardan kichik bir parcha e'lon qilingan. Biroq Abulg'ozir Rahimqul Muhammad Bahodirxon saltanati davriga bag'ishlangan bu memuar-qissaning ilmiy izohlar bilan ta'minlangan to'liq matnini chop etish imkoni bo'lgan emas. Tabiiyki, o'sha kezlari manbalarning mukammal nashrini amalga oshirish to'g'risida orzu ham qilib bo'lmas edi. Chunki, badiiy-tarixiy nasrning bu yuksak namunasi mohiyatan o'sha davrdagi hukmron mafkura siyosatiga tamomila zid edi. Unda tarixiy voqelik betakror badiiyat bilan tasvirlangan, hukmdor ajdodlarimizning johilligi emas, fazilatlarini xususida bahs yuritilgan edi.

Ta'kidlash joizki, uzoq muddat davomida "Zubdatu-t-tavorix" tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib keldi. O'tmish adabiy-tarixiy merosni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham kuchaygan bugungi kunda, zamondoshlarimizni, ayniqsa, yosh avlodni mazkur manbalarning asl mohiyatidan xabardor qilish, buning uchun esa manbalarning ilmiy izohlar bilan ta'minlangan mukammal nashrini amalga oshirish hayotiy zaruratdir. Binobarin, manbalardan e'lon qilingan parcha, ta'kiddanganidek, o'quvchiga uning mazmun-mohiyati haqida to'laqonli tasavvur bera olmaydi. "Zubdatu-t-tavorix"ning ilmiy izohlar, lug'at va ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan asl qo'lyozma manba asosidagi to'liq tabdili ehtiyoj samarasi ekanini ta'kidlash kerak.

Sharqda, jumladan, Turonzaminda hukmdorlarning soʻzga ilohiy neʼmat deb qarashlari odatiy hol. Yaxshi nom qoldirish — ular hayotining asosiy dasturi hisoblangan. Xiva xoni Rahimqulixonning "zikri jamil" va "vasfi jalil"ini "zamon avroqida boqiy qoldirish" va "jahon ahlin hayrat bahrigʻa solish"dek xayrli niyati "Zubdatu-t-tavorix" yaratilishining asosiy sababidir. Maʼlum boʻladiki, Ogahiy bu memuar-qissani Rahimqulixon farmoniga binoan yozishga kirishgan.

"Zubdatu-t-tavorix" ikki qismdan iborat. Muarrir qayd etganidek, birinchi qismda Rahimqulixonning tugʻilishi, ilm oʻrganish va harbiy mahorat egallash yoʻlidagi saʼy-harakatlari, shuningdek, boʻlgʻusi xonning Hazorasp hokimi sifatida olib borgan faoliyati goʻzal badiiy shaklda mufassal bayon qilinadi. Manbaning ikkinchi qismi Rahimqulixonning saltanat taxtiga oʻtirgan kunidan to vafotiga qadar sodir boʻlgan voqealar tasviriga bagʻishlangan.

Asarda Xiva hukmdori Rahimqulixon ezgu fazilatlar sohibi sifatida ulugʻlanadi, uning koʻplab ilmlarni egallagani, fuqaroga shafqat va marhamat, karam va saxovat koʻrsatishda tengsiz ekani vashf etiladi. Xiva xonlarining maʼrifatli boʻlganini, adabiyot va sanʼat, ilmu hunar rivojiga alohida eʼtibor berganini eʼtirof etgan holda, taʼkidlash kerakki, bu singari tavsiflar tarixiy haqiqatga toʻliq mutanosib boʻlmasligi ham mumkin. Biroq bir narsa aniqki, bu tavsiflar zamirida Muhammad Rizo Ogahiyning odil shoh haqidagi orzu-ideallari ohorli poetik tashbihlar bilan ifodalangan.

Tarixni oʻrganishdan maqsad undan ibrat olish. Hazrat Navoiy taʼbiri bilan aytganda, "Ne ishdin mamlakat obod, qayu ishdin ulus barbod boʻlgan"ini tafakkur koʻzgisida koʻrib, ibrat olingandagina bu murod hosil boʻladi. Badiiy-tarixiy manba sifatida "Zubdatu-t-tavorix"ning ahamiyati bu jihatdan ham katta. Manbada Xiva va Buxoro xonliklari oʻrtasidagi oʻzaro nizolar, qonli urushlar, ularning oqibatlari haqidagi haqqoniy maʼlumotlar taʼsirchan ifodalangan. Aksar fikrlar Qurʼoni karim oyatlari va paygʻambar alayhissalom hadislar bilan

dalillangan. Iymonsizlik, e'tiqodsizlikning oqibati xorlik ekani tarixiy voqelikning badiiy talqini orqali aks ettirilgan.

Keyingi yillarda Ogahiy manbalari tilini monografik planda tadqiq qilish boshlandi. Bu esa ogahiyshunoslikning muhim bir yo'nalishi rivojiga yo'l ochib beradi. Jumladan, R.Yo'ldoshevning 50 dan ortiq maqolasi e'lon qilingan<sup>1</sup>. Ogahiy tilini leksikologiyadan boshqa sathlar doirasida ham monografik o'rganish bugungi kunda tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Urganch davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'rganilayotgan "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi istiqbolli reja tarkibiga kiritilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ishning asosiy maqsadi Muhammad Rizo Ogahiyning "Zubdatu-t- tavorix" manbalarida qo'llanilgan o'zlashma so'zlarni lingvistik tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- manbalardagi o'zlashma so'zlarning mavzuiy-semantik guruhlarini belgilash va ushbu guruhlariga kiruvchi so'zlarni tasniflash;
- o'zlashma so'zlarni lug'aviy qatlamlarga ajratish, ularni o'zbek tili tarixiy leksikasining umumiy tizimi bilan qiyoslash;
- o'zlashma so'zlarga mansub so'zlarning o'zaro qarindosh bo'lmagan, lekin yaqin madaniy, siyosiy, geografik, diniy mushtaraklikka ega bo'lgan xalqlar tillarida bir-biriga o'zlashish va singish sabablari, lingvistik va ekstralingvistik faktorlarni aniqlash;

---

<sup>1</sup> Йўлдошев Р. Огаҳий поэзиясида соннинг қўлланилиши // Илм сарчашмалари. – 2004. – №4.– Б. 92-96; Огаҳий поэзиясида омонимлар // Мунаввар умр. – Урганч, 2005, – Б. 84-85; Огаҳий поэзиясида антонимлар // Илм сарчашмалари. – 2005. – №1.– Б. 52-55; Огаҳий поэзиясида спортга алоқадор сўзлар // Илм сарчашмалари. – №4. 2004; Огаҳий поэзиясида "ов" мазмун майдони // Илм сарчашмалари. – 2005. – №4. – Б. 78-82; Огаҳий поэзиясида озиқ-овқат ва ичимликлар билан боғлиқ сўзлар // Илм сарчашмалари. – 2006 – №1 ва ҳоказо. Олимнинг мақолалари рўйхати билан УрДУсайтида танишиш мумкин.

– o‘zlashma so‘zlar tizimiga mansub so‘zlarning tarkibiy tahlilini diaxron va sinxron aspektlar asosida tadqiq qilish. Bunda ular tarixan mansub bo‘lgan tillardagi o‘ziga xos yasaliş xususiyatini e’tiborga olish;

– o‘zlashma so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida turli lisoniy hodisalar (ma’no torayishi, ma’no kengayishi va h.k.)ga uchrashi, ularda ro‘y beradigan fonetik o‘zgarishlar kabilarga e’tibor qaratish.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Ishning tadqiqot obyekti sifatida Muhammad Rizo Ogahiyning “Zubdatu-t-tavorix”<sup>1</sup> tarixiy asari tanlandi.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot doirasida murakkab masalalar yuzasidan bildirilgan fikrlarda yetakchi o‘zbek tilshunoslari hamda xorijlik taniqli sharqshunoslarning tarixiy leksika borasidagi muhim nazariy konsepsiyalariga tayanildi.

Mavzuni yoritishda diaxron hamda sinxron aspektlarda qiyosiy, tavsifiy metodlardan foydalanildi.

#### **Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:**

1. “Zubdatu-t- tavorix”dagi o‘zlashma so‘zlarni o‘rganish Ogahiyning nafaqat tarixiy manbalari, balki uning butun leksik fondi tadqiqida muhim o‘rin tutadi.

2. Ogahiy manbalaridagi o‘zlashma so‘zlarni tadqiq etish keyinchalik boshqa manbalar misolida ham ushbu muammoni o‘rganishda muhim amaliy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

3. Manbalardagi turkiy, eroniy va arabiy qatlamlarga xos o‘zlashma so‘zlarga mansub so‘zlarning tarkibiy tahlili ular tarixan mansub bo‘lgan tillarning morfologik xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi va ularni ayni shu jihatdan o‘rganish tarixiy leksika tadqiqida muhimdir.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilar bilan belgilanadi:

–“Zubdatu-t- tavorix”dagi o‘zlashma so‘zlarga mansub so‘zlar keng tahlil qilindi ;

– ushbu lug‘aviy birliklar mavzuiy-semantik guruhlarga ajratildi;

---

<sup>1</sup> Мухаммад Ризо Огахий. Зубдату-т-таворих. Нашрга тайёрловчи Н.Жабборов –Тошкент: Ўзбекистон, 2009.

- ularning genetik tahliliga oid kuzatishlar bayon qilindi;
- Ogahiyning o‘zlashma so‘zlardan foydalanish mahorati ochib berildi;

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu tadqiqot o‘zbek tili o‘zlashma so‘zlari shakllanishini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar Ogahiy manbalari tilining izohli lug‘atini, o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning etimologik lug‘atini yaratishda qo‘l keladi.

**Natijalarning joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha Urganch davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasida qoshidagi ilmiy-nazariy seminar majlislarida, yosh olimlar konferensiyalarida ilmiy ma‘ruzalar qilingan.

**Ishning sinovdan o‘tishi.** Mazkur tadqiqot mavzusi Urganch davlat universiteti Ilmiy kengashida tasdiqlangan.

**Natijalarning e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti professor-o‘qituvchilari ilmiy-nazariy anjumanlarida ma‘ruzalar o‘qilgan. Ish yuzasidan 3 ta maqola e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 85 sahifani tashkil etadi.

## I B O B

### MANBALARDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING MAVZUIY- SEMANTIK GURUHLARI

O‘zbek tili lug‘at boyligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, chet tillardan o‘zlashgan so‘zlarning salmoqli o‘rin egallaganligini guvohi bo‘lamiz. Bu holatni XIX asr eski o‘zbek tili asarlari leksikasi misolida tadqiq qilishimiz mumkin. Bu davr asarlari lug‘at boyligida arab, fors tilidan o‘zlashgan so‘zlarning hajmi anchagina ko‘pni tashkil qiladi. Fikrimizni qaratmoqchi bo‘lgan forscha, arabcha o‘zlashmalar, ayniqsa keng o‘rin egallagan.

Millatlararo munosabatlar arab-fors tilidagi ko‘pgina lug‘aviy birliklar, iboralar, maqol va matallarning turkiy tillarga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Arab –fors tillaridan kirib, lug‘at boyligiga singib ketgan so‘zlar eski o‘zbek tili xazinasida juda ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Shu jihatdan olib qaraganda, “Zubdatu-t- tavorix”dagi o‘zlashma so‘zlarga mansub so‘zlarni muayyan mavzuiy-semantik guruhlariga ajratgan holda tahlil qilish mumkin. Ogahiyning barcha tarixiy-badiiy manbalari kabi ushbu manba ham mutafakkir adib tilining noyob qirralarini o‘zida jamlaydi. Jumladan, biz manbalar tilining o‘ziga xos jihatlaridan bo‘lgan quyidagi jihatlariga e’tibor qaratishni lozim topdik.

#### **1.1. Mansab va unvonni anglatuvchi so‘zlar**

XIX asr Xiva xonligida amalda bo‘lgan mansab va lavozim, unvonlar xususida nisbatan to‘laroq tasavvur hosil qilishimizda o‘sha davrda yaratilgan tarixiy manbalar bilan bir qatorda Xiva xonligi arxivi materiallari ham katta yordam beradi. Mavzuga doir adabiyotlarda mansab va unvon nomlari turli tarzda guruhlariga ajratilgan. Masalan, N.A.Baskakov Xiva xonligidagi mansab va unvon nomlarini yuqori va ma’muriy hukumat egalarining mansab va unvonlari, Xiva xonligidagi saroy amaldorlari unvonlari, harbiy mansab va

unvonlar, diniy mansab va unvonlar, sud tizimi nomenklaturasi, soliq to'lovchi tabaqalar mansab va unvonlari tarzda 6 guruhga ajratib tahlil qiladi<sup>1</sup>.

XIX asr Xorazm tarixnavislari manbalari va Xiva xonlari arxivi materiallari asosida o'sha davrda Xiva xonligida amalda bo'lgan mansab va lavozim nomlarini o'z navbatida quyidagi kichik guruhlarga ajratish mumkin:

***a) mutlaq hukmdor (monarx) tushunchasini ifodalovchi so'zlar.***

Mumtoz o'zbek adiblari, jumladan, Ogahiyning tarixiy manbalari tilida "monarx" tushunchasini ifodalovchi bir qancha so'zlar mavjud bo'lib, ular manbalar yozilgan yoki voqealari bayon qilinayotgan davr, muallifning xos uslubi va boshqa jihatlarni e'tiborga olgan holda bir-biriga ma'nodosh sifatida, ayrim o'rinlarda esa farqlangan holda ishlatilgan. Xususan, Ogahiyning "Zubdatu-t-tavorix" manbalarida mazkur tushunchani ifodalovchi o'zlashma *qaysar, shoh, shahriyor, podshoh, xusrav, sulton, hokim, amir, voliy, kadxudo* kabi tarixiy so'zlar ishlatilganini ko'ramiz.

*Shoh* شاه so'zi manbalar davomida quyidagi ma'nolarda ishlatilgan:

1. *Xonning* sinonimi:

Davlatu iqbol anisi edi,

*Shohi* falakjohning inisi edi. (256<sup>b</sup>).

2. Davlat tizimi shohlik bo'lgan davlat boshlig'i, ya'ni Eron shohi ma'nosida muayyan mazmunda: **Eron mamolikining podshohi farmonravosi Fathalishoh Qochorkim, Boboxon shohg'a mashhur erdi, ul jamoaning dushmani qadimi erdi. (269<sup>b</sup>).** Ta'kidlash zarurki, Ogahiy tarixiy manbalarida ushbu so'z shaxs ismiga qo'shilib kelgan hollarda rasmiy unvon mazmuni kasb etadi. Masalan, *Fathalishoh*.

3. Vassal viloyat hokimi: **Davlati olampanohning jonsipor xizmatkorlaridan jalodattov'am Hasanmurod mahramini Hirot viloyatining podshohi jalodat dastgohi, sohibul-farmon shoh Komrong'akim, barcha avqot musodiqat va muvofiqot urvatulvusqosig'a xayrixohlig' rasmin ilgari tutar erdi, irsol qildi. (255<sup>b</sup>).** Ko'rinadiki, bu holda *shoh* so'zi shaxs ismidan oldin

<sup>1</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства // Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.63-71.

qo‘llaniladi. Bu tarzda ma’no farqlanishini *mirzo* so‘zining qo‘llanishida ham kuzatamiz. Shuni ham ta’kidlash lozimki, arab istilosidan keyin Eron monarxlarida shoh unvoni taomildan chiqadi va saljuqiylardan Malikshoh davridan boshlab yana qo‘llanila boshlagan. Barcha vakillari ismi tarkibida *shoh* unvoni bo‘lgan birinchi sulola safaviylar edi. Ularda shoh unvoni ism oldidan kelgan: *Shohismoil*, *Shohabbos* kabi. Keyingi sulolalar, jumladan, “Zubdatu-t-tavorix”da tilgan olinadigan qochorlarda mazkur unvon sohibi nomidan keyin keladi. Masalan, *Fathalishoh* kabi<sup>1</sup>. “Zubdatu-t-tavorix”da *shoh*, *shahriyor*, *podshoh* so‘zlari bilan birga shu mazmunda *shahanshoh* so‘zi ham uchraydi. *Shohanshoh*, *shahanshoh* *shohonshoh* شاهان شاه ning o‘zgargan shakli bo‘lib, “shohlar shohi” degan ma’noni bildiradi.

Bundan tashqari, Ogahiy manbalari leksikasida yuqoridagilarga sinonim sifatida *xusrav* // *xisrav* خسرو so‘zi ham uchraydi, shuningdek, unga o‘zakdosh *xusravona*, *xusravoniy* so‘zlari ham faol ishlatilgan. *Xusrav* so‘zi pahlaviy *husriiv* (“yaxshi nom” ma’nosida, *xusrav* shakli ham bor), “Avesto”da *husravah*, sanskritda *sushravas*, o‘rta fors tilida *xosrau* shakllarida bo‘lgan. Abu Abdulloh Xorazmiyning yozishicha, *xusrav*ning arabiylashgan (muarrab) shakli *kisro*dir. Shuning uchun ham payg‘ambarimiz o‘z nubuvvati avvalida Eron shohi Kisroga maktub yo‘llagan deyiladi. Keyinchalik fors tilida ham, eski o‘zbek tilida ham bu so‘z muayyan ma’nosi – Eron shohi mazmunidan monarx tushunchasining umumiy ifodasiga aylangan. Manbalarda *xusrav* so‘zi *podshoh* kabi yuqorida ta’kidlangan ma’noda ishlatilgan, ammo farqli tomoni bu so‘zda ham *shoh*dagi kabi ta’zim, ulug‘lash, kuchli madh kabi ma’no ottenkalari mavjud:

Dedilarkim: “Ey *xusravi* komron,  
Na amr aylasang jonimizg‘a ravon.  
Gunahkor qullarmiz oldingda biz,  
Tutarmiz na hukm aylasang biz”. (257<sup>b</sup>).

---

<sup>1</sup> Гафуров О. Асма ул-хусна ёхуд табаррук исмлар. II қисм. – Тошкент, 1998. – Б. 56.

*Shahriyor* شهریار soʻzi ham mumtoz adiblarimiz tilida “podshoh” maʼnosida ishlatilgan<sup>1</sup>. Manbalarda mazkur soʻz koʻp hollarda *xonning* sinonimi sifatida keladi: *Xorazm mamolikining shahriyori sohib ixtiyori...; shahriyori Iskandarshavkat... (264<sup>b</sup>)*. Manbalarda ushbu soʻz koʻp hollarda monarx maʼnosida emas, koʻchma maʼnoda badiiy vosita sifatida ishlatilgan.

*Podshoh* پادشاه. Eroniy qatlamga mansub ushbu soʻz *monarx* tushunchani ifodalashda mumtoz adiblarimiz tilida keng qoʻllanilgan. *Podshoh* soʻzi manbalarda *monarx* tushunchasini umumlashtirgan holatda ifodalagan. Buni quyidagi parchalar orqali ham koʻrishimiz mumkin:

1. *Monarx* tushunchasining umumiy ifodasi sifatida: *Ul jamoani magʻfiratnishop Muhammadrahim Bahodirxondin oʻzga hech podshohi zoʻrdast tahakkum bila boshin past qilmamish erdi va lekin ul hazrat dogʻi rom qilmoq uchun zakotin bittamom olmamish erdi. (262<sup>b</sup>)*.

2. Xiva va Qoʻqon xonlariga nisbatan: ...hazrati *podshohi* karam dastgoh Oqdarband eliga marhamat va shafqat koʻrguzub... (263<sup>b</sup>).

3. Buxoro amiriga nisbatan: ... amir *Haydar podshohning* musolaha talabi bila yuborgan sulhnomasin sohibqironi jannatmakonning hangomi vafotida kelturub erdilar... (255<sup>b</sup>).

4. Eron shohiga nisbatan: Mazkur *podshoh* (Fathalixon Qochor)ning barcha tamannosi va qilgʻon iltimosi vuquʻi bashorati uchun... (269<sup>b</sup>).

5. *Imperatorning* maʼnodoshi sifatida: *Rusiya podshohi* oning tamannosi zaminida oʻz behbudin va savdosi behbudida oʻz sudin taxayyul qilib... (318<sup>b</sup>).

*Sulton* سلطان soʻzi tariximizning turli davrlarida turlicha mazmun kasb etib kelgan: 1. X asrlarda musulmon mamlakatlarida hukmdor *sulton* deyilgan. XI asrda saljuqiylardan boshlab bu unvonni arab xalifaligidan mustaqil davlat hukmdorlari olgan. Hozirda mazkur unvon davlat boshqaruvi monarxiya boʻlgan baʼzi islom davlatlaridagina saqlanib qolgan. Masalan, Bruney sultoni. 2. Moʻgʻul feodal imperiyasi inqirozidan keyin podshohlik qilmagan chingiziylar

sulton deb yuritilgan<sup>1</sup>. “Zubdatu-t-tavorix”da *sulton* soʻzi quyidagi maʼnolarda ishlatilgan:

1. Muayyan istilohiy mazmun – oʻzini chingiziylardan hisoblovchi koʻchmanchi xonlar maʼnosida: ...chingiziya xonadonining podshohi rafeʼul-makoni shavkatu izzatnishon *sulton* Temurxon... (255<sup>b</sup>).

2. *Xon* soʻzining maʼnodoshi sifatida: Chun ul hazrati *sultoni* jannatmakonning farmoni vojibulizʼoni mujibi bila... yoki ...hazrati *sultoni* sohibqironning oʻz birodari arjumandi... (255<sup>b</sup>).

*Sulton* soʻzining *podshoh* soʻziga sinonim sifatida ishlatilganini Navoiy manbalarida ham uchratamiz:

Temurxon naslidin *sulton* Ulugʻbek  
Ki, olam koʻrmadi *sulton* aningdek<sup>2</sup>.

*Sulton*ning arabcha siniq koʻplik shakli *salotin* tarzida ishlatilgan: Xususan, *salotini* sohibiqtidorlargʻa, balki, alzamdur. (255<sup>a</sup>).

*Hokim* حاكم . Ushbu soʻz manbalar davomida quyidagi maʼnolarda ishlatilgan:

1. Viloyat, maʼmuriy hudud hokimi: Ul erda Marv viloyatining *hokimi*... (257<sup>b</sup>); Saraxs oʻlkasining *hokimi* Odina Qurtxon bu bechora va notavonlarning minnatin koʻtarib... (259<sup>b</sup>).

2. Qalʼa, shahar yoki qoʻrgʻon hokimi<sup>3</sup>: Va lekin Hasanali mirzokim, Mashhad shahrining *hokimi* farmonravosi erdi... (260<sup>b</sup>); chun ul hazrat saltanat lavozimi va mamlakat zavobiti ishtigʻolidin, filjumla, farogʻ hosil qildi, atrof va aknofdagʻi qiloʻ va bilod *hokimlari*... (255<sup>b</sup>); Daragiz qoʻrgʻonining *hokimi* oliyshoni Beklarxon... (261<sup>b</sup>).

3. “Zubdatu-t-tavorix”ning baʼzi oʻrinlarida bu soʻz mamlakat hukmdoriga nisbatan ham ishlatiladi: Panshanba kuni Hirot mamlakatining *hokimi* shoh Komronkim... (269<sup>b</sup>); ...chun Buxoro *hokimining* ul noloyiq atvori ul hazratniig zamiri futuvzatosoriga muvofiq tushmay... (298<sup>b</sup>).

<sup>1</sup> Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 54.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Муқаммал манбалар тўплами. 20 томлик. 8-том. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 463.

Manbalarda qoʻllanilgan *hokimi bilistiqlol* **حاكم بالاستقلال** izofiy birikmasi “mustaqil hokim” degan maʼnoni anglatadi: Oʻzi oning oʻrnigʻa *hokimi bilistiqlol* boʻlub, shia rusumi rivojigʻa ishtigʻol koʻrguzdi. (262<sup>b</sup>). *Hokimning* siniq koʻplik shakli *hukkom* **حکام**dir.

*Amir* **امير** soʻzi manbalar davomida quyidagi maʼnolarda ishlatilgan:

1. Podshoh, hukmdor<sup>1</sup>, yaʼni boshqaruv tuzumi amirlik (amorat) boʻlgan davlat boshligʻi: **...chun ul hazrat koʻrdikim, amir Haydar xizmatigʻa borurgʻa ruxsat berib yibordi. (255<sup>b</sup>).**

2. Xiva xonligida *amir* “amirulumaro” kabi saroy faxriy unvonlaridan biri hisoblangan<sup>2</sup>.

*Voliy* **والى** – hukmdor, podshoh. Soʻzning bu mazmuniga *valiya* **ولی** feʼlining *egalik qilmoq* maʼnosi asos boʻlgan. *Voliy* ana shu feʼning aniq nisbat sifatdoshidir. Tarixiy manbalarda *voliy* soʻzining quyidagi maʼnolarda ishlatilganini koʻramiz: 1. Viloyat hokimi. 2. Mamlakat hukmdori. 3. XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin yaratilgan forsiy manbalarda general-gubernator<sup>3</sup> maʼnosida.

*Xorazmshoh* **خوارزمشاه** soʻzini ham ushbu guruhga kiritish mumkin. Tarixan bu soʻz Xorazmshohlar sulolasidan shohlik qilgan shaxslargagina nisbatan ishlatilgan boʻlsa ham<sup>4</sup>, Munis, Ogahiy va Bayoniy manbalarida ayrim oʻrinlarda Xiva xonlarining faxriy unvoni maʼnosida qoʻllanilgan: **...muvofaqat ishida turub hazrati xorazmshoh farmoni ravishidin inhirof joyiz tutmoq va mufsidlar tarafin tutub, alargʻa yorlugʻ koʻrguzmak itoat binosigʻa rahna solmoq va boʻynungga inod va fasod badnomligʻin olmoqdurur. (290<sup>b</sup>).** Xiva xonligi arxividagi ayrim hujjatlar xonga nisbatan ulugʻlash mazmunida *xorazmshoh* soʻzi qoʻllanganini koʻrsatadi. Masalan, Xiva

<sup>1</sup> Алишер Навоий манбалари тилининг изоҳли луғати. I жилд. –Тошкент: Фан, 1983. – Б. 85.

<sup>2</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.66.

<sup>3</sup> Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – С. 692.

<sup>4</sup> Буниёдов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар тарихи. – Тошкент, 1998.

xonining Buxoro amirligidagi vakili axborotidan: Hazrati *xorazmshoh* sallamallohu ta'olo an ofotin va-l-baliyyati...<sup>1</sup>.

*Xadiv // xadev* خديو so'zi dastlab yagona; ega, sohib ma'nolarini bildirgan va keyinchalik *ulug' podshoh* ma'nosini kasb etgan<sup>2</sup>: **Ul janob o'z tarafidin To'rabek qiyotni qo'shub hazrati xadivi behamoli mag'firatmaolning xizmatig'a yo'lladi. (282<sup>b</sup>).**

Quyidagi parchada "monarx" tushunchasini ifodalovchi bir necha so'z va birikmalar Olloqulixon madhida ishlatilgan: ...*shahansho*hi islompanoh, *sultoni* zarrinalam, *xoqoni* gardunhasham, *shahriyori* Iskandarshavkat, *tojdori* Sulaymonsavlat, *xadivi* gardunviqor, *xusravi* Fariduniqtidor, *zubdai* salotini olam, *umdai* xavoqini muazzam, murtaqiyi madoriji islom, murtafe'i maoriji ahkom... Abulg'ozii Olloquli Muhammad Bahodirxon...(264<sup>b</sup>). Arxiv hujjatlari xonga yozma murojaatda xuddi shunday dabdabali uslub ishlatilganidan guvohlik beradi. Masalan, 1285/1868 yilga mansub hujjatdan: Amorat ayvonining masnadrishini, ayolat devonining sohibnigini, umdat ul-umaro va murabbiy ul-fuqaro, guli gulshani adolat, chamani bog'i latofat, jahonboni davron, xusravi sohibqiron, xalifat ur-rahmon, vorisi mulki Sulaymon, bois ul-amnu va-l-amon, xoqoni xavoqini kirom, shohonshohi gardunihtishom, zilliloh, a'no...<sup>3</sup> Bunday uslubda bitilgan hujjatlarga yana ko'plab misollar keltirish mumkin<sup>4</sup>.

**b) hukmdor vorisi ma'nosini anglatuvchi so'zlar:** *Shahzoda* شهزاده so'zi manbalarda o'zining sinonimi bo'lgan *valiahdga* nisbatan keng iste'molda bo'lganini kuzatamiz: Hazrati sulton sohibqironning o'z birodari arjumandi *shahzoda* Rahmonquli to'rani Eron mamolikining kuffori sharoratmaolining go'shmolig'a buyurmog'i... (255<sup>a</sup>).

<sup>1</sup> ЎзР Марказий Давлат Архиви фонди. И-125, Рўйхат №2, Иш №221, Варақ №1 олд томони. (Нусхани А.Ўразбоев тақдим қилди).

<sup>2</sup> Ҳофизии Убаҳи. Тухфат-ул-аҳбоб. Ҳозирқунандаи нашр Ҳ.Рауфзода. – Душанбе: Ирфон, 1992. –С.195.

<sup>3</sup> ЎзР Марказий Давлат архиви фонди. И-125, Рўйхат №2, Иш №221, В. 1. (Нусхани А.Ўразбоев тақдим қилди).

<sup>4</sup> ЎзР Марказий Давлат архиви фонди. И-125, Рўйхат №2, Иш №221, В. 2,3,4,5,7. (Нусхани А.Ўразбоев тақдим қилди).

Ko‘rinadiki, *shahzoda* so‘zi faqat hukmdorning o‘g‘illarigagina emas, valiahd deb e‘lon qilingan kishiga nisbatan ham ishlatilgan. Manbalarning ko‘p o‘rinlarida bu so‘zning asliga muvofiq *shohzoda* tarzida ham qo‘llanganini ko‘rish mumkin: **Yana biri ulkim, shohzodai oliyshon atrof va aknofdag‘i mamolikning xavoninig‘a elchiyi kordon va sufaroysi bisyordon marhamat va da‘vat yuzidin irsol etdi. (261<sup>b</sup>).**

**v) davlat boshqaruvining turli lavozimlarini anglatuvchi mansab va unvon nomlari.** *Vazir* وزير so‘zi siyosiy mazmun anglatib, hukmdorning yaqin siyosiy maslakdoshi va ko‘makchisi mazmunida oliy martaba egasi va davlat ishlarining muayyan bir sohasini boshqaruvchi shaxs ma‘nolarini kasb etadi.

Mazkur so‘zning o‘zagi *mas‘uliyat olmoq, yuk ko‘tarmoq* ma‘nosidagi *vazara* فزارة<sup>1</sup> lidir<sup>1</sup>.

Xiva arxiv hujjatlaridagi ma‘lumotlarga ko‘ra, mehtarga uning qo‘l ostidagilar *mehtar og‘olloqo* deb murojaat qilishgan. Masalan, ba janob va volomaqom va qudvat ul-kirom mehtar oqo doma shavkatuhu va iqboluhu...<sup>2</sup>

*Mahram* محرم – Xiva xonligida karvon va chorva mollaridan soliq yig‘ish ishlarini amalga oshiruvchi mansabdor<sup>3</sup>. ... **yana ulkim, hazrati sohibqiron, Sulaymonmakon ostoni sipehr oshiyon mahrami xoslaridin Gadoyniyoz mahram** bila xilo‘i faravon va ganji bekaron va zarrin kamarlar va tilla xanjarlar va o‘zga asbob va adavotkim, sipahdorlarg‘a hojat va ahli sipohg‘a zaruratdur, va necha ushturi borbardorg‘a bor qilib, shohzodai oliytaborg‘a irsol qildi. (262<sup>a</sup>). *Mulozim* ملازم – mulozim, davlatning turli ishlarida bo‘lgan amaldor, davlat xizmatchisi: .... ostoni davlat oshiyon *mulozimlari*... (255<sup>b</sup>).

*Navvob* نواب – noib, o‘rinbosar<sup>4</sup>. Saroyda xonga yozishmalarni yetkazib beruvchi, turli arznomalarni bayon qiluvchi amaldor: (Yolonto‘shxon) Abbas mirzoning o‘n ikki ming sarboz va o‘ttuz aroba to‘p va otashxona va munga

<sup>1</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985. – С. 884-885.

<sup>2</sup> ЎзР Марказий Давлат архиви фонди. И-125, Рўйхат №2, Иш №266, В. 2.

<sup>3</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.69.

<sup>4</sup> Хасанов Б. Навоий манбалари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 196.

loyiq sipohi bekarona bila Mashhadga kelganidin yamroli Mulla Subhonnazar otlig‘ *navvob* vositasi bila etkurdi. (291<sup>b</sup>).

*Kadxudo* كدخدا – turkman qabilalarida otaliq, beklarbegi mansablariga muvofiq vazifa<sup>1</sup>. Yamroli *kadxudolaridin ixlosnishon Keldixon va Odiy vakil va Arabsardor va Nadirbekkim*, har biri hayjo ma‘rakasining saforosi va dag‘o maydonining behamtosi erdilar, jami‘i yamrolining shijoatshior yigitlari bila kelib, dargohi olampanoh ostonasining tuproqig‘akim, kimiyoyi davlati abadiy va to‘tiyoyi iqboli sarmadidurur, jabinsoliq ko‘rguzdilar. (227<sup>a</sup>).

“Zubdatu-t-tavorix”da otaliq, *kadxudo* so‘zlarining sinonimi sifatida *umda* عمدە – “oqsoqol, urug‘ yoki qabila boshlig‘i” ma‘nosida ishlatilgan: *manqit akobiridin babrsavlat va hizabrjur‘at Do‘simbiy va vaziri osafhunar Muhammadyusuf mehtar navvara marqadaning inisi jur‘atnamoy, shijaotafzoy Niyozmuhammadboy va muqarrabi hazrati sultoniy, mahrami borgohi sohibqironiy, shijoat ahlining qo‘ldoshi Muhammadniyoz yasovulboshi va nayman iozimidin najobat ahlig‘a foiq Bobobek otaliq va qipchoq akobiridin Davlat murabbiy, Xoja Niyozbiy va qaroqalpoqiya umdalaridin... Mulla Davlatnazar biy... (256<sup>b</sup>).*

*Amirul umaro* اميرالامرا esa *biy* mansabiga muvofiq bo‘lgan saroydagi faxriy unvon sanalgan. Buni quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin: *Rahmonberdi to‘rakim, holo biylik, ya’ni amirul-umaroliq* mansabi oning gavhari vujudi bila muzayyan va mo‘tabardurur... (277<sup>b</sup>).

*Marzbon* مرزبان – chegarachi, soqchi<sup>2</sup>. “Zubdatu-t-tavorix”da ushbu so‘z “chegara viloyat hokimi” ma‘nosini ham anglatadi. So‘zning ushbu ma‘nosini fors tilining tarixiy leksikasida ko‘rishimiz mumkin. Bu fikrni quyidagi parcha ham tasdiqlaydi: ...Darigiz qo‘rg‘onining hokimi oliyshoni Beklarxonkim, ul havolining *marzbonidurur*, itoat va ubudiyat izhor qilib, dargohi jahonpanohg‘a loyiq ko‘p tuhfa va sursaot, bir necha yaxshi ot irsol qildi. (262<sup>b</sup>). Parchada tilga

<sup>1</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.67.

<sup>2</sup> Персидско-русский словарь. Том 2. – М.: Русский язык. – С. 494.

olingan Daragiz qo'rg'oni Xiva xonligi va Eron o'rtasida munozarali hududlardan biri bo'lib kelgan. Demak, Ogahiy ushbu o'rinda Daragiz hokimiga nisbatan Eron davlatida urf bo'lgan so'zni qo'llagan va bu muarrixning ilmiy salohiyatini ko'rsatuvchi omillardan biridir.

*Xalifa* خليفه so'zi "Zubdatu-t-tavorix"da xon tomonidan maxsus topshiriq olgan vakil" ma'nosida keladi: **Chun xalifa (Bekish xalifa) Marvdin chiqib, davlat qoidining dalolati bila sur'at qadamin azimat jodasiga ko'yub, manozili mutakassirani qat' qilib, atababo'slig' sharafiga foyiz bo'lub, inod ahlidin ko'rgan-eshitganlarin navvobi davlatintisob sam'lariga etkurdi... (298<sup>a</sup>).**

*Mirob* ميراب – sug'orish ishlariga mas'ul kishi. Qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti ko'p jihatdan miroblar mehnatiga bog'liq bo'lgani, qazuv ishlarida xonning o'zi shaxsan bosh bo'lgani bu lavozimning xonlik boshqaruv tizimida muhim maqomlardan biri ekanligiga dalolat beradi. Ogahiy ham mashhur miroblar sulolasidan sanaladi. Uning miroblik mansabiga tayinlanishi aynan "Zubdatu-t-tavorix"da qayd etilgan: Fazoyilmaob va imoratintisob Munis *mirobning* o'rnig'a faqirkim, oning birodarzodasiyu dastparvardasidurman, inoyati podshohonadin *miroblig'* mansabi kiromiysi bila ashbohu aqronim orasidin mumtoz va sarafroz qildi.

*Miroxur* ميرآخور hukmdor otxonasi uchun mas'ul shaxs. **Ul manzilda Rahmonberdiboy va Suyunboy va Qurkeldi miroxur va Mulla Avazli va Mullahaq boshlig' soruq xalqining kadxudolarig'a sarupoyi shohona bila tillo pichoq berib... (277<sup>a</sup>).** Manbalar voqealari mazmuni *miroxurlik* Xiva xonligida faxriy unvonlardan biri ham bo'lganini ko'rsatadi: **Payg'ambarquliboyg'a mahram va *miroxurliq* manosibi a'losin munosib ko'rub shafqat qildi. (276<sup>b</sup>).**

*Mushrif* مشرف mamlakatning asosiy daromadi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan soliq yig'uvchi yuqori mansabdor<sup>1</sup>. Mushriflik ayni paytda mehtar zimmasida bo'lgan. Shuning uchun ham manbalarda Muhammad

<sup>1</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.69.

Ya'qub mehtar nomi manbalarda mushrif sifatida tilga olinadi: Muhammad Ya'qub *mushrif*kim, hazrati sohibqironi jannatmakonning iltifoti bekaron va inoyoti xusravonasi oning holig'a shomil bo'lub... (281<sup>b</sup>).

*Noib // noyib* – نایب vazirning yordamisi<sup>1</sup>. “Zubdatu-t-tavorix”da ushbu mansab nomi qo'llanilgan o'rinlar *noyib* “xon tomonidan biror ma'muriy hudud boshqaruviga mas'ul qilib tayinlangan shaxs” ma'nosini beradi: Hazrat oni Marv viloyatiga o'z jonibidin *noyib* qilib, ayolat niginin oning angushti ixtiyorig'a solib, ul viloyatning inon ixtiyorin qabzai iqtidorig'a topshurdi... (277<sup>a</sup>).

*Omil* عامل – zakot, soliq ishlariga masu'l kishi, N.A.Baskakov qayd etgan *mutavallining* ma'nodoshi: Marv sarhadidin to Oxalg'acha qaysi erda arbobi mol bo'lsa va shayxu shobdin mol naqdida sohibi nisob topilsa, zakot axzi uchun *omillar* va ul amal ulumiga komillar yiborib, oz chog'da ul elning zakotin muvofiqi shar' oldilar. (262<sup>b</sup>). N.A.Baskakov tomonidan qayd etilgan *qarovulbegi, mirshab* unvoni nomlarini “Zubdatu-t-tavorix”da uchratmadik.

**g) diniy-siyosiy rutba va mansablarni ifodalovchi so'zlar.** *Qozi* قاضی – musulmon jamoasidagi sudya. Qozilar din, oila, meros va oilaviy, jinoiy ishlar masalasiga oid hukmlar chiqarganlar.<sup>2</sup> ...Lutfalixonni mazkur bo'lg'on kadxudolarg'a qo'shub, alardin Shodibek bila Mustafafo *qozini* saqlab, o'zgasin Lutfalixon bila Mahmudobod qal'asig'a yibordi. (275<sup>b</sup>).

*Mujovir* مجاور – qadamjolarida diniy ilmlar bilan shug'ullanuvchi shaxs, mutasaddi...*mujovir* va jorubkashlarig'a nazr rasmi bila zarposhlig'lar ko'rguzub, ul hazratning istidomati davlat va istiqomat nusrati uchun duoyi ijobatoyat oldi.(264<sup>b</sup>).

*Shayx ul-islom* شيخ الإسلام – oliy ruhoniy unvoni. Xiva xonligida oliy diniy unvon<sup>3</sup>: Yana biri ulkim, Avazxoja *shayx ul-islom* va Ismoilboy o'zlarig'a

<sup>1</sup> Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I. – СПб. 1869. – С.280.

<sup>2</sup> Ислом. Справочник. – Тошкент, 1989. – Б. 295.

<sup>3</sup> Мухтманбалар. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б. 56-62.

mutaalliq navkarlari bila Marvg'a oq uyluk ko'churmakka ketib erdi, andoqkim sobiqan mazkur bo'ldi... (363<sup>b</sup>).

*Mufti* مفتى – diniy va dunyoviy ishlarni fiqhiy jihatdan o'rganuvchi, fatvo beruvchi: Hamul kecha saodat nishon, najobat makon, a'lamululamo hazrati Eshonxoja *mufti* va... (277<sup>b</sup>).

*Oxund* // *oxun* آخوند – ilohiyot olimi, muallim<sup>1</sup>. Oxund unvoniga ega shaxsning saroyda obro'si katta bo'lgan. *Eshon* ايشان – eshon, pir so'zining ma'nodoshi: ...diyomatmaob faqohat intisob hazrati qozi Shamsiddin *eshon*. (318<sup>b</sup>).

*Xalifa* خليفة dastlab payg'ambar alayhissalomdan keyin islom davlatini boshqargan shaxslar<sup>2</sup>. Keyinchalik bu so'z o'z lug'aviy ma'nosi (yordamchi, izidan boruvchi)ga muvofiq tariqat pirlari, diniy maktab muallimlarining yaqin, ishongan kishisi, etuk shogirdlari mazmunini kasb etgan. Uning o'zlashma so'zlarga mansub so'z sifatida mansab nomiga aylanishiga ham ushbu lug'aviy ma'no asos bo'lgan. Abdurahmon eshonkim, hazrati shayx ul-islomi shahidning *xalifa* va noyibi manobi erdi. (290<sup>a</sup>).

*Mullo* ملا – ilohiyot ilmlari bilimdoni, diniy maktab o'qituvchisi, savodli, olim kishi. Mullo rus tiliga tatar tili orqali, unga fors tili orqali o'tgan bo'lib, arabcha “mavlo” – janob, yaqin kishi ma'nosini beradi. Boshqa turkiy va eroniy tillarda *mella*, *mo'llo*, *mo'ldo* shakllari bor<sup>3</sup>.

*Murid* مرید – ixtiyoriy ravishda shayx, pir, murshidga qo'l bergan kishi. Tariqatga kirish tayyorgarligini ko'rayotgan kishi *murid* deb aytilgan<sup>4</sup>. Manbalarda *tolib* so'zi ham *talaba*, ham *murid* so'zining ma'nodoshi mazmunida ishlatilgan: (Abdurahmon eshon) Marv viloyatida xilvatguzin va sajjodanishin bo'lub, *toliblar* irshodiga mashg'ul erdi. (290<sup>a</sup>).

*So'fi* صوفى – mashhur mutasavvif Junayd Bag'dodiy ta'rifiga ko'ra, “Ishi faqat Xudo bilan bo'lgan, Vujudi mutlaqning mavjudligini tan oluvchi kishilar

<sup>1</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. –№1.1989. –С.67.

<sup>2</sup> Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Главная редакция восточной литературы, 1991. –С.268.

<sup>3</sup> Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Главная редакция восточной литературы, 1991. –С.170.

<sup>4</sup> Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Главная редакция восточной литературы, 1991. –С.172.

so‘fiy deyiladi”<sup>1</sup>. Lekin manbalarda bu so‘z ta’rif etilgan mazmunda emas, kishi ismining komponenti sifatida keladi. Masjidda azon aytuvchi (muazzin)ning ham so‘fi deb atalishini nazarda tutsak, To‘ramurod so‘fi, Panoh so‘fi nomlaridagi *so‘fi* mazkur shaxslarning ajdodlariga (ikki mazmunning biri bilan) ishora qiladi: Panoh *so‘fi* yuzboshikim, to‘pxonayi humoyun mulozimlarining sarkori erdilar (274<sup>a</sup>). N.A.Baskakov *muazzin* مؤذن so‘zini ham diniy mansab va unvonlar sirasida qayd etadi<sup>2</sup>. Manbalarda ushbu so‘z uchramasa-da, bu borada N.A.Baskakov fikri asosli ekanini ta’kidlash lozim.

**d) harbiy unvon va mansab nomlari.** *Sipahbud* // *sipahbad* سپهبد – qo‘mondon, sarkarda, lashkarboshi<sup>3</sup>. Ogahiyning yana bir tarixiy manbalari “Zubdatu-t- tavorix”dagi quyidagi parcha mazmuni *sipahbud* so‘zi sarkarda bilan sinonim sifatida ishlatilganini ko‘rsatadi: Ma’lum bo‘lsunkim, hamul ovonda hazrati zilli ilohiy Begi yuzboshini *sarkardalikdin* ma’zul etib, oning tig‘in yamroli navkari bila olib, Xojash mahramg‘a topshurub, *sipahbudlik* mansabig‘a mansub qildi<sup>4</sup>. *Sipohbad*ning yana bir sinonimi *sipohsolor* سپاه سالار hisoblanadi. Manbalarda bayon qilingan voqealar mazmuni shunday xulosa chiqarishga imkon beradi: Hazrati a’lo xoqoni gitisiton... o‘z tarafidin... *sipohsolor* qilib... (256<sup>b</sup>).

*Sarkarda* سرکرده – qo‘mondon, sarkarda, lashkarboshi: ...mazkur bo‘lg‘on *sarkardalardin* Suyunbiy va Qurbonniyoz yasovulboshi... (283<sup>b</sup>).

*Malloh* ملاح – aynan, dengizchi<sup>5</sup>. Daryoda harbiy harakat olib boruvchi sarboz. Ul ma’mur bo‘lg‘on umaro va ahli sipoh hamul kun iqbol kemasig‘a minib, davlat *mallohining* imdodi bila dabur xayli mururidek daryoi

<sup>1</sup> Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Таржимон ва нашрга тайёрловчилар: И.Ҳаққул ва А.Бектош. – Тошкент: Мовароуннахр, 2004. – Б.241.

<sup>2</sup> Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология.– №1. 1989. – С.67.

<sup>3</sup> Кўрсатилган луғат. – Б. 131.

<sup>4</sup> Муҳаммад Ризо мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Манбалар. VI жилдлик. V жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –Б.179.

<sup>5</sup> Баранов Х. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985. – С. 764.

Jayhundin ubur qilib... (283<sup>b</sup>). Daryo sipohining boshlig‘i *darg‘a* deyilgan<sup>1</sup>.

*Vakil* وکیل – harbiy harakat uchun xon tomonidan vakolat olgan shaxs: ...ul shahzodai saodatnishong‘a altofi podshohona va a’tofi xisravona bila bahramand va arjumandlig‘ etkurub, o‘z tarafidin *vakil*... qilib... (256<sup>a</sup>).

*Sarhang* سرهنگ – tarixiy so‘z sifatida qo‘shin boshlig‘i<sup>2</sup>. Xivada *sarkarda* // *sarkordor* bilan sinonim tarzida ishlatilgan<sup>3</sup>. Eron harbiy tizimida “polkovnik”ka muvofiq harbiy lavozim. Shuning uchun “Zubdatu-t-tavorix”da bu so‘z xonlik qo‘shin boshliqlariga nisbatan ishlatilganda uni sarkarda mazmunida, Eron armiyasi vakiliga nisbatan ishlatilganda muayyan mazmunda tushunish kerak. Masalan, Xiva xonligi haqida o‘z esdaliklarini yozib qoldirgan I.Mirpanjiy Eron armiyasi sarhangi edi. Ogahiy u haqda “Zubdatu-t-tavorix” manbalarida ma’lumot beradi<sup>4</sup>. Yana janobi saltanatmaob mulozimi nusrat intisob va *sarhangi* zafarohanglaridin zudai dudmoni qipchoq Qutlug‘ Muhammad inoq... (256<sup>a</sup>).

*Navkar* نوکر – jangchi, soldat<sup>5</sup>: ...o‘z *navkar*larin boshlab va vahmu haros dag‘dag‘asin ko‘ngullaridan tashlab... (281<sup>b</sup>). Manbalar davomida jangchi, navkar ma’nosida yana quyidagi so‘zlar ham ishlatilgan:

*Sarboz* سرپاز fors tilida aynan “bosh tikkan” ma’nosi beradi. Abbas mirzoning o‘n ikki ming *sarboz*... bila Mashhadg‘a kelganidin yamroli Mulla Subhonnazar otlig‘ bir kishi bila darbori falakmiqdor navvobig‘a ixbor qildi. (339<sup>b</sup>).

*Muqotil*, *mujohid*, *g‘oziy* diniy tus berilgan urush qatnashchilariga nisbatan ishlatilgan. Chunki, teokratik mutlaq monarxiyaga asoslangan Eron shohligi Xiva, Qo‘qon xonliklari, Buxoro amirligi o‘zlarining harbiy

<sup>1</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.67.

<sup>2</sup> Персидско-русский словарь. Том II. – М., 1983. – С. 42.

<sup>3</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С. 67.

<sup>4</sup> Исмоил Мирпанжий. Асирликдаги хотиралар. Форс тилидан Н.Хасанов таржимаси. – Урганч: Хоразм, 1997. – Б.5.

<sup>5</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С. 67.

harakatlariga mumkin qadar diniy tus berishga, uni “jihod” deb baholashga intilganlar. Hazrati sohibqironi kishvarsiton mulozamat mavqe’ida turg‘on g‘oziy lardin shijoat maydonining yakkatozi Muhammadquli yuzboshiga ishorat qildi. (274<sup>a</sup>).; Yo‘lo‘tanda o‘lturg‘an solur xalqidin ba’zi *mujohid* yigitlar... (342<sup>b</sup>); ... oti o‘lg‘on va zaxmdor bo‘lg‘on *muboriz*larga dog‘i ehsoni farovon va baxshishi bekaron bila bahramand va arjumandlig‘lar etkurdi. (261<sup>b</sup>).

## 1.2. Diplomatiyaga oid o‘zlashma so‘zlar

Diplomatik faoliyat *elchilik* va uning arabchasi *siforat* سفارت so‘zlari bilan ifodalangan: ...chun *sufaroyi* komil hamul mazmunga homil bo‘lub, *siforat* yo‘lig‘a azimat qilib, soruqlar qo‘rg‘onig‘a yaqin ettilar (293<sup>a</sup>). Parchada tilga olingan *sufaro* سفرا so‘zi *safir* سفير – elchi so‘zining siniq ko‘plik shaklidir. Ogahiy ba’zi o‘rinlarda arabcha *rasul* رسول (ko‘plik shakli *rusul* رسل)ni ham *elchi* ma’nosida ishlatganini ko‘ramiz. Ushbu so‘zning lug‘aviy ma’nosi uning *elchi* so‘ziga ma’nodosh sifatida qo‘llashga monelik qilmaydi: Turbat hokimi Muhammadxon Qaroyi valadi Isoxon Qaroyikim, qaroyi elining sardor va farmonravoyi erdi, anga dog‘i bir kordon *rasule* inoyat yuzidin irsol qildi. (261<sup>b</sup>). Ushbu parchada Ogahiy *rasul* va *irsol qildi* so‘zlari orqali ishtiyoq san’atini yuzaga keltirmoqda. Bu esa Ogahiy badiiy vositalarni qo‘llash maqsadida ham o‘zlashma so‘zlarga mansub so‘zlarning ma’nodoshlaridan unumli foydalanganidan dalolat beradi. *Rasul* (elchi) va *irsol* (yuborish) so‘zlari orqali ishtiyoq hosil qilingan o‘rinlarni Navoiy ijodida ham ko‘ramiz. Farqi – quyidagi misolda *rasul* so‘zi urfiy ma’noda (payg‘ambar ma’nosida) qo‘llangan:

Hamd angakim, kalomi xayrul-maol

Qildi elga *rasulidin irsol*<sup>1</sup>.

Umuman, Navoiy manbalarida rasulning diplomatikaga oid atama sifatida ishlatilganini ham kuzatamiz. Masalan, “Lison ut-tayr”dagi “Iskandarning elchilikka borg‘on hikoyati” bobida o‘qiymiz:

Bordi ul kishvarg‘akim borg‘ay *rasul*,

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Арбаъин. – Тошкент: Наврӯз, 1994. – Б. 5.

Ayladi onda rasulona nuzul<sup>1</sup>.

Elchilik faoliyati davomida hukmdorlarning bir-birlariga qilgan sovg'alari, yuborgan narsalari ma'nosidagi so'zlarni ham diplomatiyaga oid o'zlashma so'zlar sirasiga kiritish mumkin: ...olib borg'on *peshkash* va *tuhfot*, *hadiya* va *savg'otlarin* bir-bir nazarig'a arz qilib, ... (291<sup>a</sup>).

Shuningdek, manbalar davomida *tahniyatnoma*, *fathnoma*, *bashoratnoma*, *aroyiznoma* kabi diplomatik hujjat nomlari ham uchraydi.

*Inoyatnoma* **عنايت نامه** – tinchlik, birodarlik taklifi bilan yuborilgan rasmiy maktub: ...ul *viloyat* (Buxoro) hokimi Bahodirxong'a inoyatnoma bila irsol qilib yubordilar. (291<sup>a</sup>).

*Tahniyatnoma* **تهنيت نامه** – tabriknoma, hukmdorning boshqa bir hukmdorga yo'llagan tabrigi: ... bir kishini *tahniyatnoma* bila irsol qildi. (255<sup>b</sup>).

*Bashoratnoma* **بشارت نامه** – g'alaba, ko'zlangan maqsadga erishganlik, yutuq va shu kabilar bitilgan xat, xushxabar: Sodiq shayx sardorg'a *bashoratnoma* berib yiborildi. (269<sup>a</sup>).

*Aroyiznoma* **عرايض نامه** – ariza. Ushbu so'zni mazkur guruhga kiritishimizga asos shuki, manbalar mazmunidan chet el (Eron) fuqarosi bo'lgan Muhammadjon Qaroyining xonga yozishmasi ham shu so'z bilan ifodalangan: ...(Muhammadxon qaroyi) ... *aroyiznoma* yiborur erdi. (269<sup>a</sup>).

*Fathnoma* **فتح نامه** – biror mamlakat, qo'rg'on yoki qal'aning, o'zga mamlakatning zabt etilgani haqidagi xabar bitilgan xat: Qurbonnazar sardorg'a *fathnoma* berib... (276<sup>a</sup>).

### 1.3. Ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq o'zlashma so'zlar

Tilshunosligimizda XI-XIV asrlar yozma yodgorliklari tilidagi ma'muriy-hududiy bo'linishni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy so'zlar maxsus tadqiq qilingan<sup>2</sup>. Ogahiyning tarixiy manbalaridagi ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq so'zlar tadqiq qilingan davr yozma yodgorliklari tilidan keskin bo'lmasa ham

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мукаммал манбаларлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 93.

<sup>2</sup> Дадабаев Х. Наименование единиц административно территориального деления в старотюркских памятниках XI-XIV вв // Адабий мерос.– №53. 1990.. – С. 36-43.

farq qiladi. “Zubdatu-t-tavorix”da ma’muriy-hududiy bo‘linish bilan bog‘liq quyidagi so‘zlar uchraydi:

*Mamlakat* – مملکت davlat, mamlakat:

Qasdi edi *mamlakat* oroyishi,

Komi edi xalqning osoyishi. (256<sup>b</sup>).

Ushbu so‘z manbalar davomida ayrim o‘rinlarda *viloyat* ma’nosida ham ishlatilgan: ... yakshanba kuni ul hazrat livoyi nusrathavoni Hazorasb *mamlakat*idin mutaharrik va shuqqakusho qilib... (288<sup>b</sup>). Shuningdek, *mulk* ملك va *davlat* دولت so‘zlari ham mamlakat so‘zining sinonimi sifatida ishlatilgan:

Qilib tadbiru ko‘shish ehtimomin,

Tuzatdi *mulku davlat* intizomin. (255<sup>b</sup>).

Manbalardan joy olgan quyidagi parchada *vatan* وطن so‘zi ham umumiste’ moldagi ma’nosi, ham ma’muriy birlik ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy so‘z sifatida ishlatilgan:

*Davlat, mamlakat* ma’nolarini ifodalovchi so‘zlardan yana biri *ayolat* ايالت dir. Hozirgi kunda arab va fors tillarida<sup>1</sup> *shtat* (bu so‘zning inglizchasi *state* “davlat” ma’nosini beradi) mazmunini ifodalovchi bu so‘z Ogahiy va boshqa o‘zbek adiblari tilida mamlakat, davlat ma’nolarini anglatgan. “Navoiy manbalari tilining izohli lug‘ati”da ushbu so‘zning *iyolat* shakli ham borligi qayd etilgan<sup>2</sup>. Ogahiy tilida ham bu so‘z mamlakat ma’nosida ko‘zga tashlanadi: ...Boboxon shoh *ayolat* taxtida mutamakkin bo‘ldi.

*Viloyat* ولاية 1. Viloyat, mamlakatning ma’lum ma’muriy bo‘lagi, boshqaruv tizimi bevosita xonlik ixtiyorida bo‘lgan hudud: ...Muhammad Solih shayxni Marv *viloyatig‘a* nomzad qildi. (255<sup>b</sup>); kavkabai podshohiy va dabdabai nomutanohiy bila Hazorasb *viloyatig‘a* vorid bo‘lub... (266<sup>b</sup>).

Viloyat mazmunidagi ma’muriy birlik ifodalovchi so‘zlarning yana biri *muzofot* مضافات dir. Ushbu so‘zning o‘zlashma so‘zlarga mansublik kasb qilishiga “qo‘shimcha”, “qo‘shib olingan” tarzidagi lug‘aviy ma’nosi asos

<sup>1</sup> Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983. – С. 147.

<sup>2</sup> Алишер Навоий манбалари тилининг изохли луғати. Том I. – Тошкент: Фан, 1983. –Б. 45.

bo‘lgan<sup>1</sup>. Demakki, dastlab mamlakatning asosiy hududiga qo‘shib olingan erlar *muzofot* deb atalgan va keyinchalik ma’no kengayishi mazkur so‘zning ma’muriy birlik mazmuniga olib kelgan: Saraxs *muzofotidindurur*, sipohi nusratpanoh kunjoyishiga loyiq arz va umqi ko‘ngul xohishig‘a muvofiq bir sangari vus‘at manbalar hafr qildurubdurur. (261<sup>b</sup>).

2. Ogahiyda mazkur so‘z ba’zi o‘rinlarda qo‘shni o‘zbek xonliklariga nisbatan *mamlakatning* ma’nodoshi sifatida ishlatiladi: ...ul *viloyat* (Buxoro) hokimi Bahodirxon... (291<sup>b</sup>). *Viloyat* so‘zi XI asrdayoq “Qutadg‘u bilik”da *mamlakat, davlat* ma’nosida ishlatilgan<sup>2</sup>.

*Shahr* شهر – shahar. XIX asrda ham shaharlar atrofi mudofaa devorlari bilan o‘ralgani uchun *qal‘a* va *shahar* so‘zlari qo‘llanishida deyarli farq bo‘lmagan: ...kamolud-davla vaddunyo Muhammadnazar inoqkim, Xivaq *shahrida* nayobat tariqasi bila qolib erdi... (276<sup>b</sup>).

*Qal‘a* قلعه va *balda* بلدة (o‘lka) so‘zlari ham shu turdagi so‘zlardan hisoblanadi. “Zubdatu-t-tavorix”da ularning ko‘plik shakllari *qilo‘* قلاع va *bilod* بلاد ham ishlatilgan: ...atrof va aknofdag‘i *qilo‘* va *bilod* hokimlari... (255<sup>b</sup>). *Qilo‘* *qal‘aning* siniq ko‘plik shakli bo‘lsa, to‘g‘ri ko‘pligi eski o‘zbek tilida *qal‘ajot* shaklida ishlatilgan: Jom julgasing *qal‘ajotidin* Umg‘on otlig‘ *qal‘akim*, qizilbosh xaylining maskani va irtidod ahlining ma’mani erdi... (273<sup>a</sup>). Ularga sinonim sifatida *kent* كينت so‘zi ham ishlatilgan:

To‘ldi bori *kentu* dashtu sahro,  
Etti unidin falakka g‘avg‘o. (256<sup>b</sup>).

Manbalarda *diyor* ديار, *mavze‘* موضع so‘zlari muayyan ma’muriy hududni anglatmasa ham, aholi yashaydigan joy ma’nosida *qishloq, tuman* so‘zlariga ma’nodoshlik kasb etgan: ...hazrati podshohi karamdastgoh Oqdarband eliga marhamat va shavqat ko‘rguzub, Zey *diyorida* er berib, barchasin ul *maze* ‘da mutamakkin qildi. (263<sup>b</sup>).

#### 1.4. Ijtimoiy tabaqalarni ifodalovchi o‘zlashma so‘zlar

<sup>1</sup> Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – С. 523.

<sup>2</sup> Дадабаев Х. Наименование единиц административно территориального деления в старотюркских памятниках XI-XIV вв // Адабий мерос. 1990. – №53. – С. 39.

*Fuqaro* فقرا so‘zi lug‘aviy jihatdan “kambag‘allar”, “faqirlar” bo‘lishiga qaramasdan<sup>1</sup> tilimizda ancha oldin “grajdan” mazmunini kasb eta boshlaganini “Zubdatu-t-tavorix” materiallari ham tasdiqlaydi. Faqat manbalarda bu so‘zning ko‘plik anglatishini nazarda tutishimiz lozim. Bu so‘zning ma‘nodoshi *raiyyat* رعيت (ko‘pligi *ra’oyo//ra’oyot* رعيات//رعيا)dir: ...chun hazrati a’lo xoqoniy nizomi qavoyidi saltanat va muhomi umuri mamlakat va amniyati *fuqaro* istihsol va rafohiyati *ra’oyot* istikmolining ijtihod va ishtig‘olidin forig‘bol va osudaxotir bo‘ldi... (255<sup>b</sup>).

*Xoja* خواجه hozirda *xo‘ja* shaklida ommalashgan va *xo‘jayin* degan ma‘noni beradi<sup>2</sup>. Ushbu parchadan *xoja* so‘zini ijtimoiy tabaqa anglatishini ham bilib olamiz: ...zubdatul-orifin, umdatus-solikin *Xoja* Husomuddin ... (272<sup>b</sup>). *Xo‘ja* so‘zi tarixning turli davrlarida har xil ma‘nolarni anglatgan. Masalan, somoniylar, saljuqiylarda “vazir”, keyinchalik “boy savdogar”, usmonli turklarda “ustoz”, so‘fiylikda “darvishlar jamoasining diniy rutbasi – murshid” va hokazo<sup>3</sup>. N.A.Baskakov ushbu so‘zni “Soliq to‘lovchi tabaqalar” sirasida keltirishiga uning keyinchalik “boy odam”; “mulkdor” ma‘nosi keng ommalashganidir<sup>4</sup>. Bu hol ham o‘zlashma so‘zlarda bir tarixiy sharoit doirasida ham o‘ziga xos o‘zgarishlar yuz berishi mumkinligini ko‘rsatadi.

*Hur* حر – ozod, erkin shaxs<sup>5</sup>.

*Banda* بنده esa qul, jamiyatning erksiz a‘zosi: ...ul iltimos hazrati podshohi rahmat dargohning xotiri daryo muqotirig‘a maqbulu mustahsan tushmay, dedilarkim: “Biz hanuzg‘acha *banda* berib, *hur* sotg‘un olg‘on ermasmiz.

### 1.5. Iqtisodiy jarayon bilan bog‘liq o‘zlashma so‘zlar

*Ushr* عشر – dehqonchilik mahsulotlarining o‘ndan biri natura shaklida (yoki pul bilan) davlat foydasiga undirilishi, ya’ni “musulmon mamlakatlarida natura shaklida (ba‘zan pul bilan) davlat foydasiga undiriladigan soliq... Har yili

<sup>1</sup> Баранов Х. Арабско-русский словарь. –М.: Русский язык. 1985. – С. 605.

<sup>2</sup> Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983. – С. 572.

<sup>3</sup> Гафуров О. Асма ал-хусна ёки табаррук исмлар. II кисм.– Тошкент: 1998. – Б. 52-54.

<sup>4</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С. 68.

<sup>5</sup> Баранов Х. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык. 1985. – С. 163.

dehqonchilik mahsulotlaridan olingan. Ushr olingan er-suv “mulki ushriya” deb ataladi<sup>1</sup>: ... *ushru zakotlarin bermakchi bo‘lub...* (279<sup>b</sup>).

*Zakot* زكوة – nisobga etgan molning qirqdan bir qismi, zakot islom dinida muhim moliyaviy ibodat hisoblanadi: zakot axzi uchun *omillar* va ul amal ulumig‘a komillar yiborib... (262<sup>b</sup>).

Qur‘oni Karim rasmul-xati (orfografiyasi)ga ko‘ra *zakot* so‘zi زكوة tarzida yoziladi<sup>2</sup>.

*Xums* خمس – o‘ljaning beshdan birini xazinaga topshirish solig‘i: g‘anoyimi bekaronning *xums* va g‘oniyin muvofiqi shar‘ axz qilib... (261<sup>a</sup>).

*Xiroj* خراج – dehqonchilik mahsulotlaridan olinadigan soliq<sup>3</sup>: ...hukmi shar‘ bila xiroj va zakotin olur erdi. (299<sup>b</sup>).

*Boj* باج so‘zi “Navoiy manbalari tilining izohli lug‘ati”da *xirojning* ma‘nodoshi sifatida izohlanadi<sup>4</sup>. Ushbu so‘zning “Zubdatu-t-tavorix”da ma‘nosi ham shunga muvofiq keladi: *boj* va zakotin muvofiqi shar‘ olur erdi. (299<sup>b</sup>). Lekin farqli tomoni *boj* faqat dehqonchilik mahsulotlari emas, umuman, mol-mulkdan undiriladigan soliqdir. Xiva xonligida boj yig‘ishga mas‘ul *bojmon* mansabi bo‘lgan<sup>5</sup>. Hozir kunda qo‘riqxonalar xizmatchilari xalq orasida *bojmon* deyiladi.

Ogahiy manbalari tilida iqtisodiy jarayon bilan bog‘liq o‘zlashma so‘zlarga mansub so‘zlar miqdori qayd etilganlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qilsa-da, biz bu o‘rinda “Zubdatu-t-tavorix” materiallari bilangina cheklandik.

### 1.6. Siyosiy jarayon bilan bog‘liq o‘zlashma so‘zlar

*Julus* جلوس – hukmdorning taxtga o‘tirishi; ushbu tantanali marosim nomi<sup>6</sup>: Ul hazrat *julusi* jahonorosidin to etti oyg‘acha bu tariqada lavozimi saltanat ishtig‘olig‘a iqdom va fuqaro u ra‘iyat ahvolining intizomig‘a ehtimom ko‘rguzub... (255<sup>b</sup>).

<sup>1</sup> Ислам. Справочник. – Тошкент, 1989. – Б.267.

<sup>2</sup> Furqon. www.islom.uz.

<sup>3</sup> Ислам. Энциклопедический словарь. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1991. – С. 274-275.

<sup>4</sup> Алишер Навоий манбаларлари тилининг изоҳли луғати. Том I. – Тошкент: Фан, 1983. –Б. 306.

<sup>5</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С. 68.

<sup>6</sup> بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه. <sup>۴</sup> درج Al-rams. www.mehrahgam.com.

*Bay'at* بيعت – “va’dalashish<sup>1</sup>” ma’nosidagi ushbu so‘z ijtimoiy-siyosiy lesikaga mansub so‘z sifatida “hukmdorga sadoqat haqida qasamyod qilish” mazumnini anglatadi: ...*bay'ati* sadoqatandeshlarin sam’ qilib... (267<sup>b</sup>).

*Bog'iy* باغى – musulmon holda musulmon podshohiga tobe bo‘lmagan odam: ...To‘ramurod so‘fi ul avonda *bog'i* bo‘lub erdi... (321<sup>a</sup>).

Ogahiyning tarixiy manbalari tilida o‘z va o‘zlashma qatlam so‘zlariaro sinonimiyani ko‘plab uchratamiz. Masalan, manbalar lug‘at fondida monarx tushunchasini ifodalovchi *xon, xoqon, qaysar, shoh, shahriyor, podshoh, xusrav, sulton, hokim, amir, voliy, kadxudo* kabi so‘zlar mavjudligini ko‘rdik. Mazkur so‘zlar o‘zaro ma’no tafovutiga ham ega. Chunki, sinonim ma’nosi aynan bir xil emas, “qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanish kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir”<sup>2</sup>.

O‘zlashma so‘zlar doirasidagi antonimlarga *hur va banda, faqir, miskin va sohibi nisob, arbobi mol* so‘z va birikmalarni misol keltirishimiz mumkin.

Umuman, manbalardagi o‘zlashma so‘zlarni mavzu guruhlari bo‘yicha tadqiqi natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin bo‘ladi:

1. O‘zlashma so‘zlardagi bir tushunchaning turli xil ifodasi bo‘lgan so‘zlar o‘rtasidagi o‘zaro ma’no tafovutiga jiddiy e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

3. O‘zlashma so‘zlarga mansub ayrim so‘zlarning ko‘chma ma’nosi, omonimi ham bo‘lishi mumkinligini ushbu manbalar lug‘at tarkibi ham ko‘rsatib beradi.

---

<sup>1</sup> Алишер Навоий манбалари тилининг изоҳли луғати. Том I. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 159.

<sup>2</sup> Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 3.

## II B O B

### MANBALARDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING TARIXIY- ETIMOLOGIK TAHLILI

Ogahiydek daho adibning keng tafakkuri ifodasi uchun, tarixiy manbalarni ham Sharq muarrixligi an’anasi bo‘yicha badiiyat bilan ziynatlash uchun boy leksik fond zarur edi. Bu fond boyligining – tashqi manbasining bir jihatini Ogahiy muhiti va o‘sha davr ziyolilari uchun mo‘tadil bo‘lgan arabiy va forsiy so‘zlar ta’minlar edi. “Zubdatu-t- tavorix”dagi arabizmlar bo‘yicha ilk kuzatishlar shu to‘xtamga olib keladi.

Manbalarda o‘zaro sinonim arabcha so‘zlar ko‘plab uchraydi. Shu bilan sinonimik qator arabiy, forsiy va turkiy so‘zlardan tashkil topgan.

#### **2.1 Manbalardagi eroniy qatlamga mansub o‘zlashma so‘zlar.**

O‘zbek adabiy tili va shevalarida eroniy tillarga mansub so‘zlar salmoqli o‘rin tutadi. Eroniy tillar va turkiy tillar genetikasi turlicha bo‘lsa ham, hayotiy zarurat, madaniy-adabiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilida eroniy o‘zlashmalar miqdorini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, Ogahiy tarixiy manbalari (umuman, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Avaz kabi ijodkorlar) leksofondida substrat qatlamga oid so‘zlar ham ko‘zga tashlanadi. Z.Do‘simov ta’kidlaganidek, “Xorazm shevalarining leksikasi hozircha bizga aniq bo‘lmagan leksik qatlamga egadirki, bunday so‘zlar qadimgi xorazmliklar tilidan kirib qolgan deb taxmin qilinadi”<sup>2</sup>. Bu masalaga o‘z vaqtida F.Abdullaev, A.Ishaev, O.Madrahimov kabi olimlar ham e’tibor qaratgan edilar<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Усмонов С. Ўзбек тилининг лугат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.109; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, 1985. – Б.103-115.

<sup>2</sup> Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.11.

<sup>3</sup> Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. –Б.236; Ишаев А. Из лексики узбекских говоров Каракалпаки // Вопросы тюркологии. – Ташкент: 1965. –С.112-113; Мадрахимов А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского языка: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1978. – С.18-19.

Etimologik tadqiq *shoh*, *shahriyor*, *podshoh* soʻzlarining kelib chiqish jihatidan oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatadi. *Shoh* شاه pahlaviy tilida *shâh*, qadimgi fors tilida *xshayathiga* shaklida boʻlgan. Vazn talabi bilan *shah* shaklida ham uchraydi.

“Zubdatu-t-tavorix”da *shahriyor* soʻzi *podshoh*, *xon* maʼnosida ishlatilgan oʻrinlar ham uchraydi. M.Muʼinning fikricha, bu soʻz eroniy tillarning janubi-gʻarbiy guruhiga mansub *shathr* (shahar) soʻzi bilan oʻzakdoshdur. Haqiqatan ham, *shoh* va *shahar* soʻzlari oʻrtasida mantiqiy bogʻliqlik seziladi. Buni qadimiy manbalar, fors tilining qadimgi davrlaridagi shakl va maʼno taraqqiyoti hamda ushbu soʻzning turli eroniy tillarga qiyosi ham koʻrsatadi. *Shahr* شهر pahlaviyda *shahr* (mulk, viloyat), *shathr* (jahon, olam) qadimiy *xshahr* oʻzagidan. “Avesto”da bu soʻz *xshathua* shaklida uchraydi. Oʻrta fors tilida *shahr*. Qadimgi hind tilidagi *kshatra* (shahar) soʻzi *xshi* – *shohlik qilmoq*, *farmon bermoq*, *qudratli boʻlmoq* oʻzagidan hosil boʻlgan. Hozirgi eroniy tillarda mazkur soʻz bir-biriga yaqin shakllarda qoʻllanadi. Jumladan, islakiy (gilon), farizandiy, yarniy, notanziy tillarida *shâhr*, simnoniyda *shahr*, surxaida *shar*, shahmirzodiyda *shar*, dizfuliyda *shaar* va hokazo.

Oʻzbek mumtoz adiblari tilida ham monarx mazmunida *shoh* soʻzi bilan bir qatorda *shahriyor* soʻzi ham keng qoʻllanilgan. *Shahriyor* pahlaviy tilida *shahrdar*, “Avesto”da *xshathodara*, Behustun yodnomalarida *shathrdaran* shaklida uchraydi. *Shahrdor shahr* (mamlakat, shahar) va *-dor* (*doshtan* – *ega boʻlmoq* feʼlining hozirgi zamon negizi) birikuvidan tashkil topgan va keyinchalik *shahriyor* shaklini olgan. “Zubdatu-t-tavorix”da *shahriyor* soʻzi *podshoh*, *xon* maʼnosida ishlatilgan oʻrinlar ham uchraydi. Masalan, Ogahiy xonning kemada Amudaryo boʻylab sayr qilishini quyidagicha taʼriflaydi:

*Shahriyorimdurmu* zavraqda qilur Jayhunni sayr,

Yo quyosh qavsi quzah uzra qilur gardunni sayr.

*Podshoh* soʻzi tarkibida *shoh* soʻzi yaqqol koʻrinsa ham sinxron aspektida bu soʻz tub sanaladi. “Gʻiyos ul-lugʻot”da *podshoh* *pod* – taxt va *shoh* soʻzlari

birikuvidan tashkil topgan deb ko'rsatiladi<sup>1</sup>. *Podshoh* qadimgi fors tilida *patixshayathiya*, *pâtaxshâ* (birinchi qism *pati* old qo'shimcha va ikkinchisi "Avesto"da *xshagama* (qudrat sohibi, sulton), deb ko'rsatadi M.Mu'in. *Podshoh* so'zining birinchi tarkibiy qismi *pod* qadimgi fors tilida *pâta* (homiylar) *patar*, "Avesto"da *pâtas*, qadimgi hindchada *pâtar* ekanini hisobga olib, uning lug'aviy ma'nosini quyidagicha talqin qilish mumkin: 1. Shahar homiysi, boshlig'i. Bunda mamlakatni nazarda tutamiz. 2. Asl homiy, yo'l boshchi. Shu o'rinda aytib o'tish mumkinki, o'zbek tilidagi *poda* (qo'y, mol, yilqi va hokazolar galasi) so'zi tarkibida ham *pod* (homiylar) so'zi yotadi. Qadimgi fors, "Avesto" va sanskritda *pâta* (himoyaga olingan, homiyga ega) so'zidagi "a" qo'shimchasi tegishlilikni ifodalaydi, ya'ni *pod* (homiylar)ga tegishli, himoyalangan. "a" qo'shimchasining bu ma'nosini "dasta" so'zida ham ko'rishimiz mumkin. "Dasta" aynan qo'l (dast)ga tegishli, qo'ldagi narsa degan ma'noni anglatadi.

*Shohanshoh*, *shahanshoh*, *shohonshoh* شاهان شاه "shohlar shohi" degan ma'noni bildiradi. Sharq manbalarida *shoh*, *shahanshoh* rasman Eron shohlarining unvonini ifodalasa ham, ko'pgina tarixiy, badiiy manbalarda *shoh*, *xon*, *sulton*, *amir* (keyingi so'zning ma'nosida nisbatan farq seziladi) so'zlari o'rtasida muayyan istilohiy farqni ko'rmaymiz. Jumladan, "Zubdatu-t-tavorix"da *shahanshoh* so'zi Xiva xoniga nisbatan ehtirom, ta'zim, madh ifodasi sifatida qo'llanilgan: ...hazrati *shahanshohi* jannat joygoh... (318<sup>b</sup>).

Ko'rinadiki, Ogahiy manbalari leksikasida *podshoh* ma'nosini ifodalash uchun birgina eroniy qatlamga mansub *podshoh*, *shoh*, *shahanshoh*, *shahriyor*, *xusrav* so'zlari ishlatilgan.

Ogahiyning tarixiy manbalarida ham eroniy lug'aviy qatlamga mansub bo'lgan *sar* سر komponentli o'zlashma so'zlar doirasidagi bir necha so'z uchraydi. O'zbek tilida polisemiya masalasini tadqiq qilgan T.Aliqulov *bosh* so'zining turli ma'no qirralarini tahlil qiladi<sup>2</sup>. Bu masala B.Jo'rayev tomonidan ham atroflicha o'rganilgan bo'lib, unda "bosh" so'zining 19 xil ma'nosi tahlil

---

<sup>2</sup> Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1966.

etilgan<sup>1</sup>. O‘zbekcha *bosh* so‘zidagi ko‘plab ko‘chma ma’nolar forscha *sar* so‘zida ham ko‘rinadi<sup>2</sup>. B.Bafojev Alisher Navoiy tilida qo‘llangan *sar* komponentli so‘zlarni maxsus tadqiq qilgan<sup>3</sup>.

Bugungi o‘zbek adabiy tilida *sar* komponentli so‘zlar anchani tashkil qiladi. Jumladan, *sardor* سردار so‘zi *sar* va *-dor* qismlaridan iborat. *Dor* qadimgi fors tiliga taalluqli so‘z hisoblanib, hozirda *doshtan* داشتن – ega bo‘lmoq fe’lining hozirgi zamon negizidir. *Sardor* – xon qo‘shinining qo‘mondoni, xalq lashkarboshisi<sup>4</sup>: ...alalfavr umaroyi ma’murdin Olloshboy va Do‘simboy va chovdar Suyun bahodir va Boyli yuzboshi va Safarboy va Qurbonkeldi *sardorg‘*akim, o‘zlari izda qolib, Suyunbiy va Qurbonniyoz yasovulboshini hirovul qilib ilgari yibormish erdilar... (284<sup>a</sup>).

*Sarboz* سرپاز – navkar, soldat. ...Abbosmirzoning o‘n ikki ming *sarboz* va o‘ttiz aroba to‘p va otashxona va munga loyiq sipohi bekarona bila Mashhadga kelganidin Mulla Sohbnazar otlig‘ bir kishi bila darbori falakmiqdor navvobig‘a axbor qildi. *Sarboz* ham tarixan yasama so‘z hisoblanib, *sar* va *boz* qismlaridan iborat. *Boz* fors tilida juda ko‘plab ma’nolarga ega. So‘zning lug‘aviy ma’nosiga oydinlik kiritish maqsadida ba’zilarini ko‘rib chiqamiz:

Boz I. Burgut. Bu ma’noda avestoviy *vaz* – uchmoq bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu ma’no o‘zbek tilidagi *parvoz* (*vazidan* – esmoq (shamol haqida) fe’lining buyruq shakli *vaz*)da saqlangan. Shikor burgutlari *shahboz* (shoh+boz) deb nomlanadi va bu hozirda o‘zbekchada *shavvoz* (*shovvoz*) shaklida ko‘chma ma’no kasb etgan.

Boz II. Quloch.

Boz III. Qo‘lning bir qismi (kichik barmoq uchidan bilakkacha).

Boz IV. Yana. (*Boz ustiga*).

Boz V. *Boxtan* o‘ynamoq; yutqizmoq ma’nosidagi fe’lning hozirgi zamon shakli. Bu ma’noda o‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalardan biri hisoblanadi: *morboz*, *dorboz*, *qimorboz*, *masxaraboz* kabi.

<sup>1</sup> Жўраев Б. “Бош” сўзининг маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1982. – №3. – Б. 46-49.

<sup>2</sup> Персидско-русский словарь. Том 2. – С.26-28.

<sup>3</sup> Бафоев Б. Аlisher Navoiy манбаларида сар компонентли сўзлар // Адабий мерос. 1-сон. 1968.

<sup>4</sup> Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 1999. – Б. 96 .

Umuman, mazkur soʻzning maʼnolari 12 taga yetadi. “Farhangi “Shohnoma”da fors adabiyotining yirik vakili Manuchehriyning olti baytlik qitʼasi keltiriladi va ularning barchasida *boz* soʻzi tajnisli qofiya sifatida ishlatilgan. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, *sarboz* soʻzida *boz*ning oʻynamoq maʼnosi yotadi. Bunda feʼlning maʼnosi kengayib, *baxsh etuvchi*, *tikuvchi* degan mazmun kasb etganini koʻramiz. Demak, *sarboz* aynan “bosh tikuvchi”, “boshi bilan javob beruvchi” maʼnolarini anglatadi. Bu holni *jonboz* soʻzida ham koʻrish mumkin.

*Sarkor* سرکار – qurilish ishlari boshqaruvchisi, prorab: ... chun maʼmur boʻlgʻon *sarkor*laru korguzorlar imorat ishidin forigʻ boʻlub, dargohi sidra joygoh mulozamatigʻa etib, avotifi bekarona bila bahramand boʻldilar. Ushbu soʻz ikkita mustaqil soʻzdan tarkib topib, undagi *kor* (ish) soʻzining avestoviy shakli *kar* “ishlamoq” maʼnosini beradi.

*Sarhang* سرهنگ – qoʻshinning katta bir qismi boshligʻi, polk boshligʻi, polkovnik: ...Hazrati sohibqironi nomkor bu mazkur boʻlgʻon *sarhang* va sipohdorlarni dogʻi shahzodai valo taborni rikobi davlat osori mulozamatigʻa maxsus etib, ... (256<sup>b</sup>). Fors tilida *hang* shaklida bir necha soʻz mavjud. Oʻzlashma soʻzlarga mansublik kasb etishiga uning guruh, toʻda maʼnosi asos boʻlgan. Hozirda kurd tilida *hönge* shu mazmunda ishlatiladi.

*Sarxayl* سرخیل – kichik boʻlinma boshligʻi. Xiva xonligida xayllar (boʻlinmalar) etnik tarkibga koʻra ham tuzilganini koʻrish mumkin. Masalan, *taka xayli*.

Xiva xonligi davlat qurilmasining xususiyatlariga koʻra harbiy ishga oid koʻplab soʻzlar ham siyosiy mazmun kasb etadi. Shuning uchun ushbu tipdagi baʼzi soʻzlar izohiga eʼtibor qaratamiz. Jumladan, *sipoh ahli*: ...bolta va metin zarbi bila *sipoh ahliga* yiqturub... (260<sup>a</sup>). “Zubdatu-t-tavorix”da uning oʻzagi *sipoh* سپاه – qoʻshin, armiya maʼnosida ham ishlatilgan: ...*sipohi* mansura mutavaqqif boʻlub, ul qalʼa muhosarasigʻa ishtigʻol koʻrguzmak mahol koʻrinur. (260<sup>b</sup>). Bu soʻz fors tilida ham, oʻzbek tilining tarixiy leksikasida ham *sipah*,

*ispah* shakllarida uchraydi. Navoiy manbalarida *anjumsipoh* (“anjum” arabcha yulduz, sipohi yulduzday ko‘p) qo‘shma so‘zi ham uchraydi:

Ki, to‘rtunchi xayl ulcha shoh erdilar,

Falakqadru *anjumansipoh* erdilar<sup>1</sup>.

O‘zlashma so‘zlardan biri *darvesh* turli so‘fiylik tariqatiga mansub bo‘lganlar ma’nosini anglatgan<sup>2</sup>. Ular *qalandarlar* deb ham yuritilgan. *Qalandar* tasavvufda o‘ziga keng xos tushunchalarni ifodalashini tadqiqotchilar qayd etadilar<sup>3</sup>. Tasavvufiy adabiyotda *darvesh* so‘zi *qalandarga* nisbatan kengroq mazmunga egadir<sup>4</sup>. G‘iyosiddin Rampuriy ushbu so‘zni *daroviz*, ya’ni eshikka osiluvchi ma’nosida izohlaydi. Chunki, uning talqinicha, qadimda odamlar faqir, tilamchilar uchun eshigiga non osib qo‘yganlar. Lekin bu xalq etimologiyasidir, aslida mazkur so‘z avestoviy *drighu*, pahlaviydagi *driyōsh* so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, *faqir*, *bechora*, *kambag‘al* degan ma’noni beradi.

“Zubdatu-t- tavorix”da ushbu so‘z tasavvuf namoyandasi, solik ma’nolarida ishlatilgan: ... ul mavze’da Sayyid Faqr otlig‘ bir *darveshi* riyozatkeshkim, tajarrut arsasining yakkatozi erdi. Jom julgasida Abdolobod qal’asining hokimi Lutfolixonning arizadoshtin kelturdi. (272<sup>b</sup>).

*Poytaxt* پایتخت – so‘zi ham o‘zlashma so‘zlar tizimidagi so‘zlardan hisoblanib, mamlakatning ma’muriy markazi, bosh shahardir: ...Yoriy shayx otlig‘ muhojirni *poytaxti* davlat sori irsol qildilar. (297<sup>b</sup>).

Ogahiyning tarixiy manbalarida forsiy *noma* affiksoidi orqali yasalgan *tahniyatnoma* (Hazrati xadivi behamolning atrofdag‘i viloyatlarga *tahniyatnoma* irsol qilmog‘i... (255<sup>a</sup>), *bashoratnoma* (... ulamolarga *bashoratnoma* bitib, Jo‘lomon sardor va O‘roz sardor bila irsol qildi. (276<sup>b</sup>), *fathnoma* (... *fathnoma* berib bashorat uchun Muhammadxon sardor qaroyi tarafig‘a irsol qildi.(275<sup>b</sup>) kabi o‘zlashma so‘zlarga mansub bir necha so‘zni

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Муқаммал манбалар тўплами. –Тошкент: Фан, 1996. – Б. 83.

<sup>2</sup> Ислом. Справочник. – Тошкент, 1989. – Б.88.

<sup>3</sup> Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989. –С. 31, 36, 65...

<sup>4</sup> Кошифий Хусайн Воиз. Футувватномаи султоний. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994. – Б.48.

uchratamiz. Mazkur soʻzlarning aksariyatida birinchi komponent arabchadir va ularning istilohiy mazmuni birinchi komponentga bogʻliqdir:

Tarixan eroniy lugʻaviy qatlamiga mansub ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etuvchi soʻzlar ildizini qadimgi manbalar bilan qiyosan oʻrganish zarur. Xususan, ularni Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining mushtarak merosi “Avesto” tiliga qiyosan oʻrganish koʻplab tarixiy va lisoniy faktlarni beradi. Masalan, “doʻzax” soʻzini olaylik. Klassik adiblarimizning tilida *doʻzax* tushunchasini ifodalovchi bir necha soʻz mavjud: *jahannam*, *saqar*, *jahim*, *nor*, *tamugʻ*. Shuningdek, Qurʼoni Karimda doʻzaxga berilgan sifatlar – *hoviya*, *qoriʼa*, *asfala-s-sofiliyn* ham ushbu sinonimik qatorni yanada boyitgan. Lugʻaviy qatlam eʼtibori bilan *tamugʻ* turkiy; *jahannam*, *jahim* somiy; *doʻzax* esa eroniy soʻzlardir. Bu uchala soʻz ham bir-biriga mutlaq sinonim hisoblanadi. Navoiy hazratlarida oʻqiymiz:

Bordur Navoiy bekase, ishq ichra andoqki xase,

Chun oʻrtading ani base, *doʻzax*da kuydurma yono<sup>1</sup>.

Ogahiy xuddi shunga yaqin fikrni quyidagicha ifodalaydi:

Chun Ogahiy kul boʻldi yona ishqing oʻtigʻa,

Yondirma *tamugʻ* oʻtigʻa, yo rab, oni yono<sup>2</sup>.

Oʻz qatlamga mansub *tamugʻ*, arabiy *jahim*, *saqar* soʻzlari hozirda eskirgan boʻlsa, *jahannam* badiiy uslubga xoslangan. “Avesto”dan meros *doʻzax* soʻzi mazkur sinonimik qatorda dominant vazifasini oʻtaydi.

*Doʻzax* soʻzi “Avesto”da *dujānha* yoki *dujānhu* shaklida uchraydi. U ikkita tarkibiy qismdan iborat boʻlib, *dujān* yovuz, yomon va *gha* esa makon maʼnosini anglatadi. *Gha* makon, uy-joy maʼnosida hozirda urduchada ghar گھار tarzida uchraydi. Bu oʻzak oʻzbek tilining Samarqand, Buxoro shevalarida *beshek* maʼnosini anglatuvchi *gavara* soʻzi tarkibida saqlanib qolgan. Mazkur soʻzning *dujān* qismi eroniy tillarga xos dushman soʻzida mavjud, deb talqin qilishimiz mumkin va bu oʻrinda dushman soʻzi etimologik jihatdan yovuz, yomon odam degani boʻladi.

<sup>1</sup> Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1990. –Б. 7.

<sup>2</sup> Огаҳий. Манбалар. 6 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б.53.

Shuningdek, *do'zaxga* zid mazmundagi soʻzlardan biri boʻlgan *behisht* ham avestoviy soʻzlardan hisoblanadi. “Avesto”da bu soʻz *vahishta* shaklida uchraydi va yaxshi, ezgu maʼnosidagi sifatning orttirma yoki qiyosiy darajasidir. *Behisht* soʻzi tarkibidagi *beh* soʻzi *yaxshi*, *ezgu* maʼnolarida eroniy tillarning koʻpchiligida ishlatiladi. Bu soʻz Ogahiy manbalarida ham koʻp qoʻllanilgan. Masalan, “Zubdatu-t-tavorix”da oʻqiymiz: Ahli islomdan bir necha shahsuvor yigit shahodat topib, *behishti* barin azimatin ixtiyor etdilar”. (263<sup>a</sup>).

Maʼlumki, diniy mazmundagi koʻpchilik soʻzlar arab tilidan oʻzlashgan. Lekin ushbu mavzudagi soʻzlar ichida eroniy qatlamga mansublari ham koʻplab uchraydiki, ularning ildizini “Avesto”dan axtarish oʻrinlidir. Masalan, *bomdod* soʻzini olaylik. Islomda *bomdod* ikki rakaat sunnat va ikki rakaat farzdan iborat boʻlib, tong yorishishidan quyosh chiqquncha boʻlgan vaqt ichida ado qilinadi. Mumtoz adiblarimiz tilida uning arabcha nomi – *fajr* ham keng ishlatilgan. Rabgʻuziyda esa turkiy soʻz bilan *ertang namoz* deyiladi. “Avesto”da *Bamyah* (yorugʻ va jilvagar maʼnosida) har tong quyoshga jilovdorlik qiladigan iloh nomidir. J.Doʻstgoh Xushbom ilohi haqida gapirib, bu haqda mufassalroq yozadi: “Xushbom quyosh nuri nigohboni boʻlgan iloh nomidir. “Avesto”da ushah tong chogʻi degani va kecha-kunduzning mazkur pallasiga muvakkil boʻlgan iloh shunday nomlangan. Quyosh chiqishidan oldin Bomyah nomli boshqa bir iloh osmonga chiqadi va unga jilovdorlik qiladi. Pahlaviy adabiyotida bu ikki iloh nomi tarkibidan *xushbom* soʻzi yasalgan va *ushbom* deb ham nomlanadi”.

Demakki, *bomdod* ikki qismdan iborat. *Bom* soʻzi hozirgi fors, tojik, dariy tillarida tom maʼnosini anglatadi. Shu oʻrinda aytish mumkinki, *bom* (*tom*) Bomyah nomi bilan bogʻliqdir. Ikkinchi qism *dod* esa “Avesto”dagi *dota* shaklidagi qonun, tizim, adolat soʻzlari bilan izohlash oʻrinlidir. Shuningdek, forsiydagi *dodras* (revizor), *bedod* (zulm, adolatsizlik) kabi soʻzlar tarkibida ham *dod* soʻzining *adolat*, *kechirish*, *baxsh etish* kabi maʼnolari yotadi.

*Bomdod* soʻzi tilimiz tarixida, adabiy til va shevalarda sinonimik qatorda dominant vazifasini bajaradi. Masalan, *Bomdod* namozi azonidan soʻng hazrati

sohibqiron... izdihomi tamom bila daryoi mavjvardek Haftregi Xorazm qat'ig'a azimatgustar bo'ldi. (269<sup>a</sup>).

Yuqoridagi *behisht*, *do'zax*, *bomdod* so'zlari aslida zardushtiylik diniga oid so'z bo'lib, keyinchalik islom keng yoyilgach, ular o'ziga yaqin tushuncha ifodalovchi so'zlarga sinonimlik kasb etgan. Zardushtiylikdagi xushbom va islomdagi bomdod namozlari vaqtlari ham bir-biriga mos keladi.

Umuman, o'zlashma so'zlar tizimida avestoviy so'zlar o'zining sezilarli o'rniga ega.

Tarixan eroniy qatlamga mansub o'zlashma so'zlar xususida quyidagi umumiy xulosalarni bayon qilish mumkin:

Turkiy xalqlarning uzoq yillar davomida eroniy xalqlar bilan bo'lgan yaqin qo'shnichilik aloqalari yoki bir hududda yashaganligi, tariximizning salmoqli vaqtlarida bir davlat tarkibida bo'lganliklari tillarning o'zaro ta'sir doirasini kengaytirgan. Buning natijasida turkiy tillarga *shoh*, *sardor*, *sipohi* kabi ko'plab ijtimoiy-siyosiy so'zlar o'zlashgan bo'lsa, fors tiliga *o'nboshi*, *yuzboshi*, *qarovul*, *elchi*, *elbegi* kabi o'nlab so'zlar o'zlashgan.

Hozirgi ijtimoiy-siyosiy, harbiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida mazkur sohaga doir so'zlarning ko'pchiligi arxaizm va istorizmlarga aylangan. *Aroyiznoma*, *sarhang* kabi so'zlar arxaiklashgan bo'lsa, *darvesh* kabi so'zlar istorizmga aylanishi natijasida passiv leksik qatlamdan o'rin olgan.

Ba'zi so'zlarning shakl va mazmunida o'zgarish yuz bergan. Masalan, *sipoh* so'zi hozirda *sipo* tarzida shakliy va mazmuniy o'zgarishga uchraydi.

*Xonadon* so'zida ma'no torayishi yuz bergan, u hozirda istilohiy mazmunini yo'qotib, lug'aviy ma'nosidagina qo'llaniladi.

Ayrim so'zlar xalq maqollari va turg'un birikmalar tarkibida saqlanib qolgan. Masalan, *solor* (ofitser) so'zi "San solor-da man solor, otga cho'pni kim solar" maqoli tarkibida saqlanib qolgan.

Ba'zi so'zlar yangicha mazmun kasb etmoqda. Masalan, *posbon* so'zi.

Demak, davr o‘tishi bilan ba’zi so‘zlarning mazmun va vazifasida turli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ayrimlarida esa ko‘p ma’nodlilik va bir ma’nodlilik singari semantik hodisalar yuz berishi mumkin.

## 2.2. Arab lug‘aviy qatlamiga mansub o‘zlashma so‘zlar

Ayonki, turkiy tillarga arabiy lug‘aviy birliklarining kirib kelishi VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi, bu hudud aholisining islom dinini qabul qilishi bilan bog‘liq. O‘zbek tili tarixiy leksikasini yozma manbalar asosida ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda arabizmlar salmog‘i XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha tadrijiy ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin. Qadimgi turkiy bitiklarda arab so‘zlari bo‘lmagani holda<sup>1</sup>, XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilik”ka nisbatan XII-XIII asrlar yodgorligi deb topilgan “Hibatul-haqoyiq”da arabizmlar ko‘proq uchraydi<sup>2</sup>.

Arab lug‘aviy birliklari, birikmalarining turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tiliga o‘zlashish sabab va vositalari haqida olimlarimiz ko‘plab ilmiy mulohazalarni bayon qilganlar<sup>3</sup>.

Ogahiyning tarixiy manbalaridagi arab lug‘aviy qatlamiga mansub o‘zlashma so‘zlarni, asosan, davlat boshqaruvi bilan bog‘liq o‘zlashma so‘zlar va diniy mavzularga oid o‘zlashma so‘zlar tashkil etadi.

Quyida mazkur o‘zlashma so‘zlarning muxtmanbalar izohi va ularga misollar keltiramiz:

*Hokim* حَكَم so‘zi. Uning o‘zagi bo‘lgan *hakama* حَكَم fe’li *boshqarmoq*, *hokimlik qilmoq*, *boshchilik qilmoq* mazmuniga ega<sup>4</sup>. *Hokim* so‘zining birlamchi lug‘aviy ma’nosi *boshqaruvchi*, *hokimlik qiluvchi*, *boshchilik qiluvchidir*. Ogahiyda *hokim* so‘zi quyidagi ma’nolarda qo‘llanganini kuzatamiz: 1.

<sup>1</sup> Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. –Б. 80.

<sup>2</sup> Н.М.Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б.140.

<sup>3</sup> Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1945; Ўша муаллиф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир // Тил ва адабиёт институти манбалари, 1-китоб. Тошкент, 1946. – Б.83-93; Акылбекова З. Арабизмы // Источники формирования тюркских языков Средней Азии и Южной Сибири. –Фрунзе, 1964; Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Б.41-46;Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. Тошкент, 1968. – Б.109-120; Ўзбек тили лексикасида арабча сўзлар // Ҳозирги замон ўзбек тили. Лексикография. Фонетика. Графика ва Орфография. Морфология. Фахри Камол таҳрири остида. –Тошкент: Ўз ФАН, 1957. – Б.99-101; Бегматов Э. Арабча ўзлашма сўзлар қатлами // Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент: Фан, 1981. – Б.11-124.

<sup>4</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С.187.

Qo'rg'on yoki qal'a boshlig'i, shahar hokimi: ...Abdolobod qal'asining *hokimi*... (272<sup>b</sup>). 2. Viloyat yoki o'lka, ma'muriy hudud hokimi, boshlig'i ma'nosida: ...chun ul hazrat saltanat lavozimi va mamlakat zavobiti ishtig'olidin, filjumla, atrof va aknofdag'i qilo' va bilod *hokimlari*... (255<sup>b</sup>). Bundan tashqari, "Zubdatu-t-tavorix"ning ba'zi o'rinlarida *hokim* so'zi mamlakat boshlig'i ma'nosini kasb etib, *xon*, *amir* so'zlarining sinonimi sifatida qo'llanganini ko'ramiz: hazrati shahanshoi g'ufrondastgoh bila Buxoro *hokimi* amir Nasrulloning orasira nizo' tushmagining kayfiyati va muvofaqat ohangi tuzulmagining ma'rifati... (357<sup>b</sup>).

*Zobit* ضابط so'zi. Bu so'z o'zagi bo'lgan *zabata* ضابط fe'li *olmoq*, *tutmoq*, *bosib olmoq*, *zabt etmoq* kabi ma'nolarni anglatadi<sup>1</sup>. Shunga ko'ra *zobit* so'zining lug'aviy ma'nosi oluvchi, tutuvchi, bosib oluvchi, zabt etuvchidir. "Zubdatu-t-tavorix"da mazkur so'z *zabt etuvchi*, *qo'shinning saralangan sarbozi*, *ofitser* ma'nosini anglatadi. Quyida keltiriladigan misollar shunday fikr bildirishga asos bo'ladi: ...atrofi javonibg'a tushgan va izda qolg'on cherikni *zobit* tavochilar bila yig'nab, urdu atrofig'a tushurdi. (272<sup>b</sup>).

Demakki, *zobit* so'zining ma'nosini o'zak fe'lining har ikkala mazmuni (*olmoq*; *bosib olmoq*) asosida ham belgilash mumkin, ya'ni *zabt etuvchi*, *fath etuvchi*; *ilg'or va yuqori mansabli harb kishisi*; *qo'shin nizomi*, *harbiy qonun-qoidalarni tutuvchi* – *harbiy mansabdor*.

*Kofir* كافر so'zi. Mazkur so'z ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik diniy mazmun kasb etgan bo'lib, *inkor qilmoq*, *rad etmoq* ma'nosidagi *kafara* كفر fe'lidan yasalgan. *Kofir* aslida hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydigan, ilohni tan olmaydigan shaxsni anglatadi. Bu so'zga G'iyosiddin Rampuriy quyidagicha izoh bergan: "Yashiruvchi va berkituvchi ma'nosida. Dinsiz (odam) haq dinni berkitgani va islomni qabul qilmagani uchun *kofir* deyiladi. Forsiylar "fe"ni fatha bilan ishlatadilar. Chunonchi, "kofar"ni "xanjar" bilan qofiya qiladilar". Haqiqatan ham, X.K.Baranov *kafara* كفر ning ushbu mazmunini birlamchi

<sup>1</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С.453.

ma'no sifatida qayd etgan<sup>1</sup>. Lekin ushbu so'z xususida Rampuriy bildirgan fikr haqiqatdan yiroq tuyuladi.

I.Purdovud fikricha, *kofir* arabchaga oromiy tilidan o'tgan bo'lib, uning asli *gabrdir*. *Gabr* hozirgi fors tilida otashparast, zardushtiy degan ma'noni anglatga ham, aslida mutlaq bedin mazmunida bo'lgan. Haqiqatan ham, Purdovud talqini mazmunan ham, fonetik qonuniyatlar jihatidan ham ushbu so'zning tarixiy ildizlarini yaqqol yoritib beradi. Chunki, arab tilida *g* tovushi yo'q. O'zlashmalarda esa bu asosan *j* (masalan, javhar) yoki *k* (masalan Kulsum)ga almashadi. Lab-lab *b* esa lab-tish *f* ga almashishi natijasida arab tilidagi ichki fleksiya uchun juda qulay uch undosh tarkib topgan hamda shu tariqa *kafara* fe'li va undan hosil bo'lgan so'zlar (*kufir*, *kuffor*, *takfir* va h.k.) yuzaga kelgan. M.Mu'in "Mazdoparastlik va uning fors adabiyotiga ta'siri" manbalarida yozishicha, hozir Turkiyada g'ayridin ma'nosida *gavr* so'zi ham qo'llaniladi. Olim arman va rus tillaridagi *gavrik* so'zlarini ham shu o'zak bilan bog'laydi. Rus tilining lug'atlaridan birida *gavrik* so'zi battol, bekorchi, dilozor deb talqin qilinadiki<sup>2</sup>, bundan olimning so'zlari asosli deb qarashimiz mumkin.

*Gabr* گبر so'zi o'zbek mumtoz adabiyotida ham ko'plab qo'llanilgan. Masalan, A.Navoiy manbalarida *gabr* otashparast, o'tga sig'inuvchi, majusiy; *gabrak* g'ayridin qiz, soqiy ma'nolarida ishlatilganini ko'rishimiz mumkin<sup>3</sup>.

*Kofir* so'zining "Zubdatu-t-tavorix"da qo'llanilishining o'ziga xosligi shundaki, Ogahiy mazkur so'zni islom dinining shia mazhabi vakillariga nisbatan ham ishlatadi. Bu holni manbalarning ko'plab o'rinlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, ...Mashhad shahrining hitori bag'oyat hasin va ulusi *kofiri* bedindurur va osonlig' bila oni fath qilmog'lik yo'qdurur. (262<sup>b</sup>). Shuningdek, shariatda dinga ishonmaslik, ilohni tan olmaslik, dahriylik (ateizm) ma'nosidagi *kufir* so'zini Ogahiy ba'zi o'rinlarda shia (imomat) e'tiqodiga nisbatan ham

<sup>1</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С.693.

<sup>2</sup> Словарь русского языка. В четырех томах. Издание третье. Стереотипное. Том I. – М.: Русский язык, 1985. – С.295.

<sup>3</sup> Алишер Навоий манбалари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. Том I. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.385.

qo‘llaydi. Masalan, ...chun oning (Muhammadxon Qaroyining) kichik qardoshikim, *kufri* zalolat ko‘chasining avboshi erdi... (262<sup>b</sup>).

“Zubdatu-t- tavorix”da *kofir* so‘zining siniq ko‘plik shakli *kuffor* ham ko‘p qo‘llanganini kuzatamiz. Masalan, ... ondin o‘zga bir necha kishi *kuffor* cheriki qo‘lig‘a asir bo‘ldilar. (263<sup>b</sup>).

*Kofir* so‘zi aslida hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaydigan shaxs ma’nosida bo‘lsa ham, “islom an’anasida va manbalarda musulmonlardan tashqari barcha kishilar – boshqa dinga ishonuvchilar, dinga ishonmovchi ateistlar ham kofir deyilgan”<sup>1</sup>. Chunonchi, Alisher Navoiy tilida *kofir* (*kuffor*) so‘zi an’anaviy mazmunidan tashqari mo‘g‘ul bosqinchilari ma’nosini ham anglatadi<sup>2</sup>.

*Mushir* مشير so‘zi شار shaara – maslahat bermoq fe’lining aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib, hukmdorning davlat maslahatchisi degan ma’noni anglatadi: ...mushiri mo‘tabar Muhammadyusuf mehtar... (282<sup>b</sup>).

*Mushrif* مشرف so‘zi sharufa شرف – sharofatli bo‘lmoq fe’lining II bobi - *sharrafa* شرف – “ulug‘lamoq, e’zozlamoq”ning aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib, ulug‘lovchi, e’zozlovchi degan ma’noni beradi. *Mushrif* – mamlakatning asosiy daromadi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan soliq yig‘uvchi yuqori mansabdor bo‘lib, xonning yaqin odamlaridan sanalgan. SHuning uchun ham bu lavozim mehtar zimmasida bo‘lgan: ...*Mushrifi* mazkur (Muhammad Yusuf mehtar) To‘rabahodirni rufaqa va julasosi bila ma’lul va maqhur qilib Xivaq shahri jonibig‘a uzatdi. (282<sup>b</sup>).

*Mahram* محرم – xonning davlat ishlarida maslahatlashadigan, alohida va maxsus vazifalarni bajaruvchi amaldor bo‘lib, uning asosiy mashg‘uloti xonlikdagi karvon va chorva mollaridan soliq yig‘ish bo‘lgan<sup>3</sup>: ...ostoni sipehr oshiyon *mahrami* xoslaridin Gadoyniyoz *mahram*... (262<sup>b</sup>). *Mahram* so‘zining etimologiyasi uning o‘zakdoshlari *muharram*, *harom*, *ehtirom* kabilarga qiyosan o‘rgansak, ushbu fikr yanada oydinlashadi. Jumladan, *muharram* محرم hijriy-qamariy taqvimning birinchi oyi nomi. Mazkur oy johiliyat davrida urush va

<sup>1</sup> Ислам. Справочник. – Тошкент, 1989. – Б.176.

<sup>2</sup> Навоий. Манбалар. 15 томлик. – Тошкент, 1968. 15-том. – Б.142-143.

<sup>3</sup> Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.69.

janjallar ta'qiqlangan "shuhuri harom" deb atalgan to'rt oyning biridir. "G'iyos ul-lug'ot" muallifi ham "johiliya davrida bu oy davomida odamlarga urush ta'qiqlangani bois mazkur oy shu nom bilan atalgan" deb izoh bergan. Haqiqatan ham, muharram so'zi o'zagini "ta'qiq qilinmoq, ulug' bo'lmoq, hurmatli bo'lmoq" ma'nosidagi *haruma* حرم fe'li tashkil qiladi. Muharram mazkur I bobdan hosil qilingan II bob – harrama حرم ning majhul nisbat sifatdoshidir. Bu fe'l tarkibidagi tovushlar soni va sifati (aqsom) bo'yicha sahih (solim) bo'lgani uchun uning majhul nisbat sifatdoshi *mufa'alun* مفعل vaznida bo'ladi<sup>1</sup>. Demakki, *muharram* "ta'qiqlangan", "harom qilingan" degan ma'noni beradi. Mazkur oy nomi "Zubdatu-t-tavorix"da ham uchraydi: ...chun bu voqea navvobi mustatob vositasi bila sanai ming ikki yuz qirq uchda – *muharram* oyining g'urrasi chahorshanba kuni masome'i a'log'a masmu' bo'ldi...(280<sup>b</sup>). Shundan kelib chiqqanda *mahram* – o'zgalar uchun ta'qiqlangan, harom qilingan narsalar (xoh moddiy, xoh ma'naviy) egasi. Shuning uchun ham tanmahram, go'ri mahram tushunchalari kelib chiqqan.

*Umda* عده – oqsoqol, urug' yoki qabila boshlig'i. Mazkur so'z *amada* عمد – *tirgak bo'lmoq, suyamoq, himoya qilmoq* ma'nosidagi fe'ldan hosil bo'lgan bo'lib, *oqsoqol, ovul yoki qishloq sardori* degan ma'no beradi. *Umda* boshqargan hudud yoki u egallagan lavozim *umdiya* deb ataladi<sup>2</sup>. Ogahiy ham mazkur so'zni *ovul yoki qabila sardori* sifatida istilohiy ma'noda qo'llaydi: ...va qaroqalpoqiya *umdalaridin* razm maydonining qoploni harbi mulla Davlatnazarbiy... (256<sup>b</sup>).

*Julus* جلوس uch undoshli fe'l masdarlarining *fu'ul* فعل qolipida yasalgan. Uning lug'aviy ma'nosi o'tirish, majlisdir<sup>3</sup>. Arab tilida yana *jolis* جالس – *o'tiruvchi* so'zining aynan *fu'ul* vaznida siniq ko'pligi yasalishi natijasida bu ikkala o'zakdosh so'z bir xil shakl olgan<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Иброҳимов Н. Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. – Б. 175.

<sup>2</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С. 538-539.

<sup>3</sup> Алишер Навоий манбаларлари тилининг изоҳли луғати. 1- жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 597.

<sup>4</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С.834.

*Julus* hukmdorning taxtga o‘tirishi, hokimiyatni qo‘lga olishi ma’nosini ifodalaydi. *Julus* an’anaviy tantana bilan muayyan rasm-rusumlarni bajo keltirib o‘tkazilgan. Xiva xonligidagi *Julus* haqida Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” manbalarida qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin<sup>1</sup>. Jumladan, N.Jumaxo‘jaev va I.Adizovalar Feruzning *Julusi* tafsilotiga diqqat qaratganlar va e’tiborga molik fikrlar bayon qilganlar<sup>2</sup>.

Ogahiyda ham *Julus* so‘zi hukmdorning taxtga o‘tirishi ma’nosida qo‘llanadi. Tabiiyki, uning lug‘aviy ma’nosida taxtga o‘tirish nazarda tutiladi. Masalan, ...barchasig‘a *Julusi* humoyuniyning e’lomi uchun payg‘om yubormakni lozim va mutahattim bilib, alarning har birig‘a ostoni davlat oshiyon mulozimlaridin bir kishini tahniyatnoma bila irsol qildi. (255<sup>b</sup>), ... chun ul hazratning *Julusi* davlat ma’nusining xabari behjatmanbalari aqtori olamg‘a intishor topdi... (255<sup>b</sup>).

Hozirgi vaqtda davlat boshliqlarining vazifasini bajarishga kirishishlari, qasamyod qabul qilish tantanalari *inaguratsiya* deb aytiladi. Mohiyat e’tibori bilan bu *Julus* tantanasidir.

Ogahiyning tarixiy manbalaridagi siyosiy-diniy mazmundagi o‘zlashma so‘zlarni o‘z navbatida quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

***a) diniy rutba va lavozimlar nomi:***

*Qozi* قاضى – musulmon jamoasidagi sudya: ...Mustafo *qozini* saqlab, o‘zgasin Mahmudobod qal’asig‘a yibordi.(266<sup>b</sup>).

*Shayx* شيخ 1. Ilohiyot olimi. 2. Tariqat piri. 3. Qadamjo mutassadisi. Masalan: *Shayx* Najmiddin Kubro ... (338<sup>b</sup>).

*Shayx ul-islom* شيخ الاسلام – oliy ruhoniy unvoni. Xiva xonligida oliy diniy unvon<sup>3</sup>. ...Qutbiddinxoja *shayx ul-islom*... (273<sup>b</sup>).

*Mufti* مفتى – diniy va dunyoviy ishlarni fiqhiy jihatdan o‘rganuvchi, fatvo beruvchi: ...a’lamululamo hazrati Eshonxoja *mufti*... (277<sup>b</sup>).

***b) mazhab va sekta nomlari:***

<sup>1</sup> Мерос. – Тошкент: Камалак, 1990. – Б. 189.

<sup>2</sup> Жумахўжаев Н., Адизова И. Сўздин бақолирок ёдгор йўқтур. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б.53.

<sup>3</sup> Мухтманбалар. Арабчадан Р.Зоҳид ва А.Дехқон таржимаси. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б.56-62.

*Sunniy* سننى – islomdagi ikki mazhabning biri. Ahli sunna va-l-jamoa mazhabi: ... o‘zlarin qavoidi dinu millat va rusumi shar’u sabab ihyosida *sunniyi* sanaviy va musulmoni komil tutub... (341<sup>b</sup>).

*Shia* شيعه – islomdagi ikkinchi mazhab. *Imomat* deb ham nomlanadi. Shialik sunniylikdan o‘zining, asosan, imomat e’tiqodi bilan farq qiladi. (Muhammadxon qaroyi) *shia* mazhabin tark tutib erdi. (262<sup>b</sup>).

*Rofiziy* رافضى – sunniylik e’tiqodidan chetlashgan oqimlar, xususan, shialikning umumiy nomi bo‘lib, *rofiz* رافض rad qiluvchi, tark etuvchi degan ma’noni anglatadi. Ogahiyning tarixiy manbalarida *rofiziy* so‘zining siniq ko‘plik shakllari *rafoviz* va *rafza* ham uchraydi. Masalan, manbalardagi sarlavhalardan biri shunday nomlanadi: “Shahzoda Rahmonquli to‘raning Xuroson *rafzasi* qasdig‘a ikkkilanchi navbat lashkari selmanbalar bila azimat etgani va soruq muonidlarining tanbih va go‘shmollik dog‘i intizom qilib, kavkabai tamom bila Marv viloyatig‘a etkani”. Yoki manbalarda keltirilishicha, Olloqulixonning Abbosmirzoga yozgan xatida shunday sattrlar bitilgan: “...Xuroson ahlikim, g‘ulomi *ravofizdururlar*, alarg‘a ot qo‘ymoq va imon ahlidin sanamoq indashshar’ va indalaql durust ermasdurur“. (341<sup>b</sup>).

#### **v) diniy-iqtisodiy mazmundagi ijtimoiy-siyosiy so‘zlar:**

Ogahiyning tarixiy manbalarida *ushr* va *zakot* so‘zlari ham sof diniy-iqtisodiy mazmundagi so‘z sifatida, ham *ushru zakot* tarzida soliq, umuman, xonlik tomonidan joriy qilingan to‘lovlar ma’nosida qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ...*zakot* farzining qarzin ado qilmay, balki ne yanglig‘ ado qilmoqni bilmay harom va halolni nazari e’tiborga ilmay, mol jam’iyatig‘a ishtig‘ol ko‘rguzur erdilar.(262<sup>b</sup>).

*Nisob* نصاب zakot to‘lash farz bo‘ladigan mol-dunyo miqdoridir. Uning miqdori ashyoning turi va qiymatiga ko‘ra xil bo‘ladi. “Muxtmanbalar”da turli ashyolarning nisob darajasi ko‘rsatib o‘tilgan<sup>1</sup>. Moli nisob darajasiga etgan shaxs *sohibi nisob*, ya’ni nisob egasi deyilgan. “Zubdatu-t-tavorix”da o‘qiymiz: ..shayxu shobdin mol naqdida sohibi nisob topilsa, zakot axzi uchun omillar va

<sup>1</sup> Muxtmanbalar. Arabchadan P.Zohid va A.Dexkon tarjimasi. – Toshkent: Ch‘lpon, 1993. – B. 56-62.

ul amal ulumig‘a komillar yiborib, oz chog‘da ul elning *zakotin* muvofiqi shar‘ oldilar. (262<sup>b</sup>).

*Xiroj خراج* davlat yerlaridan to‘planadigan soliq bo‘lib, Markaziy Osiyoda islom dinining tarqalish jarayonida joriy etilgan<sup>1</sup>. Shariatda xiroj *xiroji muqosama* va *xiroji muvazafa* tarzida ikki turga bo‘linadi. *Xiroji muqosama* qilib belgilangan yerlardan ekinning beshdan biri yoki to‘rttdan biri olinadi. Bunday yerlardan daromadga qaraganda xarajat ko‘paysa yoki ekilmay qolsa, xiroj olinmaydi. Shuningdek, ekishga yaroqli (*xiroji muvazafa*) yerning egasi ekmay bo‘sh qo‘ysa ham xiroj to‘laydi<sup>2</sup>. “Zubdatu-t-tavorix”ning bir necha o‘rinlarida mazkur so‘zni uchratishimiz mumkin. Masalan, ...chun ul ovonda Hirot hokimi Shoh Komron dog‘i Abbosmirzoning *xiroj* talab qilib kelgan elchilarig‘a xush yuz bila javob bermay, itobomizlar bila talxkomu benayli marom qaytardi. (345<sup>b</sup>).

Ogahiyning tarixiy manbalarida uchraydigan diniy-iqtisodiy mazmundagi so‘zlardan biri *xums*dir. Bu so‘z asosida *xamasa* خَمْسٌ biror narsaning beshdan birini olmoq fe‘li yotadi<sup>3</sup>. Uning siniq ko‘plik shakli *axmos*dir. *Xums* musulmon qo‘shini qo‘lga kiritgan o‘lja, ya‘ni g‘animatning beshdan bir qismidir<sup>4</sup>. *Xums* urushda qatnashgan navkar va sarkardalarga ham tarqatilgan. Uning asosiy qismi davlat xazinasiga o‘tkazilgan. Buni quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin: Chun shohzodai nusratqarin hamul qishloqda oromguzin bo‘ldi, usaroyi bepoyon, g‘anoyimi bekaronning *xums* va g‘oniyin muvofiqi shar‘ axz qilib, umaro va sarkardalarg‘a in‘om, shujao va mutahavvirlarg‘a hamul in‘omdin kom etkurib, oti o‘lgan va zaxmdor bo‘lg‘on muborizlarg‘a dog‘i ehsoni farovon va baxshishi bekaron bila bahramand va arjumandlig‘lar etkurdi. (261<sup>b</sup>).

*Istiora* استعارة so‘zi ham diniy-iqtisodiy mazmun kasb etadi. Shariatda birovning mol-mulkini oriyatga olish, ya‘ni badalsiz foydalanish *istiora* deb aytiladi. “Muxtmanbalar”ning “Oriyat kitobi” qismida *istiora* haqida so‘z

<sup>1</sup> Исл.м. Справочник. – Б.270.

<sup>2</sup> Мухтманбалар. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б.65-66.

<sup>3</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. –С.238.

<sup>4</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С.238.

yuritiladi<sup>1</sup>. Mazkur soʻzning lugʻaviy va istilohiy mazmunlari haqida A.Rustamovning “Soʻz xususida soʻz” kitobida maʼlumot berilgan<sup>2</sup>. “Zubdatu-t-tavorix”dan keltiriladigan quyidagi parchada *istiora* soʻzi olim tomonidan qayd etilgan har ikkala maʼnosi, yaʼni diniy-iqtisodiy mazmuni va adabiyotshunoslikdagi mazmunlariga ishora qilinadi: ...ul manzilda fajr namozin huzuʼi tamom va xushuʼi molokalom bila oʻqub, bodpoyi bodiyapaymosigʻakim, sabodin surʼati sayrni *istiora* qilur erdi, rukub qilib masofa qatʼigʻa saʼyi baligʻ koʻrguzib, chun Qoraqoʻl ayogʻigʻa vorid boʻlubdurlar. (313<sup>b</sup>).

**g) diniy-siyosiy mazmundagi soʻzlar.**

*Bogʻiy* soʻzi siyosiy mazmun kasb etuvchi oʻzlashma soʻzlarga mansub boʻlib, musulmon boʻlgani holda musulmon hukmdorga boʻysunishdan bosh tortgan shaxs maʼnosini ifodalaydi. Musulmon kishining musulmon podshohga boʻysunmasligi *bogʻiylik* (Ogahiyda *bogʻiygarlik*) hisoblangan. “Zubdatu-t-tavorix”da bu atama Olloqulixonga itoatdan bosh tortgan Toʻramurod soʻfiyga nisbatan ishlatiladi: ...Chun ul zamonda Qoʻngʻirot qoʻrgʻonining hokimi Toʻramurod soʻfi *bogʻiy* boʻlub, *bogʻiygarlik* qilur erdi... ul hazrat mulozimlaridin imdod va koʻmak tilab erdi. (279<sup>b</sup>).

**d) diniy-harbiy mazmundagi ijtimoiy-siyosiy soʻzlar.** Manbalarda uchraydigan harbiy ishiga oid soʻzni shu tarzda kichik guruhga ajratishimiz boisi shuki, ularda diniy mazmun ustunlik qiladi. Jumladan, *gʻazot* soʻzi umuman jang, urush maʼnosini emas, balki din yoʻlida olib borilgan jang, harbiy harakat maʼnosini ifodalaydi. Masalan, (Olloqulixon Rahmonquli toʻrani) kuffori badkirdor *gʻazotigʻa* nomzod qildi. (256<sup>b</sup>). “Zubdatu-t-tavorix” da *gʻazovot* soʻzi oʻz anʼanaviy maʼnosidan tashqari shia mazhabi vakillariga qarshi olib borilgan urushlarga nisbatan ham qoʻllaniladi. Chunki, manbalar voqealari bayon qilingan vaqtda Xiva xonligi va Eron munosabatlari keskinlashgan va sunniy-shia ixtiloflari bu nizolarni harakatga keltiruvchi vosita boʻlib xizmat qilgan edi. Bu holni manbalarda bayon qilingan Xiva-Eron munosabatlariga doir voqealar tafsilotidan yaqqol koʻrish mumkin. Manbalarda muallif Olloqulixonning

<sup>1</sup> Мухтманбалар. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б.196-199.

<sup>2</sup> Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент, 1987. – Б.37-39.

Xuroson viloyatiga yurishi ishtirokchilarini “g‘azot savobining tolibi va ul talab husulining rog‘ibi” (273<sup>b</sup>) tarzida tavsiflagan o‘rinlarni uchratishimiz mumkin.

*G‘oziy* غازی so‘zi *g‘azovot* so‘zi bilan o‘zakdosh bo‘lib, din yo‘lidagi urush ishtirokchisidir. G‘ayridinlarga qarshi urush ishtirokchisi *g‘oziy* hisoblangan, bunday urushlar olib borgan, sarkardalik qilgan ba‘zi podshohlar Abulg‘oziy (aynan *g‘oziyning* otasi) laqabini olgan. Jumladan, Abulg‘oziy Bahodirxon “Shajarai turk”da yozishicha, unga bu ism otasi Arabmuhammadxonning Kaspiy bo‘yicha g‘ayridinlar ustidan qozongan g‘alabasi munosabati bilan qo‘yilgan<sup>1</sup>.

Diniy-harbiy mazmundagi ijtimoiy-siyosiy so‘zlardan biri *jihad* bo‘lib, u mohiyat e‘tibori bilan *g‘azot* (yoki *g‘azovot*) so‘zining sinonimidir. Unda ishtirok etadigan jangchilar esa *mujohid* deb ataladi. Ogahiyda bu so‘z *g‘oziy* singari shia mazhabi vakillariga qarshi bo‘lgan urush ma’nosida ham qo‘llanganini ko‘ramiz. Masalan, ...Xazrati sohibqironi Iskandarnishonning *jihad* irodasi bila Eron savodi jonibig‘a azimat yakronin surmagi... (264<sup>b</sup>). Shunga ko‘ra *mujohid* so‘zi ham ikki mazhab vakillari o‘rtasidagi urush qatnashchisi (sunniiy mazhab vakili)ga nisbatan ishlatilgan: ...Chun jonboz *mujohidlar* va sarandoz muhoriblar... a‘doyi davlatning to‘rt tarafidin jilovrez va qahromiz ot solishib, mardona savoshlar va dalirona taloshlar rusumin zuhurga etkurur erdilar. (284<sup>b</sup>).

Bu ikkala so‘z (*jihad* va *g‘azot*) garchi sinonim hisoblansa ham, ular o‘rtasida muayyan ma’no tafovutlari mavjud. Bular asosan, quyidagilardan iboratdir:

Birinchiidan, *g‘azot* va *g‘oziy* so‘zlari *jihad* va *mujohidga* nisbatan tor ma’noga ega. *G‘azot* din yo‘lidagi urush, harbiy harakatni anglatadi, *jihad* bu yo‘ldagi umumiy harakat, sa’y, intilishni ifodalaydi. Shuning uchun ham bu ikkala so‘z bir-biriga mutloq sinonim bo‘la olmaydi. Masalan, “nafsga qarshi *jihad*” tushunchasini “nafsga qarshi *g‘azot*” tarzida ifodalab bo‘lmaydi.

---

<sup>1</sup> Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 167.

Ikkinchidan, *mujohid* soʻzi ham *gʻoziyga* nisbatan kengroq maʼnoga ega boʻlib, din yoʻlida harbiy usuldan boshqa yoʻllar, jumladan, maʼrifat yoʻli bilan kurash olib boruvchi kishiga nisbatan ham qoʻllaniladi.

Mana shu kichik guruhga mansub *shahodat*, *shahid* soʻzlari oʻzakdosh boʻlib, *shahid* “din yoki mazhab yoʻlida halok boʻlgan shaxs”<sup>1</sup>, *shahodat* esa shahid holda halok boʻlish degan maʼnoni anglatadi. “Zubdatu-t-tavorix”da *shahid* soʻzi koʻp hollarda shialarga qarshi janglarda halok boʻlgan Xiva xonligi qoʻshini vakillariga nisbatan ishlatiladi. Masalan, (Otaniyoz mergan) nogoh taqdiri xudo bila oti yiqilib, otdin judo boʻldi va qizilboshdin bir guruhi palid oning ustigʻa hujum qilib, *shahid* etdilar. (263<sup>a</sup>).

Fiqhda *shahid* soʻzi yuqorida izohlanilganidan koʻra kengroq maʼnoga ega. *Shahid* shariatda janobatdan, hayzdan va nifosdan pok holda zulm bilan oʻldirilgan boligʻ musulmondur. Shuningdek, jangchi jang maydonidan olib chiqib ketilmasdan turib oʻlsa, shahid hisoblangan<sup>2</sup>.

Shu oʻrinda Ogahiyning tarixiy manbalaridagi arab leksik qatlamiga mansub oʻzlashma soʻzlarning qoʻllanilishiga oid ayrim mulohazalarni bayon qilish mumkin:

Ogahiyning tarixiy manbalari Xiva xonligi tarixi tarkibida boʻlganligi sababli ham unda oʻsha davr xonlikdagi davlat tuzilishiga oid oʻzlashma soʻzlar qoʻllanilgan. Mazkur xonlikdagi koʻpgina mansab nomlari arab lugʻaviy qatlamiga mansubdir, bu esa manbalarda oʻz aksini topgan. “Zubdatu-t-tavorix”da oʻzlashma soʻzlar doirasidagi baʼzi arabiy soʻzlar asl turkiy soʻzlarga sinonim vazifasini bajaradi. Masalan, *urush* soʻzining maʼnosi *harb*, *muhoraba* soʻzlari bilan ham ifodalangani kabi. Oʻzlashma soʻzlarga mansub ayrim soʻzlar islom dini, uning aqida va eʼtiqodiy jihatlari bilan bevosita bogʻliq boʻlib, ularda diniy mazmun ustunlik qiladi. Shuning uchun ularni diniy mazmundagi ijtimoiy-siyosiy soʻzlar tarzida alohida bir guruhga ajaratishni lozim topdik.

Ogahiy baʼzi turkiy soʻzlarga sinonim sifatida ularning arabchasini qoʻllaydi. Bu holni muarrix ijodiga xos boʻlgan badiiy boʻyoqdorlikka intilish,

<sup>1</sup> Ўзбек тилидаги арабча ва форсча сўзлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.106.

<sup>2</sup> Мухтманбалар. Арабчадан Р.Зоҳид ва А.Дехқон таржимаси. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б. 56.

badiiy san'atlardan keng foydalanish uslubi bilan izohlash mumkin. Masalan, "maymanai maymun va maysarai mansur" birikmalari orqali tovushdoshlik, ishtiyoq san'atlari yuzaga keltirilgan. Bundan tashqari, Ogahiy o'z ijodiy faoliyati davomida fors-tojik tilidagi beshta tarixiy manbalarni tarjima qilgan. "Zubdatu-t-tavorix"ning uslubida tarjima jaryonida paydo bo'lgan adabiy ta'sir ham o'z aksini topgan bo'lishi shubhasizdir. Ogahiyning ushbu manbalarida yuqorida so'z yuritilgan fors va arab tillaridan boshqa biror tildan o'zlashgan so'zlar salmog'i juda kam. Bu, albatta, o'sha davr sharoitida o'zbek tiliga Evropa tillarining lug'aviy jihatdan ta'siri kamligi bilan izohlanadi. Masalan, "Zubdatu-t-tavorix"da Rossiya bilan bog'liq voqealar tilga olinar ekan, *imperatur* so'zi uchraydi: Bu yil rajab oyining uchinchi shanba kuni O'rus poytaxti Fetirburg podshohi *imperatur* binni Nikuloy Povlovichning qo'shg'on elchisi Prukufiy Andrevich binni Nikiqirusiyning hamrohlig'i bila kelib... (354<sup>b</sup>). Ta'kidlash kerakki, ayrim tadqiqotchilar tomonidan mo'g'ul tiliga oid deb ko'rsatilgan ko'pgina so'zlarni turk-mo'g'ul parallellari yoki o'rtoq so'zlar sifatida berishni ma'qul deb topdik<sup>1</sup>. Aslida uchun ham "bu so'zlar mo'g'ul tilidan eski o'zbek tiliga yoki, aksincha qadimgi turkiy tildan mo'g'ul tiliga qabul qilingan, degan qat'iy fikrni bildirish qiyin"<sup>2</sup>.

Ushbu bobda tahlil qilingan misollar va keltirilgan faktik materiallar quyidagicha umumiy xulosalarni bayon qilish imkon beradi:

1. "Zubdatu-t-tavorix"dagi turkiy qatlamga mansub so'zlarning aksariyati etimologik jihatdan qadimgi turkiy asoslardan tashkil topgan. Turkiy tillarning so'z yasaliş imkoniyatlari o'zlashma so'zlar doirasida turkiy so'zlarning salmog'ini oshiruvchi mezonlardan biri bo'lgan.

2. Eroniy qatlamga mansub so'zlarning ayrimlari fonetik variantlarda ishlatilgan. Ulardan ba'zilari hozirgi o'zbek adabiy tilida faol ishlatiladi. Shu bilan birga ushbu so'zlarning manbalarda anglatgan ma'nolari hozirgi o'zbek adabiy tilida anglatgan ma'nolaridan farq qiladi. Bu so'zlarning ko'pchiligi

---

<sup>1</sup> Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Б.55-56.

<sup>2</sup> Турсунова О. Умумтуркий тарихий-ҳуқуқий атамаларнинг семантик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, – 2006. – №5. – Б.93.

sinxron jihatdan sodda tub soʻz hisoblansa ham, etimologik tahlil ularning aksariyati tarixan yasama ekanini koʻrsatdi.

3. Tahlilga tortilgan ayrimlarini sinxron jihatdan maʼnoli qismlarga ajratish mumkin. Bu holda ular arabcha+forscha, forscha+forscha tarzida hosil qilingan.

4. Ushbu toʻplamga mansub soʻzlar ichida substrat sifatida qarashga mumkin boʻlganlari ham uchraydi.

5. Manbalar leksikasida eroniy qatlamga mansub aksar soʻzlarning turkiy muqobili ishlatilganini Ogahiyning oʻzlashma soʻzlardan foydalanish mahorati mezonlaridan biri deb qarash mumkin.

6. Arab lugʻaviy qatlamiga mansub koʻpchilik soʻzlarning ham turkiy muqobili ishlatilgan. Turkiy muqobilga ega boʻlmagan soʻzlarning aksariyatini diniy mazmundagi oʻzlashma soʻzlar tashkil qiladi.

### **III B O B**

## **MANBALARDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING TARKIBIY TAHLILI**

Tilshunoslik manbalarini kuzatish asnosida shunga guvoh bo‘lamizki, turkiy tillar leksikasida arabiy va forsiy birliklarning o‘zlashish salmog‘i kattadir. VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi, bu hudud aholisining islom dinini qabul qilishi bilan bog‘liqdir. Dinning qabul qilinishi arabcha o‘zlashmalarning turkiy tillar leksikasida o‘rin egallashiga zamin yaratgan.

O‘zbek tili tarixiy leksikasini ko‘zdan kechirish asosida shunga guvoh bo‘lamizki, arab va forsha o‘zlashmalar soni XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha tadrijiy ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

Arab lug‘aviy birliklarining turkiy tillar, jumladan, eski o‘zbek tiliga o‘zlashish sabab vositalari haqida olimlarimiz ko‘plab ilmiy mulohazalarni bayon qilganlar.

Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” va boshqa tarixiy manbalarida sinonimlar turkiy so‘zlarga arabiy va forsiydan o‘zlashgan so‘zlar sinonim bo‘lishi, turkiy fe’llarga ot qismi arabcha yoki forsha bo‘lgan so‘zlar bilan turkiy ko‘makchi fe’l orqali sinonim hosil qilinishi ( qaytmoq turk. – tub fe’l; muovadat ( ar.) – ko‘makchi fe’l kabi) , ko‘makchi qism ko‘pincha etmak, aylamak, chekmak, ko‘rguzmak, bo‘lmoq kabi fe’llar orqali, badiiy bo‘yoqdorlik orqali sinonimik qator boyitilishi ( asir / ar. / qilmoq / turk. / fe’liga asorat / ar. / qayd / ar. / ig‘a giriftor / for. / qilmoq / turk. ) singari vositalar bilan boyiganini ko‘ramiz.

### **3.1. Eroniy lug‘aviy qatlamga xos o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy tahlili**

Eroniy qatlamga mansub o‘zlashma so‘zlarni tarkib jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Tub so‘zlar.

## 2. Yasama soʻzlar.

Faqat oʻzak morfemadan iborat boʻlib, tarkibida yasovchi qoʻshimcha mavjud boʻlmagan soʻzlar tub soʻzlar hisoblanadi. Masalan, *shoh*, *sipoh* kabi. Lekin, taʼkidlash lozimki, baʼzida sinxron aspektda tub deb qaralgan soʻzlar diaxron nuqtai nazardan qaraganda yasama boʻlib chiqadi. Misol tariqasida *dehqon* arab tili taʼsirida fonetik oʻzgarishga uchragan. Bu soʻz aslida *dehgon* (*deh* – *qishloq* oʻzagidan) boʻlgan, hozir uning arabiydashgan shakli qoʻllanadi. Bu hodisa aslida *bozorgon* boʻlgan *bozurgon* (savdogar) va aslida *xonagoh* boʻlmish *xonaqoh* soʻzlarida ham koʻzga tashlanadi<sup>1</sup>.

Eroniy tillarda ot yasaliishida morfologik usul ancha sermahsul boʻlib, oʻzakka suffiks va prefikslarni qoʻshish orqali yangi soʻzlarni yuzaga keltiradi. Shunga koʻra morfologik usulda yasalgan soʻzlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Suffikslar orqali yasalgan soʻzlar.
2. Prefikslar orqali yasalgan soʻzlar.

Ogahiyning tarixiy manbalaridagi morfologik usulda yasalgan soʻzlarning barchasi suffikslar orqali yasaladi. Xususan, *-bon*, *-gar*, *-dor* kabi qoʻshimchalarning sermahsulligini kuzatamiz. Mazkur qoʻshimchalarning har biri alohida leksik va morfologik xususiyatga ega ekanligini koʻrishimiz mumkin.

*-bon* بون qoʻshimchasi hozirgi fors, tojik, dariy tillarda quyidagi mazmunlarni ifodalaydi:

1. Shaxsning kasb-kori, mashgʻuloti turini anglatadi. Masalan, *bogʻbon*, *darbon* kabi.
2. Mansab nomlarini yasaydi: *marzbon*, *posbon*.
3. Feʼlning oʻtgan zamon oʻzagiga qoʻshilgan holda ham kasb-kor nomini yasaydi: *didbon* kabi.
4. Narsa-buyum nomini yasaydi: *soyabon* kabi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе: Ирфон, 1973. – С. 131.

<sup>2</sup> Забони адабии ҳозираи тоҷик. – С. 141.

“Zubdatu-t-tavorix”dagi ushbu qo‘shimcha yordamida yasalgan o‘zlashma so‘zlarga mansub so‘zlarni tahlil qilish orqali uning yangi vazifaviy jihatlarini ko‘rishimiz mumkin. *-bon* qo‘shimchasi “*saqlovchi, muhofaza qiluvchi*” ma’nosida “Avesto”da *rana*  $\text{𐬰𐬀𐬎𐬌}$  shaklida uchraydi. Sanskrit tilida ham xuddi shu shakl va ma’noni anglatadi. Mazkur qo‘shimcha pahlaviy tilida *pān* shaklida ishlatilgan. Ogahiyning tarixiy manbalarida mazkur qo‘shimcha orqali yasalgan *marzbon* va *posbon* so‘zlari uchraydi.

*Marzbon*  $\text{مرزبان}$  so‘zi hozirgi fors tilida quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1. Chegarachi; eskirgan: chegara istehkomi; 2. Tarixiy: marzbon (sosoniylar Eronida chegara viloyat hokimi); 3. Eskirgan: hokim, voliy<sup>1</sup>. Fors tilida ushbu so‘zning *marzdor*  $\text{مرزدار}$  shakli ham bor. Bu so‘zning o‘zagi bo‘lgan *marz*  $\text{مرز}$  so‘zi “Avesto”da *merezu* shaklida biror o‘lka chegarasi degan ma’noni anglatadi. Mazkur elementlar armanchadagi *marz*, chot tilidagi *marka* (chegara belgisi), qadimgi irlandcha *bruig, mruig*, lotincha *margo* (chekka, qirg‘oq) so‘zlari bilan umumiy o‘zakka ega.

*Marz* so‘zining to‘rtburchak shakliga keltirilib, atrofi baland qilingan ekin maydoni degan ma’nosi ham bor. O‘zbek tilidagi *marza* xuddi shu o‘zakdan deyish mumkin.

Tarixiy so‘z sifatida *marzbon* quyidagi ma’nolarni anglatganini ko‘rish mumkin:

1. Chegarachi, soqchi:

Qilib tortgan chog‘da tig‘i zabon,

Ki qilmay tuman tig‘lik *marzbon*. (“Saddi Iskandariy”)<sup>2</sup>.

2. Chegara viloyat hokimi.

“Zubdatu-t-tavorix”da ham mazkur so‘zning ikkinchi ma’noda qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin: Ul jumladin biri ulkim, Daragaz qo‘rg‘onining hokimi oliyshoni Beklarxonkim, ul havolining *marzbonidurur...* (261<sup>b</sup>). Parchada zikr etilgan Daragaz qo‘rg‘oni Saraxs viloyatida bo‘lib, Eron Xurosoni bilan chegara hududda joylashgan. Mashhur Allohu Akbar

<sup>1</sup> Персидско-русский словарь. Том 2. – М.: Русский язык, 1983. – С.494.

<sup>2</sup> Дадабоев Х. Тарихий харбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 79.

cho‘qqisining shimoliy tarafida joylashgan bu hudud hozirgi kunda ham Turkmaniston Respublikasi va Eron o‘rtasidagi chegarada. Xullas *marzbon* qadimgi Aroxda viloyat hokimlariga berilgan unvon. Dastlab chegaraga yondosh o‘lkaning hokimi *marzbon* deb atalgan. Hozirgi tilda *posbon* – chegarachi ma’nosida ishlatiladi. Tabariy, Balazuriy kabi tarixchilar manbalarida ham *marzbon* so‘zi uchraydi. Suryoniy tilida *marzbano*, *marzabono* tarzida, eski arman manbalarida *marzipan*, *marzvan* shaklida ishlatilgan.

*Posbon* پاسبان so‘zi ham *pos* va *-bon* qismlaridan iborat.

*Pos* پاس so‘zi quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1. Saqlash, qo‘riqlash. 2. Sutka (kecha-kunduz)ning sakkizdan bir qismi, har bir bo‘lagini *posiy* پاسى deyishadi. 3. Navbat.

Mazkur so‘z “Avesto”da *pâthra*, pahlaviyda *pâs*, qadimgi fors tilida *pâsa* shaklida qo‘llangan. *Posning* dastlabki ma’nosiga asosan eski o‘zbek tilida “pos tutmoq” *saqlamoq*, *qorovullamoq*, *qo‘riqlamoq*, *posbon qo‘ymoq* ma’nolarini anglatadi:

Qal’a davrin kechib *tutar edi pos*,

Ko‘nglida biym yo‘q, ichinda haros. (“Sab’ai sayyor”)<sup>1</sup>.

“Zubdatu-t-tavorix”da *posning* ushbu ma’nosi asosida *pos tutmoq* fe’li *hurmat qilmoq*, *hurmat saqlamoq* ma’nosini ham kasb etganini ko‘ramiz: ...Shahzodai davlatpanoh xadivi xurshidkulohning iltimosin *pos tutub*, barcha tarokima ahlining a’yoni va mute’ o‘lg‘on ellarning xonig‘a... ruxsat berdi. (263<sup>b</sup>).

*Posning* kecha-kunduzning bir bo‘lagi ma’nosida Alisher Navoiy manbalarida ham uchratish mumkin:

Urmag‘aysen *posbonlig‘ lofi ko‘k qo‘rg‘onida*,

Voqif o‘lsang, ey ajal, hajrin tuni bir *posidin*<sup>2</sup>.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “bir pas” birikmasida “pas” *posning* ayni shu vaqt bo‘lagi ma’nosidan kelib chiqqan. Bu so‘zning *navbat* ma’nosini ham Alisher Navoiy manbalarida uchratish mumkin:

<sup>1</sup> Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент:2003, – Б. 112.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Мукамал манбаларлар тўплами. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.318.

Ani asrarlar erdi *pos* birla,  
Yo'lida qum to'shab olmos birla<sup>1</sup>.

Ogahiyning tarixiy manbalarida *posbon* so'zining quyidagi ma'nolarda qo'llanganini ko'ramiz.

1. Qo'riqchi, *posbon*:

Bo'lub amnu farog'atning makoni,  
Zuhul har kecha oning *posboni*. (325<sup>b</sup>).

2. Harbiy qarorgoh, xon qarorgohi: ...oq uyluk soruqlardin Jonalibek va Otaniyozbekni ostoni davlat *posboniga* undab, elchi yo'sunlig' soruq muonidlari orasig'a irsol qildi. (293).

*Dandon so'zi*. Bu forscha ot eski o'zbek tilida faol qo'llangan o'zlashmalardandir.

Asli *dandon so'zi* tish ma'nosini ifodalash uchun o'zlashtirilgan hisoblanadi.

Yeng ichida quyildi to'qqiz non

Kulchalar toshki sindirur *dandon*. Muqimiy<sup>2</sup>

Quyidagi misralarda esa hayvon tishining vahimasi mazmunini ifodalagan: "Gurlan akobiri og'a – inilari bila ul guruhi shag'ol ovoyi gurg *dandonning* alolosidin bedor bo'lub, kechada dushmanning qillat va kasratin bila olmay, Xivaq jonibi janobi xulofatmaobg'a faroriy bo'ldilar."<sup>3</sup>

Ammo ko'p holatlarda *dandon so'zi* boshqa so'z, ya'ni sifat o'rnida qo'llanganini kuzatamiz: "... bellariga xanjari burron, olmos nishon qisturdikim, dastasi javohiri noyob va yovoqiti xushob va looliyi serob bila mukalla va murassa bo'lub, har birining qiymati bir jahon xiroji erdi.

Bori dastasi yashmu *dandon bo'lub*,

Safo ichra oynai jon bo'lub. "<sup>4</sup>

Bu baytda *dandon so'zi* aynan tish emas, balki o'tkir tishli xanjar (*dandon sopli*)ni ifodalayapti.

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Илмий-танкидий матн. / Тузувчи: Порсо Шамсиев. – Тошкент, 1963. – Б.153.

<sup>2</sup> Раҳманов В. Узбек классик адабиёти асарлари учун қисқача лугат. Тошкент. Уқитувчи. 1983-Б54

<sup>3</sup> Мунис, Огаҳий . "Фирдавс ул-икбол" , Лейден. 1998.Б. 356

<sup>4</sup> Мунис, Огаҳий . "Фирдавс ул-икбол" , Лейден. 1998.Б. 472

Mazkur soʻzga “oʻzbek tilining izohli lugʻati”da quyidagicha izoh berilgan:1. Tish.Gʻam chekma ,non boʻlib ,yemoqqa dandon boʻlmasa,

Chin musibat budir dandon boʻlib ,non boʻlmasa.

2 Fil tishi,fil suyagidan yasalgan.Tuyalarga... dandon sopli poʻlat pichoqlar,oltin suvi bilan gul solingan egarlar,Hindiston dorivor –zirovorlari ortilgan edi.M.Osim,Elchilar.

3 Shimiladigan qattiq konfet turi.<sup>1</sup>

Hozirgi adabiy asarlar tilida dandon soʻzining aynan tish maʼnosida qoʻllanishi deyarli kuzatilmaydi.Maqol, matal, hikmatli soʻzlar bundan mustasno.

Ish yurishmasa,atala dandon sindirar.(Maqol)

Manbalarda dandon oʻzagiga –a qoʻshimchasini qoʻshish orqali dandana sifati yasalganini kuzatamiz.Dandon oʻzagidagi o tovushi a tovushiga oʻzgarib dandana tarzida talaffuz qilingan va yozilgan,baʼzan tovush oʻzgarishi yuz bermagan holatlarga duch kelamiz.

Dandon soʻzining ham sifat vazifasini bajargan misralarni yuqorida tahlil qilgan edik.Dandan huddi shunday mazmunni,yaʼni tishsimon, tishga oʻxshash,tishga aloqadorlikni bildirgan.

Navoiyda qasr,qala devorlarining yuqori qismiga tishga oʻxshatib yasalgan boʻlak maʼnosida dandona shaklida qoʻllangan.

Qasri ul husn shaxiningerur andoq oli

Ki falak kungurasi qasrigʻa dandona emish.

Xazoyin ul-maoniy.<sup>2</sup>

Navoiy asarlari leksikasida mazkur soʻzning ot oʻrnida tish,oldingi ikki tish,kurak tish maʼnolarida uchratishimiz ham mumkin.

Tishlarimdin ikki dandonaki charx ayladi kam,

Raxnalar boʻldi ajal kirgali,jon chiqqali ham.

---

<sup>1</sup> Узбек тилининг изоҳли лугати.Беш жилдлик.Тошкент. Узбекистон миллий энциклопедияси.2008-Б 540

<sup>2</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати.4 томлик.1-том .Тошкент.1983-Б.450

*Razm so'zi* asli forscha so'z bo'lib ,urush,jang,olishuv ma'nolarini ifodalagan ot sifatida eski o'zbek tili asarlarida uchramiz.

Bahodirlar iki tarafdin surub,  
G'azab barqig'a dahrni kuydurub.  
Oningdek suron soldilar razm aro,  
Ki ot gardi qildi jahonni qaro.<sup>1</sup>

Vaqt o'tishi bilan razm oti ma'no torayishiga uchrab ,diqqat bilan razm solmoq,qaramoq mazmunidagi fe'lga aylangan.  
O'zbek tilining izohli lug'atida razm asli jang ma'nosidan tashqari razm solmoq ,razm solib qaramoq, nazar solmoq , sinchkovlik bilan kuzatmoq kabi ma'nolarda izohlanadi.

Navoiy asarlarida ham jang ma'nosini ifodalashini kuzatamiz:

Razm aro barqi tig'i olamso'z  
Hazm aro shami shami royi mehrafro'z

“Sabbai sayyor”

Razm o'zagi asosida yasalgan razmgoh- jang maydoni va razmsoz- jangchi so'zlari ham serunum qo'llangan o'zlashmalardandir.

Bu yanglig' sipoh boshlabon ikki shoh  
Ki bir kunchilik qoldi yo'l razmgoh

“Saddi Iskandariy”

Tuman ming qonning o'lsam razmsozi,  
Sening qoninig'a bo'lg'aymu muvozi<sup>2</sup>  
Hozirgi o'zbek tilida bu so'zning qaramoq mazmunidagina qo'llanishini kuzatamiz.

---

<sup>1</sup> Мунис, Огахий . “Фирдавс ул-икбол” , Лейден.1998.Б.150

<sup>2</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати.4 томлик.2-том .Тошкент.1983-Б.599

Eroniy qatlamga mansub o‘zlashma so‘zlar tizimida mustaqil so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘lgan so‘zlar ham uchraydi. Bunday so‘zlarning tarkibini arabcha va forsiy (*tahniyatnoma, aroyiznoma, fathnoma* kabi), forsiy va forsiy (*poytaxt, sipohsolor* kabi), turkiy va forsiy (*ko‘runishxon*a kabi) asoslar tashkil qiladi.

Ko‘rinadiki, eroniy qatlamga mansub o‘zlashma so‘zlarga oid so‘zlarning tarkibiy tahlili ham turkiy va eroniy (xususan, fors, tojik, dariy) tillarining birbirlariga samarali ta‘sirini ko‘rsatuvchi muhim faktlar taqdim etadi.

### **3.2. Arab lug‘aviy qatlamiga xos o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy tahlili**

Qiyosiy aspektdagi kuzatishlar arabcha va forscha-tojikcha o‘zlashmalarning ijtimoiy ,iqtisodiy , siyosiy, diniy, madaniy va hayotning turli qirralarida mavjud tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilganligini ko‘rsatadi.O‘zlashmalarning ko‘lamini aniqlash ularni mavzuiy guruhlar bo‘yicha tasnif qilinganda yaqqol namoyon bo‘ladi. “Zubdatu-t-tavorix”dagi o‘zlashma so‘zlar tizimida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar ham ko‘plab uchraydi.

Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarni yasaliş xususiyatiga ko‘ra dastavval quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin:

1. Tub so‘zlar.
2. Yasama so‘zlar.

Tub so‘zlar faqatgina bir so‘zdan tashkil topadi. Masalan, *mazhab, xiroj, amir* va hokazo. Ogahiyning tarixiy manbalaridan bunga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Lekin shuni alohida ta‘kidlash lozimki, biz o‘zbek tili nuqtai nazaridan sodda so‘z sifatida qabul qiladigan so‘zlarning aksariyati aslida yasama bo‘lib, arab tilidagi ichki fleksiya qoidalari asosida yuzaga kelgan. Ular o‘zbek tiliga tayyor leksema sifatida qabul qilingan, demak, ularga sinxron aspektda sodda so‘z sifatida qarashga haqlimiz. Tarixiy nuqtai nazardan esa biz sodda deb qabul qilgan so‘zlarning aksariyati yasama hisoblanadi. Ularning

tarkibiy tahlilini arab tilining ichki fleksiya qonuniyatlariga asoslanmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Bundan tashqari eski o‘zbek manbalarida arabiy o‘zlashmalarni shu tarzda tahlil qilish manbalar muallifining o‘zlashmalarni qo‘llash sababi, sinonimlardan foydalanish mahorati kabi jihatlarni yoritishga xizmat qiladi. Muhimi, tahlilni bu tarzda olib borish o‘zbek tilidagi arabiy o‘zlashmalarning etimologiyasiga oid ayrim chalkashliklarga barham beradi

Manbalardagi ba’zi arabiy so‘zlarga turkiy va forsiy old qo‘shimchalar qo‘shish orqali sinonimlar hosil qilinadi. Masalan, nihayatsiz (ar. + turk.), g‘ayatsiz (ar. + turk.). “Nihoyat” so‘ziga be- بی (foriy) old qo‘shimchasini qo‘shish orqali *benihoyat* so‘zi hosil bo‘ladi. Qizig‘i shundaki, “g‘oyat” so‘ziga “-siz” affiksining aslida antonimi bo‘lgan bā - با (foriy) old qo‘shimchasi qo‘shilganda (*bag‘oyat*) shu ma‘noni, ya‘ni g‘oyatsiz, ko‘p degan mazmuni beradi. Bu sinonimik qator Ogahiy tilida *bepayan*, *bekaran* (foriy + forsiy), *faravan* (forsiy), *adaqsiz* (turkiy) so‘zlari bilan boyiydi. Misollarga e‘tibor qarataylik: ul jamoaning xirmani jam‘iyatin tafriqa havosig‘a sovurub, *g‘oyatsiz* amvolu *nihoyatsiz* ashyoni o‘lja qilib, muovadat etdilar va rajab oyining avositida mulozamatg‘a etib, mashmuli marohimi xusravona bo‘ldilar. (135-b.). Manozili *bepoyon* va bavodiyi *bekaron* qat‘idin so‘ng Rafatak yo‘lig‘a vorid bo‘ldilar. (158-b.).

Ma‘lumki, arab tilida fe‘l nihoyatda muhim so‘z turkumi hisoblanib, ko‘pgina ismlar ham fe‘ldan hosil bo‘ladi. Bu holni o‘zbek tiliga o‘zlashgan tarixan arab leksik birligi hisoblangan so‘zlarning yasaliş xususiyatida ham ko‘rishimiz mumkin. Quyida ulardan har biriga kiruvchi so‘zlarning leksik-semantik jihatlarni ko‘rib chiqamiz:

Diplomatik mazmundagi so‘zlardan biri bo‘lgan *sulhnoma* mazkur so‘zga forsiy *noma* affiksoidi qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan va o‘zaro tinchlik bitimi ma‘nosini anglatadi. Masalan, ....amir Haydar podshohning mulosaha talabi bila yuborgan *sulhnomasin* sohibqironi jannatmakonning hangomi vafotida kelturub erdilar, alarni ko‘runushxonai humoyung‘a undab, kelturg‘on *sulhnomalarin* mulozimlar vositasi bila nazari anvori mutolaasi sharafig‘a

musharraf qilib, amir Haydarning *sulh* talabi bobida qilg'on iltimosin mabzul tutib, (elchilarga) ruxsat berdi. (255<sup>b</sup>).

Diniy-iqtisodiy mazmundagi *ushr* عشر ham *fu' l* فُعْل qo lipida yasalgan. Eron, Buxoro amirligi va boshqa ba'zi joylarda forscha *dahyak* - o'ndan bir so'zi bilan ham ifodalangani ma'lum. Bu mazmun *ushr* so'zining o'zagi *ashr* - عشر - "o'n" so'zida mavjud. *Ashara* عشر fe'li o'nta bo'lmoq; *ushr olmoq* ma'nolarini anglatadi<sup>1</sup>. *Ushr* so'zi o'zbek adabiy tilidagi *muashshar* (har bandi o'n misrali mumtoz she'r shakli), *ashuro* (muharram oyining o'n kuni) so'zlari, shuningdek, Ashur//Ashir antroponimlari bilan o'zakdoshdur.

Ogahiyning tarixiy manbalaridan ham *ushr* so'zi diniy-iqtisodiy mazmun kasb etgan holda faol qo'llanilgan. Masalan, (qoraqalpoqlar) amiri kabir Muhammadamin inoq ruhulloh ruhahuning dargohi falakishtibohida yuz ming ajzu inkisorlig'lar bila *ushru* zakotlarin bermakchi bo'lub, Xorazm mamolikining bir tarafidin er va yurt tiladilar. (279<sup>b</sup>).

. Masalan, *alam* علم so'zi *fa'al* فعل qolipida yasalgan so'zlardan hisoblanadi. *Harbiy bayroq, tug', parcham* ma'nolaridagi bu so'z harbiy mazmundagi o'zlashma so'zlarga mansub hisoblanadi. Harbiy bayroqni muqaddas tutish, uni qo'shinning or-nomusi timsolida bilish ajdodlarimizdan meros vatanparvarlik an'analaridan hisoblanadi. *Alam* so'zi *alama* علم nishon qo'yimoq, *belgilamoq* ma'nosidagi fe'ldan hosil bo'lgan<sup>2</sup>. Mazkur so'zning ism ma'nosi uchun ham xuddi shu mazmun asos hisoblanadi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, har bir lashkarboshi o'zining alamiga ega bo'lgan. Buni quyidagi misolda ham ko'rish mumkin: ...bu vasflig' umaro va sipohdorlar atrof javonibdin favj-favj va guruh-guruh tillo mahcha livolar va zarrin shuqqa *alam*larni jilvagar qilib, savlati tamom va shavkati molokom bila kelib... saf tuzub o'lturdilar. (265<sup>a</sup>).

Mumtoz adiblarimiz tilida *alam* so'zi, asosan, ikki xil ma'noni anglatadi. *Ranj, alam, ozor, o'kinch* ma'nolaridagi *alam*ning yozilishi eski o'zbek imlosida yuqoridagi *alam*dan farq qiladi, ya'ni undagi *a* unlisi alif harfi á orqali

<sup>1</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С. 576.

<sup>2</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С. 834.

ifodalanadi. Shuningdek, *alam chekmak* yoki *alam tortmoq* qo‘shma fe‘llarini eski o‘zbek imlosida qanday yozilishini e‘tiborga olmasak, matn mazmuniga ko‘ra ikki xil anglash mumkin: 1) ozorlanmoq, o‘kinmoq; 2) qo‘shin tortmoq, lashkar surmoq<sup>1</sup>. Masalan, Alisher Navoiyning mashhur

Turk nazmida chu men tortib *alam*,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam

baytida *alam chekmak* fe‘li *tug‘ tutmoq*, *bayroq ko‘tarmoq* ma’nosida qo‘llanganini ko‘ramiz.

*Alvon so‘zi*. “Itoati amri parvardigor saning ontindin yuqoriroqdur. Va bir ovuch muxtalif ul-**alvon** tufroq yer yuzidin olib, behishtg‘a kiyurdi”<sup>2</sup>

Bu so‘z asli arabcha so‘z bo‘lib, qizil tusli, qip-qizil, qirmizi degan ma’nolarni bildirgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qizil alvon –sidirg‘a qizil ip gazlama, qizil rangli mato, xilma –xil, turli –tuman, rang –barang ma’nolarni bildiradi. Asarlarda alvon so‘zining turli –tuman, xilma-xil ma’nolarida ifodalanishini ham uchratishimiz mumkin.

“Yoyib shoh-u xaloyiq oldida xon,  
Chekib turluk taom – **alvon** – **alvon**.

Muhayyo meva qandalot birla,

Bori parvarda yuz lazzot birla.”

“Bog‘i nazohatda jinon g‘ayrati,

Har shajari sarviravon g‘ayrati,

Behad edi mevai **alvon** onga,

Teng bo‘la olmay mazai jon onga.”<sup>3</sup>

*Falak so‘zi*. Asli arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib eski o‘zbek tilida osmon, osmon gumbazi ma’nolarini ifodalagan.

“Haram sori bir kun Qoraxon kirib,

O‘g‘ul yotg‘on uy ichra pinhon kirib.

Beshik ichra o‘g‘lini ko‘rdiki, oy,

<sup>1</sup> Алишер Навоий манбалари тилининг изоҳли луғати. 1- жилд. – Тошкент: Фан, 1983. –Б. 75.

<sup>2</sup> Мунис, Огахий . “Фирдавс ул-икбол” , Лейден.1998.Б.17

<sup>3</sup> Мунис, Огахий . “Фирдавс ул-икбол” , Лейден.1998.Б.414

Hamonoki, tutmish falak uzra joy”<sup>1</sup>

Mumtoz adabiyot namunalarida,xususan, Navoiyda falak-osmon ,ko‘k ma’nosi bilan birga taqdir, baxt, tole kabi ko‘chma ma’nolarini uchratamiz.

“Kirmish qaro tuproqqa quyoshdek shohim

Nevchun qaroqilmasun falakni ohim”<sup>2</sup>Bu misralarda falak so‘zi osmon ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa ,quyidagi baytda taqdir ma’nosida :

“Ne ko‘nglim qoldi,ne bag‘rim yarosiz,

Falak toshini har yonima otdi”<sup>3</sup>

Navoiy asarlari leksikasida falak o‘zagi asosida yasalgan bir qator yasama so‘zlarni uchratishimiz mumkin.Masalan:

Falakvash-osmonga o‘xshash, osmon singari,

Falakvor-osmondek,

Falakjoh-yuksak martabali

Falakishtiboh-falakka o‘xshash oily darajali dargoh,

Falakmonand-ko‘k kabi

Falakona-yuqori yuksak

Falakpayvand-osmonga ulashgan

Falakpaymon-osmonda yuruvchi

Falakrav-falakday tez yuruvchi

Falaksarir-baland taxtli

Falakso||Falaksoy-osmono‘par

Falaksurat-tezlik,chaqqonlik kabi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida juda baland,yuksak kabi ma’nolari bilan birga dabdabali, balandparvoz, taqdir, qismat, ko‘rgulik kabi ko‘chma ma’nolarni ham ifodalaydi.

“Men o‘zim bu falakning dastidan najot izlayman,begim...”

( Pirimqul Qodirov,Yulduzli tunlar.)

<sup>1</sup> Мунис, Огахий . “Фирдавс ул-икбол” , Лейден.1998.Б.312

<sup>2</sup> Алишер Навоий .Асарлар.Ўн беш томлик.2-том-Тошкент:Адабиёт,1966

<sup>3</sup> Алишер Навоий .Асарлар. Ўн беш томлик.2-том-Тошкент:Адабиёт,1963

*Amvol so‘zi.*”*Firdavs –ul iqbol*”da mol –dunyo ma’nosida ishlatilgan.

“Kunxon Arqalxojaning rayin qabul qilib, ulug‘ quroltoy tuzdi. Arqalxoja O‘g‘uzxondin qolg‘on viloyat, xazoyin va amvolni shahzodalarga ulashtirdi.”<sup>1</sup>

Bu so‘z arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib , eski o‘zbek tilida xususiy shaxsga tegishli mol-mulk ,boylik ma’nosida ishlatilgan.

Mumtoz adiblar leksikasida mollar,ashyolar ma’nosida qo‘llanganini uchratamiz.

“Kemalarni qirg‘oqqa bog‘lab rust

Xalq-u amvolini chiqardi durust.”<sup>2</sup>

Amvol so‘zi bilan bir qatorda, huddi shu ma’noni ifodalovchi amlok so‘zi ham unumli o‘rin egallagan.

Mulk manosini ifodalovchi asli arabcha *amlok so‘zi* faol o‘zlashmalardandir.

“Ham avqofni sadri amlok etib

Vale ko‘pragin may uchu tok etib”

O‘zbek tilining izohli lug‘atida amlok so‘zi quyidagicha izohlangan:1.Yer-mulk,yer-suv,hovli-joy,bog‘-rog‘ .

2.Amlok ro‘zg‘or-ro‘zg‘or mulklari.3.Buxoro xonligida yer- mulkdan o‘lpon olish uchun ajratgan har bir kichik ma`muriy xududiy bo‘linma.<sup>3</sup>

Asarlarni kuzatish asnosida shunga guvoh bo‘lamizki amlok o‘zagiga forsha qarashlilikni ifodalovchi –dor qo‘shimchasini qo‘shish orqali amlokdor so‘zi (shaxs oti)yasalgan. Amlokdor- amlok egasi,ya’nimulk egasi tarixiy asarlarda esa yer egasi va o‘lpon yig‘uvchi shaxsni ifodalovchi holatlar kuzatiladi.

“Mehmonxonaning to‘rida... qozi,amlokdor ,rais va mirshab,ya’ni tumanning chor hokimi o‘tirar edilar.”(Sadridin Ayniy.Qullar)

*Fath* ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etganda *biror o‘lkani, mamlakatni bosib olish, zabt etish* degan ma’noni anglatadi. Shuning uchun ham biror mamlakat yoki shaharni zabt etgan lashkarboshi *fotih* (ochuvchi) deyilgan. Bu

<sup>1</sup>Мунис, Огахий . “Фирдавс ул-икбол” , Лейден.1998.Б.7

<sup>2</sup> Алишер Навоий .Асарлар. Ўн беш томлик.2-том-Тошкент:Адабиёт,1963

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изохли лугати.Беш жилдлик.Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.2008-Б 79

soʻz *ochmoq* maʼnosidagi *fataha* فتح feʼlidan hosil boʻlgan. Arab tilida *faʼala* فَعَلَ qolipidagi oʻtimli feʼl masdarlarining koʻpchiligi *faʼl* qolipida hosil boʻladi<sup>1</sup>.

Siyosiy hujjatlardan biri hisoblangan *fathnoma* esa biror davlat qoʻshinining boshqa bir hududni zabt etganligi haqidagi yozma axborot maʼnosini ifodalaydi. Masalan, Xoʻjanazarbek va Qurbonnazar sardorgʻa *fathnoma* berib, bashorat uchun Muhammadxon sardor qaroyi tarfigʻa irsol qildi (275<sup>b</sup>) yoki ...qudrati ilohiy bila oʻrus podshohining zamirigʻa Eron mamlakati *fathining* havosi tushub, azim lashkar tartib berib, toʻpu toʻpxona bila Temur qopu yoʻlidin Eron sori yibordi.

Arab tilida birinchi bob feʼllaridan baʼzan *fuʼlatun* فعلة qolipida ham masdarlar yasaladi. Maʼlumki, ta-marbuta – ة bilan tugagan aksar arabiy soʻzlar oʻzbek tilida *a* unlisi bilan talaffuz qilinadi. Mansab nomlaridan biri boʻlgan *umda* عمده ham mazkur qolip asosida yasalgan.

Shuningdek, Ogahiyning tarixiy manbalarida uchraydigan baʼzi soʻzlar uch undoshli feʼllarning sifatdosh shakllaridir. Sifatdoshlar feʼldan hosil boʻlgan va oʻzida ham feʼllik, ham sifatlik xususiyatlarni mujassamlantirgan soʻzlardir. Arab tilida sifatdoshlar barcha zamonlar uchun bir xil shaklga ega<sup>2</sup> boʻlib, ikki xildir: aniq nisbat sifatdoshlari va majhul nisbat sifatdoshlari.

Aniq nisbat sifatdoshlari uch undoshli asliy (I bob) feʼllardan foʻil فاعل vaznida hosil boʻladi va feʼlda ifodalangan ish-harakatning bajaruvchisini anglatadi. Bu xil sifatdoshlar koʻpincha otlashadi va otga xos barcha xususiyatlarni qabul qiladi. Masalan, *fataha* فتح - ochmoq feʼlining aniq nisbat sifatdoshi *fotih* aynan ochuvchi degani boʻlib, *fotih*, *zabt etuvchi* maʼnolarida otlashadi.

Ogahiyning tarixiy manbalaridagi oʻzlashma soʻzlarga mansub soʻzlar ichida aniq nisbat sifatdoshi shaklidagi soʻzlardan biri *omildir*. Mazkur soʻz soliq yigʻuvchi lavozimidagi kishi maʼnosini anglatib, Movarounnahrda keng qoʻllanilgan. Omil xizmatchi yoki amaldor maʼnosida tarixiy manbalarda koʻp

<sup>1</sup> Мусоқулов Р. Араб тили – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.– Б.123.

<sup>2</sup> Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент, 1997. – Б.147.

uchraydi<sup>1</sup>. Bu soʻzning oʻzagi ishlamoq maʼnosidagi *amila* **عَمِلَ** feʼlidir. Mazkur feʼlning bundan tashqari *boshqarmoq*, *rahbarlik qilmoq* mazmuni ham boʻlib, bizningcha, soʻzning yuqoridagi mazmuni asosida ushbu maʼno yotadi<sup>2</sup>. Shunga koʻra *omil* soʻzi ham bir necha maʼnoga ega. Ishchi maʼnosidagi omilga mazkur feʼlning ishlamoq; zakot yigʻuvchi, hokim, gubernator (Shimoliy Afrikada) maʼnolarga esa boshqarmoq mazmunlari asos boʻlgan. Bundan tashqari *omil* soʻzi (bunda koʻplik *avomil*) arab grammatikasi atamalaridan biri sifatida “soʻzlarning bogʻlanish sababi”ni anglatadi<sup>3</sup>.

“Zubdatu-t- tavorix”da *omil* soʻzi zakot yigʻuvchi mansabdor maʼnosida ishlatilgan. Masalan, ...zakot axzi uchun *omillar* va ul amal ulumigʻa komillar yiborib... ( 262<sup>b</sup>).

Omillar zakot yigʻuvchi yoki xiroj yigʻuvchi ekanligiga qarab *omili zakot* va *omili xiroj* deb ham farqlangan<sup>4</sup>.

Tarixiy soʻzlardan biri boʻlgan *muhassil* **مَحْصُل** ham zakot ishlariga masʼul shaxs maʼnosini ifodalaydi. *Muhassil* soʻziga “Muntaxab ul-lugʻot”da “hosil qiluvchi” deb izoh berilgan. *Muhassil*, lugʻaviy maʼnosidan anglashilicha, qishloq xoʻjalik sohasida soliq ishlari bilan shugʻullangan. B.Ahmedovning yozishicha, “...oʻlpon va oliq-soliq ishlarini zakotchi va *muhassillar*... ado etganlar”<sup>5</sup>. Shuningdek, Amir Temur davlatida hosilga qarab xiroj miqdorini belgilab beruvchi *qalaqchi* mansabi ham boʻlgan<sup>6</sup>.

Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarni yasalish xususiyatiga koʻra tasnifida ularning oʻzagini tashkil etuvchi harflar xususiyatiga koʻra ham tasnif qilgan holda oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Arab tilidagi feʼl oʻzaklari tarkibidagi harflar xususiyatiga koʻra etti guruhga ajratiladi: sahih (toʻgʻri), muzoaf, misol, ajvaf, noqis, lafif, multaviy.

<sup>1</sup> Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.86.

<sup>2</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С.541.

<sup>3</sup> Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент, 1997. – Б. 424.

<sup>4</sup> Мухтманбалар. Араб тилидан Р.Зоҳид ва А.Деҳқон таржимаси. – Тошкент: Чўлпон: 1993. –Б.63; Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.87.

<sup>5</sup> Темур тузуқлари / Таржимонлар: А.Соғуний ва Х.Кароматов. Сўз боши муаллифи Бўрибой Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б.12.

<sup>6</sup> Темур тузуқлари.– Тошкент: Шарқ, 1996.– Б.89.

Biz yuqorida sahih (to‘g‘ri) fe‘llar asosida hosil bo‘lgan so‘zlar xususida gapirgan edik. Endi tasnif doirasida noto‘g‘ri fe‘llar asosida hosil bo‘lgan ba‘zi so‘zlar xususida so‘z yuritsak.

Hamzali fe‘llar va ular asosida yasalgan so‘zlar. Hamzali fe‘llar o‘zagi tarkibida hamza ishtirok etadi va bu hodisa an‘anaviy arab grammatikasida mahmuz deb yuritiladi. Boshqacha qilib aytganda, hamzali fe‘llarning uch o‘zak undoshidan biri illat harflar – “alif”, “vov”, “yo”dan biri bo‘ladi.

Birinchi o‘zak undoshi hamzadan iborat fe‘llar misol **مثال** fe‘llar deyiladi. Misol fe‘llarining ko‘plab morfologik shakllari (qoliplarga tushishi) to‘g‘ri fe‘llar kabi bo‘lgani bois shunday (o‘xshash, monand) deb nomlanadi. Shuning uchun ham misol fe‘llar hozirgi arab tili darsliklarida solimsifat fe‘llar (N.Ibrohimov va M.Yusupov) va to‘g‘riga o‘xshash (E.Talabov) atamaları bilan ifodalangan<sup>1</sup>.

Misol fe‘llar asosida yuzaga kelgan so‘zlarni Ogahiyning tarixiy manbalarida ko‘plab uchratishimiz mumkin. Shulardan biri *amir*dir.

*Amir* **امير** *amaro* -**أمر** - buyurmoq, farmoyish bermoq fe‘lidan hosil bo‘lgan bo‘lib, *buyuruvchi, farmonravo* ma‘nolarini ifodalaydi<sup>2</sup>.

Tarixiy so‘z sifatida *amir* bir necha ma‘noni bildiradi:

1. Davlat tuzumi amirlik (amorat) bo‘lgan davlatning boshlig‘i, monarxi. Masalan, Buxoro amiri. “Zubdatu-t-tavorix”da o‘qiymiz: ...*amir* Haydar(ning) qarindoshlaridin Farmonqulibekning o‘g‘li Abdukarim- bekkim, alarni chovdar xalqi Buxoro lashkarlarig‘a g‘olib bo‘lub, asir keltirmish erdilar va to‘rt yildin beri asorat qaydig‘a giriftor erdilar... (20-bet.)

2. Amorat – hokimlik, bekklik, lashkarboshilik mansabi sohibi<sup>3</sup>. “Zubdatu-t-tavorix”da *amorat* so‘zi aksar holda *beklik* so‘zining sinonimi sifatida qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. *Amir* so‘zining ko‘pligi *umaro* **امراء** bo‘lib, Ogahiyning tarixiy manbalarida davlatning yuqori mansabli kishilari, beklar kabi ma‘noni ifodalaydi. Masalan, ...yana ulkim, saltanat umuri ehtimomi

<sup>1</sup> Арабско-русский словарь. – С. 43-44.

<sup>2</sup> Арабско-русский словарь. – С. 43-44.

<sup>3</sup> Алишер Навоий манбалари тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. – Тошкент, 1983. – Б.88.

va ahli sipoh ahvoli intizomig‘a partavi iltifot solib mazkur bo‘lg‘on safarda nobud bo‘lg‘on *umaro* va ummolning o‘g‘li va inisin davlatxohlig‘ va qadimul-xidmatlig‘ huquqin rioya qilib va iltifoti mashmul etib, mansablarig‘a mansub qildi. (114-b.)

*Amorat* so‘zi *amir* bilan o‘zakdosh va bu hol har ikkala so‘zning ma’nolarida ham ko‘zga tashlanadi. *Amorat* so‘zi faqat bekklik, amirlik mazmunigina emas, siyosiy tuzum ma’nosidagi amirlik ma’nosini ham ifodalaydi. “Zubdatu-t-tavorix”da esa, yuqorida aytilganidek, mansab nomi sifatidagina uchraydi. Masalan, ...Avaz inoq *amorat* va inoqiyat mansabin o‘z xohishi bilan tark tutib... (263<sup>b</sup>).

*Amir* so‘zi ba’zan qisqargan holda *mir* shaklida ham qo‘llanilgan. Masalan, Amir Alisher Navoiy – Mir Alisher Navoiy. Amirning qisqartma shakli *miroxur*, *mirshikor*, *mirob* kabi so‘zlar tarkibida ham mavjud<sup>1</sup>.

Amir komponentli yana bir so‘z bu *amir ul-umaro* aynan amirlar amiri degani bo‘lib, ikki arabcha so‘zning arabiy izofa orqali birikishidan hosil qilingan va yuqori davlat lavozimlaridan birining nomidir. Mazkur so‘zni Amir Alisher Navoiy, Abulg‘ozi Bahodirxon manbalarida ham shu ma’noda uchratishimiz mumkin: ...Mir Husayn Ali Jaloyir... Ali Jaloyirning o‘g‘lidurkim, otasi YOdgor Mirzo eshigida amir ul-umarodir<sup>2</sup>.... Tug‘luq Temurxonni xonliq mansabida o‘lturg‘uzib erdi. O‘zi *amir ul-umaro* erdi<sup>3</sup>.

Xiva xonligida amirul-umaro *biy* deb nomlangan. “Zubdatu-t-tavorix”dagi ushbu parcha shundan dalolat beradi: Rahmonberdi to‘rakim, holo *biylik*, ya’ni *amir ul-umaroliq* mansabi oning gavhari vujudi bila muzayyan va mo‘‘tabardurur... (277<sup>b</sup>).

*Asir* so‘zi ham siyosiy ma’no kasb etib, jangda yoki biror yo‘l bilan qo‘lga olingan, o‘z erkinligini yo‘qotib, g‘olib tomon ixtiyoriga o‘tgan shaxs ma’nosini ifodaydi. Mazkur so‘zning o‘zagi *manbalara* *أسير* *tutmoq*, *asirga olmoq* fe’lidir<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 1999. – Б.77; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент, 1987. – Б.133.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Илмий танқидий матн. / Тузувчи: С.Ғаниева. – Тошкент, 1961. – Б.148.

<sup>3</sup> Абулғози Баходирхон. Шажараи турк. – Тошкент, 1992. – Б.93.

<sup>4</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С. 34.

Masalan , ...yana bir bo‘lak G‘uryong‘a ozim va baluj ahlining nahb va qatlig‘a jozim bo‘lub, ul diyor ahlining barcha amvolin dastgir va xonining ayol va atfolin *asir* qilib, farahi tamom bila keldilar (262<sup>b</sup>) yoki ... har favje necha karat qizilbosh ahlin *asir* va g‘orat qilib, barchasi xushhol bo‘lub, haddin afzun mol bila kelur erdilar. (262<sup>b</sup>).

*Asir* so‘zining siniq ko‘pligi *usaro* اسرا bo‘lib, u fu‘alo فعلا vaznida hosil bo‘lgan. Masalan,...yana bir favj Sabzavor tarafig‘a ilg‘or etib va ul diyor ahlin toru mor qilib, *usaroyi* beshumor bila yondilar. (262<sup>b</sup>).

*Asir*, *usaro* so‘zlari bilan o‘zakdosh *asorat* so‘zi ham mavjud bo‘lib, u asirlik, bandilik, erksizlik degan ma‘noni anglatadi. “Zubdatu-t-tavorix”da ko‘p uchraydigan “asorat qaydi” birikmasi “asirlik zanjiri”, “bandilik tuzog‘i” degan mazmunga ega. Masalan, ...islom ahli qizilboshlarg‘a hamla qilib, hamul qal‘ani musaxxar etdilar. Va qal‘a ahlin *asorat* qaydig‘a chekib, mol va mavohisin mutresi muallog‘a etkurdilar. (58-b.)

O‘zbek tilida *asorat* shaklidagi ikkita so‘z bo‘lib, mazkur omonimlar anglatgan ma‘nolari bilangina emas, balki o‘zak e‘tibori bilan ham farqlanadilar: 1. Asorat اسارت – tutqinlik, qullik, erksizlik holati. 2. Asorat اثارت – bo‘lib o‘tgan (voqea-hodisa va h.k.)ning qoldig‘i, izlari (shu o‘zakli so‘zlar: *manbalar* – manbalar ham qolmadi, *osor* – osori atiq, ta‘sir, taassurot)<sup>1</sup>.

Demakki, eski o‘zbek yozuvida bu ikkala so‘zdagi *s* arab tilida س va ث bilan ifodalangani bois, omograf hisoblanmaydi.

*Vazir* so‘zi hukmdorning yaqin siyosiy maslakdoshi va ko‘makchisi mazmunida oliy martaba egasi va davlat ishlarining muayyan bir sohasini boshqaruvchi shaxs ma‘nolarini kasb etadi: (yana) *vaziri* osafhunar Muhammad Yusuf mehtar navvara marhamdaning inisi jur‘atnamoy, shijoatnamoy Niyozmuhammadboy... xunafshonlig‘ osmonining Bahromi va jonsitonlig‘ maydonining zirg‘omi erdilar. (256<sup>b</sup>). *Vaziri a‘zam* birikmasidagi a‘zam eng ulug‘, eng katta ma‘nosini beradi. Masalan, ...hamul mav‘eda to‘pxonai zafarnishona, barcha asbob va olat bila vaziri a‘zami dasturi mukarram, mushiri

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Б.22.

mo‘tabar Muhammad Yusuf mehtarg‘a topshurilibdurur, tokim qat‘ida hirosat ko‘rguzgay va borgohi humoyun va urduyi maymun saranjomi amoratpanoh, *vizorat* dastgoh amiri saodat intimo Muhammadrizo qushbegiga tafviz topdi.(269<sup>a</sup>). *Vazirning* hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ma’no taraqqiyoti xususida A.Mo‘minova batafsil so‘z yuritgan<sup>1</sup>.

*Vakil* وكيل *vakala* وكل – *ishonmoq, tayanmoq* fe‘lidan *fa‘il* فعيل vaznida hosil bo‘lgan<sup>2</sup> va xonning ma’lum imtiyozga ega bo‘lgan ishonchli odami, vakolatli shaxs.

*Vakil* so‘zining o‘zakdoshi bo‘lgan *vakolat* so‘zi bilan bog‘lab izohlash o‘rinlidir. “Zubdatu-t-tavorix”da yozilishicha, Eronga yurish chog‘ida shahzoda Rahmonquli xon nomidan ish ko‘rish vakolatiga ega bo‘lgan. Masalan: ...hazrat a’lo hoqoni gitisiton ul shahzodai soadatnishong‘a altofi podshohona va a’tofi xusravona bila bahramand va arjumandlig‘ etkurib, o‘z tarafidin *vakil* va sipahsolor qilib, kuffori badkirdor g‘azotig‘a nomzod qildi. (255<sup>b</sup>).

Uchinchi asliy harfi illat harf bo‘lgan fe‘llar noqis sanaladi<sup>3</sup>. Ogahiyning tarixiy manbalarida noqis fe‘llar asosida hosil bo‘lgan ba’zi so‘zlarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, *g‘oziy* so‘zi.

Mazkur so‘z arabcha *g‘aza* غزي – *hujum qilmoq, egallamoq* fe‘lidan hosil bo‘lgan bo‘lib, aqsom bo‘yicha noqis (oxirgi o‘zagi illat harf) bo‘lgani bois uning aniq nisbat sifatdoshi yasalishida tovush o‘zgarishi hosil bo‘ladi. Ya’ni, noqis fe‘llarning aniq nisbat sifatdoshi uning butunlay tushirib qoldirilib, o‘rniga “tanvin kasra” qo‘yish bilan hosil qilinadi. Lekin sifatdosh aniq holatga kelganida tanvin yo‘qolib, o‘rniga ي i harfi orttiriladi<sup>4</sup>. Demak, *g‘aza* fe‘lidan *g‘ozi* غازي hosil bo‘ladi va u aniq holatda الغازي *alg‘ozi* shaklini oladi. O‘zbek tilida holat kategoriyasi bo‘lmagani bois u *g‘oziy* shaklida o‘zlashgan.

*G‘oziyning* lug‘aviy ma’nosi ismi fo‘il anglatgan ma’noga ko‘ra “egallovchi”dir. *G‘oziy* “islom dini uchun g‘ayri dinlarga qarshi muqaddas urush

<sup>1</sup> Мўминова А. Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2000. – Б.29-33.

<sup>2</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С. 900.

<sup>3</sup> Жаноҳ ут-толиб. Араб тили сарф фанидан дарслик. – Тошкент: Мовароуннахр, 2004. – Б.39.

<sup>4</sup> Араб тили грамматикаси. – Б.150.

– g‘azovot ishtirokchisi. Shariatga ko‘ra bunday urushda oti va qurol-yarog‘i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo‘lgan. Kambag‘allar, qullar, nogiron va keksa kishilar bundan ozod etilgan”<sup>1</sup>. Ogahiy shahzoda Rahmonquli To‘raning Mashhadga hujumi borasida yozadi: Ul mav’eda kuffori fujjorning nahb va g‘orati uchun atrof javonibg‘a ma‘mur bo‘lg‘on g‘oziylarkim, ro‘zg‘or shuja‘osining sarafroz va mumtozi erdilar, guruh-guruh o‘z sarkardasi bila bir tarafg‘a ilg‘or qilib erdilar. (297<sup>b</sup>). *G‘oziy* bilan o‘zakdosh *g‘azot* yoki *g‘azovot* so‘zlari “din uchun kurash, islomda g‘ayridinlarga qarshi musulmonlarning muqaddaslashtirilgan urush”dir.

*G‘ozi* hozirda keng iste‘molda emas. Bu so‘z *G‘ozi*, *G‘ozgon*, *G‘oziboy* tarzlarida antroponimlarga ham asos bo‘lgan<sup>2</sup>.

*Bog‘iy* so‘zi. Mazkur so‘z siyosiy ma‘no kasb etib, “musulmonlar podshohiga itoatdan va bo‘ysunishdan bosh tortgan musulmon kishi” degan ma‘noni anglatadi<sup>3</sup>. Shariat qonun-qoidalarida bog‘iylarga munosabat me‘yorlari ham belgilab berilgan<sup>4</sup>. Bu so‘z negizida *talab qilmoq*, *qabih ishlar qilmoq* ma‘nosidagi *bag‘o* بغي fe‘li yotadi<sup>5</sup>. Mazkur so‘zning yuzaga kelishi uchun mazkur fe‘lning *buzg‘unchilik qilmoq* ma‘nosi asos bo‘lgani ehtimolga yaqin. Ogahiy ham *bog‘iy* so‘zini shar‘iy ma‘noda qo‘llaydi.

Ko‘rinadiki, Ogahiyning tarixiy manbalarida qo‘llanilgan arabiy asosli o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy tahlili ularning ma‘no taraqqiyotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Bobda keltirilgan faktik materiallar asosida quyidagicha xulosalarni bayon qilish mumkin:

1. Eroniy qatlamga mansub so‘zlarning aksariyati tarixan yasama bo‘lib, ularning barchasi affiksatsiya usulida yasalgan. Tahlil qilingan so‘zlar yasalishida *-bon*, *-dor* affikslari serunumligi bilan ajralib turadi.

<sup>1</sup> Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Б.138.

<sup>2</sup> Бегматов Э. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994. – Б.117.

<sup>3</sup> Мухтманбалар. Арабчадан Р.Зоҳид ва А.Дехқон таржимаси. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б. 303.

<sup>4</sup> Кўрсатилган манбалар. – Б. 303-304.

<sup>5</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С.79.

2. Arab lugʻaviy qatlamiga mansub soʻzlarning ham aksariyati yasama boʻlib, uch undoshli solim feʼllarning turli qoliplarida hosil qilingan. Shu bilan birga notoʻgʻri feʼllar asosida yuzaga kelgan soʻzlar ham koʻpchilikni tashkil qiladi.

3. Oʻzlashma soʻzlarning koʻpchiligida ularning asl lugʻaviy maʼnolaridan birining taraqqiyoti natijasida oʻzlashma soʻzlarga mansub birliklar yuzaga kelgan.

## UMUMIY XULOSALAR

1. O‘zbek xalqining katta bir qismi tarixi aslicha bayon qilingan Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy manbalarini lingvistik tadqiq etish, birinchi navbatda ulardagi o‘zlashma so‘zlarni lingvistika va tarix fani materiallari asosida puxta o‘rganishni talab qiladi.

2. Manbalardagi o‘zlashma so‘zlarning mavzuiy-semantik tasnifida tadqiqot obyekti materiallari, tadqiqot obyektida bayon qilingan davr yoki manbalar voqealarida bayon qilingan hududning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, davlat boshqaruv tizimi, tadqiq qilinayotgan manbalar adabiy tilning qaysi tarixiy etapiga mansubligi, manbalar muallifining xos (individual) uslubi, manbalar xarakteri (tarixiy, badiiy, tarixiy-badiiy, memuar, badiiy-memuar, diniy kabi)ga o‘xshagan jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.

3. O‘zlashma so‘zlarga mansub ayrim so‘zlarning ko‘chma ma’nosi, omonimi ham bo‘lishi mumkinligini ushbu manbalar lug‘at tarkibi ham ko‘rsatib beradi.

4. O‘zlashma so‘zlar tizimida o‘z qatlamga mansub so‘zlar miqdori yozma adabiyotda muallifining uslubi, manbalar bitilgan yoki undagi voqealar qalamga olinayotgan davr davlat tuzumi kabi omillar bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Ogahiyning tarixiy manbalarida ham o‘z qatlamga mansub o‘zlashma so‘zlarning miqdori, qo‘llanish chastotasi o‘zlashma qatlamga nisbatan kam emasligini ko‘rish mumkin.

5. Eroniy qatlamga mansub so‘zlarning ayrimlari fonetik variantlarda ishlatilgan. Ulardan ba’zilari hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llaniladi. Shu bilan birga ushbu so‘zlarning manbalarda anglatgan ma’nolari hozirgi o‘zbek adabiy tilida bildirgan ma’nolaridan farq qiladi. Bu so‘zlarning ko‘pchiligi sinxron jihatdan tub so‘z hisoblansa ham, etimologik tahlil ularning aksariyati tarixan yasama ekanini ko‘rsatdi.

6. Tahlilga tortilgan soʻzlarning ayrimlarini sinxron jihatdan maʼnoli qismlarga ajratish mumkin. Ular, asosan, arabcha+forscha, forscha+forscha va forscha+turkiy tarzida hosil qilinganligi kuzatildi.

7. Manbalar lugʻat fondida substrat sifatida qarash mumkin boʻlgan soʻzlar ham uchraydi.

8. Manbalar davomida eroniy va arabiy qatlamga mansub aksar soʻzlarning turkiy muqobili ishlatilganini Ogahiyning oʻzlashma soʻzlardan foydalanish mahorati mezonlaridan biri deb qarash mumkin.

9. Eroniy qatlamga mansub soʻzlarning aksariyati tarixan yasama boʻlib, ularning barchasi affiksatsiya usulida yasalgan. Tahlil qilingan soʻzlar yasalishida *-bon*, *-dor* affikslari serunumligi bilan ajralib turadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз.- Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Каримов И.А. Хива шаҳрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи // Халқ сўзи. – Тошкент, 1997 йил. – 21 октябр.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 31 б.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T:“Ma'naviyat”,2007.

### **II. Asosiy adabiyotlar:**

1. Абдуллаев В. Алишер Навоий анъаналарининг хоразмлик шоирлар томонидан давом эттирилишига доир // Шарқ юлдузи. – 1959. – № 4. – Б. 127-137.
2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 167 б.
3. Алишер Навоий манбалари тилининг изоҳли луғати. I-IV жилдлар. – Тошкент: Фан, 1983-1985. I жилд, 1983. – 656 б.; II жилд, 1983 – 643 б.; III жилд, 1984. – 624 б.; IV жилд, 1985. – 636 б.
4. Алишер Навоий. Мукаммад манбалар тўплами. 20 томлик. 6-том. – Тошкент: Фан, 1990. – 568 б.; 11-том. – Тошкент: Фан. 1996. 640 б.; 3-том. – Тошкент, 1989. – 616 б.; 7-том. – Тошкент, 1991. – 392 б.; 8-том. – Тошкент: Фан, 1991. – 541 б.; 12-том. Тошкент: Фан, 1996. – 325 б.
5. **Амир Темур. Темур тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. – Тошкент, 1996.**

6. Атоқли шоир, тарихнавис ва таржимон. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
7. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1968. – 279 б.
8. Баранов Х. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985. – 944 с.
9. Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №.1. – С.63-71.
10. Бафоев Б. Навоий манбалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 160 б.
11. Бегматов э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
12. Дадабоев Ҳ. Тарихий харбий терминлар луғати. –Тошкент: Университет, 2003.
13. Дадабоев Ҳ. Огаҳий тарихий манбаларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами) №3. – Тошкент, 2009. –Б. 21-24.
14. Дадабоев Ҳ. Огаҳий тили билимдони // Маърифат фидойиси. (Субутой Долимов таваллудининг 100 йиллиги муносабати билан) – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. –Б.181-183.
15. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – 156 б.
16. Дўсимов З. Огаҳийнинг Зубдату-т- таворих манбаларининг лексик-грамматик хусусиятлари ҳақида // Огаҳий абадияти. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 37-41.
17. Жўраев Б. “Бош” сўзининг маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1982. – №3. – Б. 46-49.

18. Замахшарий М. Муқаддимат ул-адаб. Феъллар боби. Таржимон ва нашрга тайёрловчи З.Исломов. – Тошкент: Ислон университети нашриёти, 2002. Сўз боши – Б. 3-10. Луғат қисми 886 б.
19. Иброҳимов А. Бобур манбаларидаги ўзлашма лексиканинг статистик, семантик ҳамда этимологик таҳлили: Филол. фанлари д-ри дис... автореф. – Тошкент, 2008. – 52 б.
20. Иброҳимов Н. Юсупов М. Араб тили грамматикаси. Биринчи том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. – 456 б.
21. Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий манбалари учун луғат. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 782 б.
22. Ислон. Спровочник. – Тошкент, 1989. –Б.176.
23. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал эр эгаллиги ва давлат бошқаруви. – Тошкент: Ўз ФАН, 1957.
24. Йўлдошев Р. Огаҳий поэзиясида “ов” мазмун майдони // Илм сарчашмалари, 2005, 4-сон. – Б. 78-82..
25. Йўлдошев Р. Огаҳий поэзиясида антонимлар // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2005. - №1. – Б.52–55.
26. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Iтом. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1960. – 499 б.
27. Кошғарий М. Девону луғотит турк. IIтом. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1961. – 427 б.
28. Кошғарий М. Девону луғотит турк. IIIтом. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: ЎзФАН, 1963. – 466 б.
29. Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994.
30. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999.
31. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент: Фан, 1973. – 192 б.

32. Матғозиев А. Ҳарбий терминлар тарихига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1974. – №1. – Б. 47-50.
33. Муҳаммад Алихон Гафур. Хива сафари. Форс тилидан И.Бекчон таржимаси. – Тошкент: Халқ мероси нашриёти, 2005. – 73 б.
34. Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Манбалар. 1-жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 392 б.
35. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳид ул-иқбол. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – 335 б.
36. Мухтманбалар. Араб тилидан Р.Зоҳид ва А.Дехқон таржимаси. –
37. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 93 б.
38. Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент, 2003. – 959 б.
39. Огаҳий абадияти. Ал-Хоразмий номидаги Урганч давлат университети, Хоразм Маъмун академияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 152 б.
40. Огаҳий. Ишқ аҳлининг тумори. Танланган манбалар. – Тошкент: Мерос, 1999.
41. Огаҳий. Ой кетди, офтоб келди. Форсийдан М.Абдулҳаким таржимаси. – Хива: Хоразм Маъмун академияси нашриёти, 2002. – 42 б.
42. Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин / Нашрга тайёрловчи Хуршид. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1960. – 648 б.
43. Персидско-русский словарь. Том I– М.: Русский язык, 1983. – 782 с.
44. Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – 864 с.

### III. Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Биринчи том. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
3. Раҳматуллаев Ш., Миртожиев М., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқача этимологик луғати. Биринчи қисм –Тошкент: Университет,1997.
4. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 155 б.
5. Таржумон – XIV аср обидаси. Нашрга тайёрловчи А.Юнусов. – Тошкент: Фан, 1980. – 127 б.
6. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. Тошкент:1968. – Б.109-120.
7. Фазылов И. Староузбекский язык. Хорезмские памятники XIV века. Том I. – Ташкент: Фан, 1966. – 651 с.
8. Фазылов э.И. Староузбекский язык. Хорезмские памятники XIV века. ТомII– Ташкент: Фан, 1971. – 780 с.
9. Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 176 б.
10. Чинги Мухаммед Якуб. Келурнаме. (Стараузбекско-таджикско-персидский словарь XVII в.) Введение, транскрипсия и перевод текста, глоссарий, лексико-грамматический очерк, грамматический указател А.Ибрагимовой. – Ташкент: Фан 1982. – 146 с.;
11. Чориев З. Тарих атамаларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999.

12. Ўзбек тили лексикасида арабча сўзлар // Ҳозирги замон ўзбек тили. Лексикография. Фонетика. Графика ва Орфография. Морфология. Фахри Камол таҳрири остида. – Тошкент: ЎзФАН, 1957. –Б.99-101.
13. Ўзбек тилидаги арабча ва форсча сўзлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. 1996.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси. 2006. – 680 б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том.– Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси. 2006. – 688 б.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-том. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси. 2008. – 602 б.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси. 5-том. 2008. – 592 б.
18. Ғанихўжаев Ф. “Таъвиз-ул-ошиқин” девони ва унинг илмий-танқидий матни: Филол. фанлари доктори...дис. автореф. –Тошкент, 1998.
19. Ғанихўжаев Ф. Огаҳий манбалари тавсифи. –Тошкент: Фан, 1986. – 125 б.
20. Ҳасанов Б. Навоий манбалари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – 324 б.
21. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
22. Ҳофиз Убаҳи. Тухфат-ул-аҳбоб. Ҳозиркуандаи нашр Ҳ.Рауфзода. – Душанбе: Ирфон, 1992.– 195 с.
23. XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. –Тошкент, 1990. – 254 б.
24. اوستا. مترجم جليل دوستخواه. تهران. مرواريد. ۱۹۹۱. ۱۱۲۶. ص
25. ابو عبدالله محمد احمد بن يوسف خوارزمی. مفاتيح العلوم. الناشر كمال الدين الادهمی. مصر. ۱۳۴۹. ص. ۷۷.

#### IV. Elektron ta'lim resurslari:

1. Ал-рамс. www. мехрахгам. com. درج ۳. بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. لغت نامه . 1  
www.дорар.нет. قاموس المحيط
2. <http://www.yedu.ru>
3. <http://www.yedu.uz>
4. <http://www.yeqworld.ru>
5. <http://ru.wikipedia.org>
6. <http://www.prepodu.net>
7. <http://www.twirpx.com>
8. <http://www.ziyonet.uz>
9. <http://www.allpravo.ru>



